



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti huzuridagi
Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish tarmoq markazi

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXINI DAVRLASHTIRISH MASALASI

o'quv - uslubiy majmua

O'zbek tili filologiyasi: o'zbek
adabiyotshunosligi
yo'nalishi tinglovchilari uchun



2026



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXINI DAVRLASHTIRISH MASALASI

moduli uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo'nalishi: O'zbek tili filologiyasi: o'zbek
adabiyotshunosligi



Toshkent – 2026

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

A.Erkinov – filologiya fanlari doktori,
v.b. prof. IIAU

Taqrizchilar:

S.Meliyev - filologiya fanlari doktori,
professor

M.Abdullayeva - filologiya fanlari
doktori, professor

J.Eshonqul - filologiya fanlari doktori,
professor

A.Oldfield - professor

*Mazkur o'quv-uslubiy majmua **Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining** qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2025-yil “29”dekabrdagi 6- sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

T/r	Bo'limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O'QUV DASTUR	16
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	30
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI	104
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI	109
V.	KEYSLAR BANKI	111
VI.	GLOSSARIY	124
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	128
VIII.	TAQRIZ	132

I. ISHCHI O'QUV DASTUR



KIRISH

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-14-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmonlari, shuningdek, 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-son va 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining ta'lim-tarbiya jarayonlarida ma'naviy-ma'rifiy muhit barqarorligini ta'minlash, davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini va daxldorlik tuyg'ularini oshirish, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini o'zlashtirish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-

mohiyatini o'rganish, undagi asosiy o'zgarishlarni tahlil etish va baholash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

"O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari" moduli oliy maktab professor-o'qituvchilari malakasini oshirish tizimi oldiga davr tomonidan qo'yilayotgan yangi talablar asosida tuzilgan. Mamlakat hayotida yuz berayotgan jiddiy o'zgarish va yangilanishlar, shubhasiz, oliy filologik ta'lim tizimida adabiyot o'qitishni yo'lga qo'yish borasida ham tubdan yangilanish bo'lishini taqozo qiladi.

Ochunning mavjudligi va taraqqiyotida shaxsning o'rni tobora yuksalib borayotganligi butun dunyoda insonda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Bu hol, o'z navbatida, filologik ta'lim samaradorligini oshirishni talab etadi. Chunki badiiy adabiyot odamda ezgu ma'naviy sifatlar tarkib topdirishning eng samarali yo'lidir.

Davr o'zgarishi bilan badiiy adabiyotga munosabat va unga yondashuv yo'sinlari ham o'zgarib bormoqda. Oldinlari badiiy bitikka odamlarga nasihat qilish, ortidan ergashtirish vositasi tarzida qaralib kelingan bo'lsa, endilikda adabiyot va adabiy ta'limga o'qirmanda akseologik munosabat uyg'otish, baho berishga ichki ehtiyoj paydo qilish omili sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv yo'sini oliy o'quv yurtlarida adabiyot o'qitishga ham yangicha munosabatda bo'lishni talab qilmoqda.

Bugungi odam ma'naviyati shakllanishi uchun badiiy asarni o'qish, tushunish va tahlil qilish hamda bitikdan kelib chiqadigan ijtimoiy-estetik ma'noni anglash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu hol ta'lim-tarbiya tuzilmalarida adabiyot o'qitish samaradorligini oshirishni taqozo qilmoqda.

Shuning uchun ham ushbu modul oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilariga adabiyot o'quv fanlarini o'qitishda yangicha yondashuv yo'llari borasida tushuncha beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“O‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari” modulining maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilarida adabiyotga doir turli fanlar, ayniqsa, “Adabiyot o'qitish metodikasi” fanini o'qitish borasida yangicha ilmiy yondashuvlarni shakllantirish va ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini o'rgatishni ko'zda tutadi.

Ushbu modulning **vazifalari** quyidagilardan iboratdir:

- oliy maktab professor-o'qituvchilarini adabiyotga tegishli fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga doir ilmiy-metodik yangiliklar bilan tanishtirish;
- Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarida o'zbek adabiyoti yo'nalishidagi istalgan fandan ma'ruza o'qish, amaliy mashg'ulotlar o'tish malakasini qaror topdirish;
- tinglovchilarda “Adabiyot o'qitish metodikasi” kursi bo'yicha samarali saboqlar uyushtirish ko'nikmasini shakllantirish;
- professor-o'qituvchilarda “Adabiyot o'qitish metodikasi” kursini o'tishda turli innovatsion usullardan foydalana bilish ko'nikmasini tarkib topdirish;
- tinglovchilarda adabiyotga doir fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llay olish malakasini shakllantirish;
- tinglovchilarni turli janr va adabiy yo'nalishlardagi badiiy asarlarni tahlil qilishga o'rgatish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“O‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi **bilim**larga ega bo'lishi kerak:

- o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik masalalarini;
- XX asrning birinchi yarmida o'zbek adabiyotshunosligida davrlashtirish tamoyillariga oid qarashlarni;

- o'zbek adabiyotini xronologik bosqichlarga bo'lib o'rganishni;
- adabiy ta'lim mazmunini tashkil etadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarini;
- adabiyot o'qitish kechimiga kreativ yondashuvni;
- adabiyot o'qitishning asoslari nimalardan iborat ekanligini;
- adabiy ta'limning mazmunini tashkil etadigan pedagogik unsurlarni;
- adabiyot o'qitish samaradorligiga erishishda professor-o'qituvchining talabalar bilan, talabalarning o'zaro bir-biri bilan sherikligini yo'lga qo'yishni;
- adabiyot o'qitishda talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning hal qiluvchi ahamiyatga egaligini;
- adabiy ta'lim birinchi navbatda kishining tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish orqali ularda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirish vositasi ekanini.

Ushbu modul tinglovchida tubandagi **ko'nikmalar** shakllantirishga xizmat qiladi:

- adabiyotda davrning ijtimoiy manzarasi aks etishini yoritib berish;
- davrlashtirishdagi asosiy tamoyillar: adabiy tarixiy va siyosiy jarayonlarni tushuntira olish;
- chig'atoy tili va adabiyoti hamda davrlashtirish masalalarini tahlil qilish;
- Temuriylar davri chig'atoy adabiyotining asosiy xususiyatlarini ochib bera olish;
- tilni mukammal va nomukammal egallashni belgilovchi omillarni tahlil qilish;
- adabiyot saboqlarini o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar qaror topdirishga yo'naltirish;
- har qanday badiiy asarni o'quv yoki ilmiy tahlilga torta olish;
- adabiyot saboqlarida ko'rkam bitik borasidagi qarashlarning har xil bo'lishiga yo'l qo'yish;
- o'rganilayotgan ko'rkam asar yuzasidan talabalarning fikr-mulohazalarini, ularga qo'shilmagan taqdirda ham, xotirjam qabul qila bilish;
- badiiy asardagi muhim unsurlarni nomuhimlaridan ajrata olish.

Ushbu modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar tubandagi **malakalarni** egallashlari mo'ljallanadi:

- ijtimoiy fikr tarixi har bir davr adabiyotining muhim belgilaridan biri ekanligini anglash;
- diniy oqimlar va islomgacha bo'lgan qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish tamoyillarini bilish;
- islomgacha bo'lgan davrdagi diniy oqimlar haqida ma'lumotlarni tahlil qila olish;
- Temuriylar davri chig'atoy adabiyotining asosiy xususiyatlarini

farqlay olish;

- G‘aznaviylar davri adabiyotining shakllanish manbalarini bilish;
- turli janrlardagi badiiy asarlarni filologik tahlil qilish orqali nutqiy kompetentlikni o‘stirish texnologiyasini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- istalgan bilim darajasiga ega auditoriya ahli bilan aloqaga kirisha bilish;
- adabiyot saboqlarida o‘qitishning interfaol usullaridan foydalana bilish;
- adabiyot bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda muammoli ta’lim usulini
- qo‘llay olish;
- adabiyotga doir fanlar yuzasidan talabalar bilimini xolis baholay bilish;
- adabiyot saboqlarini talabalar uchun qiziqarli mashg‘ulotlarga aylantira
- olish.

Modulni to‘liq o‘zlashtirish natijasida tinglovchi professor-o‘qituvchilar kreativ kompetentlikni shakllantirish, badiiy tahlil **kompetentligiga** ega bo‘ladilar. Unda tekshirilayotgan asarning qaysi tur va janrdan ekanidan qat’i nazar bitikka xos asosiy xususiyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish yo‘llarini egallaydilar.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“**O‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari**” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullari, badiiy adabiyot va estetika ilmidagi eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan:

- ma’ruza shaklidagi saboqlarda milliy va chet el adabiyot metodikasi fanlaridagi so‘nggi yutuqlardan foydalanish;
- masofadan o‘qitish orqali tinglovchilarning adabiyot o‘qitishga doir yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg‘ulotlarda ta’limning fikriy hujum, kichik guruhlar bilan ishlash singari interfaol usullarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“**O‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari**” moduli o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog‘langan.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “**O‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari**” mutaxassislik fanini o‘qitishning eng ilg‘or yo‘llarini

egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan adabiy yaratishlar to'g'risida fikr bildirish ko'nikmasi shakllantiriladi. Natijada, fanni o'qitish samaradorligini sezilarli oshiradi.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi Soatlari			
		Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot
1.	O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik masalalari. Diniy oqimlar va islomgacha bo'lgan qalimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish tamoyillari	2	2		
2.	G'aznaviylar davri adabiyotining shakllanish manbalari	2	2		
3.	Chig'atoy tili va adabiyoti hamda davrlashtirish masalalari. Temuriylar davri chig'atoy adabiyotining asosiy xususiyatlari	4	2	2	
4.	Moniylik va buddaviylik oqimlari qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida	4	2	2	
5.	O'zbek adabiyotini xronologik bosqichlarga bo'lib o'rganish masalasi	2		2	
6.	Oltoy nazariyasi va turkiy tillarning, shuningdek, turkiy qavmlar etnik jarayonining ilk davri.	2		2	
Jami		16	8	8	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**1-mavzu. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik masalalari. Diniy oqimlar va islomgacha bo'lgan qalimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish tamoyillari**

Adabiyotda davrning ijtimoiy manzarasi aks etishi. ijtimoiy fikr tarixi har bir davr adabiyotining muhim belgilaridan biri ekani. Adabiyotni davrlashtirishda o'ziga xos omillar, vositalar, ijtimoiy-tarixiy jarayon, falsafiy-diniy oqimlar, turli adabiy kategoriyalarga tayanish zarurati. XX asrning birinchi yarmida o'zbek adabiyotshunosligida davrlashtirish tamoyillariga oid qarashlar. Davrlashtirishdagi asosiy tamoyillar: adabiy tarixiy va siyosiy jarayonlar. Diniy oqimlar va islomgacha bo'lgan qalimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish tamoyillari. Islomgacha bo'lgan davrdagi diniy oqimlar haqida qisqacha ma'lumot. Diniy oqimlar yozma adabiyotni yuzaga keltiruvchi omil sifatida. Adabiyotda davrning ijtimoiy manzarasi aks etishi ijtimoiy fikr tarixi har bir davr adabiyotining muhim belgilaridan biri ekani. Adabiyotni davrlashtirishda o'ziga xos omillar, vositalar, ijtimoiy-tarixiy jarayon, falsafiy-diniy oqimlar, turli adabiy kategoriyalarga tayanish zarurati. XX asrning birinchi yarmida o'zbek adabiyotshunosligida davrlashtirish tamoyillariga oid qarashlar. Davrlashtirishdagi asosiy tamoyillar: adabiy tarixiy va siyosiy jarayonlar. V.V.Bartold, A.Samoylovich, F.Ko'prulizoda, A.Fitratning chig'atoy adabiyotiga bildirgan munosabatlari. Fitratning "savdo sarmoyasi davri adabiyoti" termini haqida. Miyon Buzruk Solihovning davrlashtirishdagi o'ziga xosliklar.

2-mavzu. G'aznaviylar davri adabiyotining shakllanish manbalari

Markaziy Osiyodagi ijtimoiy va madaniy hayotda g'aznaviylar davlatining roli. G'aznaviy hukmdorlarining ilm-fan rivojidagi xizmatlari. Beruniyning ilmiy faoliyatida adabiyotshunoslik. Beruniy- ijodkor. Beruniy asarlarida turli adabiy janrlar. Beruniyning tarixni davrlashtirish tamoyillari.

Tarixiylik tamoyili adabiyotni yoki adabiy janrlarni ayni bir tarixiy davrga xizmat qildirishi. Tarixiy sanalar bilan tarixiylik tamoyili. Beruniy "Payg'ambarlikka da'vo qiluvchi kishilar" bobida Tarixiylik tamoyiliga munosabati. Beruniyning tarixni davrlashtirishi va davrlashtirishga bo'lgan omillar – afsonalar va rivoyatlarga munosabati

Budda, Moniy obrazlarinnng buddaviylik va moniylik oqimdagi turkiy adabiyotda transformatsiyasi. Bu oqimlardagi she'rlarning mohiyati. "Oltun yorug'", "Xuastuanift"ning g'oyaviy mazmuni. O'zbek adabiyotini xronologik

bosqichlarga bo'lib o'rganish masalasi. Xronologiya va adabiy-estetik kategoriyalarning nomuvofiqligi. Sulolalar va xonliklar davridagi adabiy jarayonning o'ziga xos jihatlari, sulolalarning adabiy-madaniy jarayondagi roli. Abulg'oz Bahodirxon rivoyat va afsonalarda o'z uslubini – ijodkor uslubini ishlab chiqqani va bu tamoyillarning uning asarlarida aks etishi. Adabiy–estetik tamoyillar ma'lum davr adabiyotida “burilish” yasashi. Bunday “burilish”larning Qoraxoniylar davri adabiyotida, Oltin O'rda adabiyotida va Temuriylar davri chig'atoy adabiyotida namoyon bo'lishi.

3-mavzu. Chig'atoy tili va adabiyoti hamda davrlashtirish masalalari.

Temuriylar davri chig'atoy adabiyotining asosiy xususiyatlari

Oltoy nazariyasi va turkiy tillarning, shuningdek, turkiy qavmlar etnik jarayonining ilk davri. N.A.Baskakovning chig'atoy tiliga mansub ilk davrlardagi yozma adabiyotga bergan tavsifi va u ilgari surgan qarashlar. V.Radlov, F. Ye. Korsh, P. Melioranskiyning chig'atoy tili geografiyasi va davrlashtirilishiga oid kuzatuvlari, tahlillari. “Qisasi Rabg'uziy”ning til xususiyatlari bilan eski uyg'ur-turk yozuvidagi yodgorliklar o'rtasida uyg'unlik.

“Chig'atoy adabiyoti” terminiga sharhlar. Yevropa sharqshunosligi va turkologiyasida “chig'atoy adabiyoti” termini o'zbek adabiyotining ifodasi sifatida qo'llangani. Turk olimi Ko'prulizodaning chig'atoy (ya'ni o'zbek) adabiyotini davrlashtirish tamoyillari. Abdurauf Fitrat va Miyon Buzrukning chig'atoy adabiyotiga munosabatlari. V.V.Bartoldning chig'atoy adabiyotiga qarashi. Temuriylar davrida ma'naviy yuksalish. Temuriylar davri chig'atoy adabiyotida ruboiy, murabba', muxammas, musaddas kabi she'riy janrlar takomili. O'zbek nasri va she'riyatida Xuroson uslubi. Temuriylar davri adabiyotining asosiy belgilari: chig'atoy tilining amal qilgani, etnik jarayon, turkiy tildagi badiiy va ilmiy asarlar, oldingilardan farqli ravishda adabiyotda ijtimoiy fikrning aks etgani, geografik hudud, yangi janrlar va h..

4-mavzu. Moniylik va buddaviylik oqimlari qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida

Budda, Moniy obrazlarinng buddaviylik va moniylik oqimdagi turkiy adabiyotda transformatsiyasi. Bu oqimlardagi she'rlarning mohiyati. “Oltun yorug'”, “Xuastuanift”ning g'oyaviy mazmuni. Moniy shaxsi va uning Sosoniylar sulolasi davrida o'ynagan roli. Beruniy Moniy haqida. Moniy ta'limoti va yozma adabiyot. Moniylik oqimidagi adabiyotning asosiy xususiyatlari. Buddaviylik oqimi qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida.

Buddaviylik oqimi haqida qisqacha ma'lumot. Buddaviylik oqimi va qadimgi turkiyga qilingan tarjima adabiyotlari. "Oltun yorug'" va undagi afsona va rivoyatlar. Buddaviylik va "ixtiyoriy faqirlik". Buddaning va'dalari bilan ixtiyoriy faqirlik o'rtasidagi uyg'unlik. Turkiy afsona va miflardagi mifologik qahramonlarning "Oltun yorug'"da aks etishi. Erlik, Zervan va Xo'rmuzd obrazlari. Shomonlik oqimi qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish omili sifatida. Shomonlik haqida qisqacha ma'lumot. Urxun-yenisey yodgorliklarida shomonlikka oid g'oyalar, aqidalar va obrazlar. Bu yodgorliklardagi g'oya va obrazlar yozma adabiyotni omili sifatida.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mashg'ulot. Chig'atoy tili va adabiyoti hamda davrlashtirish masalalari. Temuriylar davri chig'atoy adabiyotining asosiy xususiyatlari

Oltoy nazariyasi va turkiy tillarning, shuningdek, turkiy qavmlar etnik jarayonining ilk davri. N.A.Baskakovning chig'atoy tiliga mansub ilk davrlardagi yozma adabiyotga bergan tavsifi va u ilgari surgan qarashlar. V.Radlov, F. Ye. Korsh, P. Melioranskiyning chig'atoy tili geografiyasi va davrlashtirilishiga oid kuzatuvlari, tahlillari. "Qisasi Rabg'uziy"ning til xususiyatlari bilan eski uyg'un-turk yozuvidagi yodgorliklar o'rtasida uyg'unlik.

"Chig'atoy adabiyoti" terminiga sharhlar. Yevropa sharqshunosligi va turkologiyasida "chig'atoy adabiyoti" termini o'zbek adabiyotining ifodasi sifatida qo'llangani. Turk olimi Ko'prulizodaning chig'atoy (ya'ni o'zbek) adabiyotini davrlashtirish tamoyillari. Abdurauf Fitrat va Miyon Buzrukning chig'atoy adabiyotiga munosabatlari. V.V.Bartoldning chig'atoy adabiyotiga qarashi. Temuriylar davrida ma'naviy yuksalish. Temuriylar davri chig'atoy adabiyotida ruboiy, murabba', muxammas, musaddas kabi she'riy janrlar takomili. O'zbek nasri va she'riyatida Xuroson uslubi. Temuriylar davri adabiyotining asosiy belgilari: chig'atoy tilining amal qilgani, etnik jarayon, turkiy tildagi badiiy va ilmiy asarlar, oldingilardan farqli ravishda adabiyotda ijtimoiy fikrning aks etgani, geografik hudud, yangi janrlar va h..

2- mashg'ulot. Moniylik va buddaviylik oqimlari qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida

Budda, Moniy obrazlarinng buddaviylik va moniylik oqimdagi turkiy adabiyotda transformatsiyasi. Bu oqimlardagi she'rlarning mohiyati. "Oltun yorug'", "Xuastuanift"ning g'oyaviy mazmuni. Moniy shaxsi va uning Sosoniylar

sulolasi davrida o'ynagan roli. Beruniy Moniy haqida. Moniy ta'limoti va yozma adabiyot. Moniylik oqimidagi adabiyotning asosiy xususiyatlari. Buddaviylik oqimi qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida.

Buddaviylik oqimi haqida qisqacha ma'lumot. Buddaviylik oqimi va qadimgi turkiyga qilingan tarjima adabiyotlari. "Oltun yorug'" va undagi afsona va rivoyatlar. Buddaviylik va "ixtiyoriy faqirlik". Buddaning va'dalari bilan ixtiyoriy faqirlik o'rtasidagi uyg'unlik. Turkiy afsona va miflardagi mifologik qahramonlarning "Oltun yorug'"da aks etishi. Erlik, Zervan va Xo'rmuzd obrazlari. Shomonlik oqimi qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish omili sifatida. Shomonlik haqida qisqacha ma'lumot. Urxun-yenisey yodgorliklarida shomonlikka oid g'oyalar, aqidalar va obrazlar. Bu yodgorliklardagi g'oya va obrazlar yozma adabiyotni omili sifatida. Moniy shaxsi va uning Sosoniylar sulolasi davrida o'ynagan roli. Beruniy Moniy haqida. Moniy ta'limoti va yozma adabiyot. Moniylik oqimidagi adabiyotning asosiy xususiyatlari. Buddaviylik oqimi qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida.

Buddaviylik oqimi haqida qisqacha ma'lumot. Buddaviylik oqimi va qadimgi turkiyga qilingan tarjima adabiyotlari. "Oltun yorug'" va undagi afsona va rivoyatlar. Buddaviylik va "ixtiyoriy faqirlik". Buddaning va'dalari bilan ixtiyoriy faqirlik o'rtasidagi uyg'unlik. Turkiy afsona va miflardagi mifologik qahramonlarning "Oltun yorug'"da aks etishi. Erlik, Zervan va Xo'rmuzd obrazlari. Shomonlik oqimi qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish omili sifatida. Shomonlik haqida qisqacha ma'lumot. Urxun-yenisey yodgorliklarida shomonlikka oid g'oyalar, aqidalar va obrazlar. Bu yodgorliklardagi g'oya va obrazlar yozma adabiyotni omili sifatida.

3- mashg'ulot. O'zbek adabiyotini xronologik bosqichlarga bo'lib o'rganish masalasi.

O'zbek adabiyotini xronologik bosqichlarga bo'lib o'rganish masalasi. Chig'atoy tili va adabiyoti hamda davrlashtirish masalalari. Temuriylar davri chig'atoy adabiyotining asosiy xususiyatlari. Temuriylar davri chig'atoy adabiyotining asosiy xususiyatlari. Oltoy nazariyasi va turkiy tillarning, shuningdek, turkiy qavmlar etnik jarayonining ilk davri. G'aznaviylar davri adabiyotining shakllanish manbalari. Moniylik va buddaviylik oqimlari qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida. "Oltin O'rda" degan nom va hududi to'g'risida. Oltin O'rda madaniy muhiti. Oltin O'rda davlatida turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e'tibor. Oltin O'rda o'zbek adabiyoti rivojida alohida bosqichni paydo qilgani. Oltin O'rda madaniy muhitida adabiy maktablar va oqimlar, adabiy

janrlar, uslublar, mavzuning o‘ziga xosligi. xalq og‘zaki ijodi janrlari asosida yozma adabiyotda yangi janr namunalari paydo bo‘lgani: “Qisasi Rabg‘uziy”dagi qissa, hikoyat, naql, rivoyat, latifa kabi bir qator janrlar. “Nahj ul-farodis”ning uslubi og‘zaki nutq uslubiga yaqinligi.

4- mashg‘ulot. Oltoy nazariyasi va turkiy tillarning, shuningdek, turkiy qavmlar etnik jarayonining ilk davri.

Oltoy nazariyasi va turkiy tillarning, shuningdek, turkiy qavmlar etnik jarayonining ilk davri. G‘aznaviylar davri adabiyotining shakllanish manbalari. Moniylik va buddaviylik oqimlari qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida. “Oltin O‘rda” degan nom va hududi to‘g‘risida. Oltin O‘rda madaniy muhiti. Oltin O‘rda davlatida turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e’tibor. Oltin O‘rda o‘zbek adabiyoti rivojida alohida bosqichni paydo qilgani. Oltin O‘rda madaniy muhitida adabiy maktablar va oqimlar, adabiy janrlar, uslublar, mavzuning o‘ziga xosligi. xalq og‘zaki ijodi janrlari asosida yozma adabiyotda yangi janr namunalari paydo bo‘lgani: “Qisasi Rabg‘uziy”dagi qissa, hikoyat, naql, rivoyat, latifa kabi bir qator janrlar. “Nahj ul-farodis”ning uslubi og‘zaki nutq uslubiga yaqinligi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda adabiy ta’limga doir masalani yeshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to'siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg'ular tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi.
T	To'siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko'chma mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili;

	✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she'riy) matnni tahlil qilish uchun ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi.

F	- fikringizni bayon eting
S	- fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	- ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna:Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig'ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna: Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha soʻz boʻlib, tarkib maʼnosini anglatadi.
- B. Inglizcha soʻz boʻlib, tahlil maʼnosini anglatadi.
- C. Yunoncha soʻz boʻlib, talqin degan maʼnoni anglatadi.
- D. Lotincha soʻz boʻlib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lugʻaviy maʼnosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yoʻnalishi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yoʻnalishi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lugʻaviy maʼno beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu boʻyicha tayanch tushunchalarni oʻzlashtirish darajasini aniqlash, oʻz bilimlarini

mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impresiv va nutqning bo'yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo'lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko'ra farqlash	
Adabiy janr	O'z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo'lgan mustaqil shakliyl ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o'rganuvchi soha	

Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o'ziga xosligi	
-------	---	--

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.


“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Ifoda shakllari bo'yicha (she'riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.


Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma-ketligini aniqlash. O'zingizni tekshirib ko'ring!



Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o'z yozuvida o'qish tajribasi					
Matnni o'z tilida o'qib tushunish (lug'at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					




Grafik organayzer talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan

muayyan bo'lim yoki boblar bo'yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



III. NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI



1-MAVZU:

**O'ZBEK ADABIYOTI TARIXINI DAVRLASHTIRISHNING
NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI. DINIY OQIMLAR VA
ISLIMGACHA BO'LGAN QADIMGI TURKIY ADABIYOTNI
DAVRLASHTIRISH TAMOIYILLARI**

REJA:

1. *Adabiy jarayon va davrlashtirish*
2. *Metodologiya*
3. *XX asrning 30-yillari o'zbek adabiyotshunosligida davrlashtirish masalasi*
4. *Islomgacha bo'lgan qadimgi turkiy adabiyot*

Tayanch tushunchalar: *davrlashtirish, moniylik oqim, buddaviylik oqimi, mif, afsona, Qutadg'u bilig.*

Adabiy jarayon va davrlashtirish.

Hamma davrda adabiyotni hududiy va davr jihatidan belgilab, o'sha davrga alohida e'tibor berilgani diqqatni tortadi. Zotan, adabiyotda davrning ijtimoiy manzarasi aks etadi. Adabiyot "obrazli-poetik kechinma va kechinma turli shakllarda ifdalanadigan ijtimoiy fikr tarixi" ekani ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan. Darvoqe, ijtimoiy fikr tarixi har bir davr adabiyotining muhim belgilaridan biridir.

O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab o'zbek adabiyotini davrlashtirish bo'yicha Abdurauf Fitrat, Olim Sharafuddinov, Miyon Buzruk kabi qator olimlarning kuzatuvlari, 60-70-yillarda oliy ta'lim tizimi darsliklarida va akademik nashrlarda o'zbek adabiyotining ma'lum bir davrlari qaysi sanadan boshlab qaysi sanada tugashi haqidagi qarashlar ilgari surilgan edi. Bu qarashlarda ma'lum bir mezonlar ko'zga tashlanmaydi. Ana shu qarashlardagi har xilliklar bugungi kunda adabiyotshunoslikda bir qator jiddiy masalalarni, jumladan, o'zbek adabiyotini qaytadan davrlashtirish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda. Mustaqillik davrida oliy ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'qitish tajribasi shu masalaga alohida

turtki berishga diqqatimizni jalb qildi. “Adabiyotni alohida davrlashtirish shart emas, tarixiy davrlar bilan tenglashtirilsa ham bo‘ladi,” yoki “falon davrlardagi matnlarni o‘zbek adabiyotida alohida davr qilib berish kerak emas, bu davrda hali adabiy tasavvurlar shakllanmagan edi” deb aytadigan odamlar ham bor. Adabiyotni tor tushunish oqibati ba’zan o‘pirilishlarga olib keldi, davrlashtirishda ko‘p adabiy, ijtimoiy, tarixiy mazmundagi matnlar e’tibordan chetda qolib ketdi. Yunon va rim tarixiy manbalaridagi O‘rta Osiyo tarixiga oid “To‘maris”, “Shiroq”, “Zariadr va Odatida” kabi qissalardan tashqari, kichik afsonalar, O‘rta Osiyo qabilalari tarixiga oid ma’lumotlarni yozma adabiyot namunalari deb aytishdan ataylab o‘zimizni tiydik. Zotan, “badiiy asar” degan tushuncha bugungi badiiy asarlar tamoyillaridan tamomila farq qilishini va bu adabiy jarayonning bir qonuniyati ekanini hisobga olmadik. Aslida e’tibor berib qaralsa, o‘sha parchalarda ham o‘z davriga xos estetik tafakkur mujassamlashgan. Bu singari parchalardagi badiiylik tamoyillari sinkretik xarakterga ega ekanini, badiiylik elementlari o‘z davridagi adabiy tasavvurlardan ancha ilgari ketgani ma’lum. Adabiyotning ibtidosi yoki adabiy tasavvur mif paydo bo‘lishi bilan boshlanganini hatto bakalavr talabasi ham bilishini bu o‘rinda yana bir bor eslatishga to‘g‘ri keladi. Hatto adabiyotshunoslikda adabiy elementlar bilan adabiyotni davrlashtirish mezonlarining, tamoyillarining, adabiy tasavvurlarning davrlashtirishga qanchalik aloqadorligini ayrimlar farqlay olmaydilar. Bunday kaltabinlik adabiyotshunoslikning taraqqiyotiga putur yetkazadi. Agar davrlashtirish adabiyotshunoslikning mayda-chuyda, ahamiyatsiz tomonlari bo‘lganda edi, hozirda jahon adabiyotshunosligida bu masala ko‘tarilmagan, biz ham vaqtimizni bu masalaga behuda sarflamagan bo‘lar edik.

Shu o‘rinda, garchi achchiq bo‘lsa ham, o‘zbek adabiyotini davrlashtirishda hanuzgacha Daqyonusdan qolgan tasavvurlar borligini aytib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi. Oliy ta’lim tizimidagi “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti” faniga tuzilgan dasturga bir ko‘z yugurtirib chiqaylik.

Adabiyotni davrlashtirishda ibtidoiy qarashlarga emas, balki o'ziga xos omillar, vositalar, ijtimoiy-tarixiy jarayon, falsafiy-diniy oqimlar, turli adabiy kategoriyalarga tayanish lozim bo'ladi. Har bir davr adabiyotida yuqoridagi omillarning hammasi o'ziga xos ko'rinishda paydo bo'lgan ekan, o'zbek adabiyotshunosligini davrlashtirishda "Adabiy tasavvurlar va badiiy tafakkurning shakllanish davri", "Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi). Somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat(?)", "Mumtoz didaktik badiiy ijod, dostonchilik va qissachilikning vujudga kelish davri (XI-XIII asrlar)", "Tasavvufiy talqinlar va badiiy tafakkurning yuksalish davri (XIV-XVI asrlar)" kabi hech bir asosi yo'q, mantiqsiz, pala-partish davrlashtirish fanni ortga tortish, jahon adabiyotshunosligida bugungi kunda kechayotgan bahsu munozaralardan bexabarlik, o'zbek adabiyotining izchil rivojlanish jarayonlaridan ataylab ko'z yumish oqibatidir. Biz o'zbek mumtoz adabiyoti fanini talabalarga o'qitar ekanmiz, ularda adabiy-estetik jarayonning ildizlaridan ta'lim beramiz, islomiy madaniyatdan emas. Adabiy tasavvur mif paydo bo'lgan davrdan beri bor, adabiy tasavvur – adabiyotning alohida davri emas, balki qadimgi davrlardan beri shu bugungacha har qanday matn ostidagi badiiylik elementlaridir, adabiy tasavvurlar davrlashtirish asosi bo'lgan adabiy kategoriyalardan tamomila ayridir, deb uqtiramiz; mif – bu adabiy jarayonning eng dastlabki ko'rinishidir, deb adabiyotning eng qadimgi ildizlarini o'rgatamiz. Islomiy madaniyat to'g'risida bilim berish – oliy ta'lim tizimida barcha oliy o'quv yurtlarining bakalavr bosqichida o'qitiladigan "Madaniyatshunoslik", "Dinshunoslik" fanlarining vazifasidir. Qolaversa, o'zbek adabiyotining to'rt yuz yillik davri (VIII-XII asrlar) faqat islomiy madaniyat targ'ibotidan iborat emas, balki badiiy tafakkur ildiz otgan, Qoraxoniylar (XI asrning boshlari – XIII asrning boshlari) davri adabiyoti rivojlangan pallalar ekanini talabalarga anglatamiz.

"Mumtoz didaktik badiiy ijod, dostonchilik va qissachilikning vujudga kelish davri (XI-XIII asrlar)" degan davrda Qoraxoniylar davrining mahsuli

bo'lgan "Qutadg'u bilig"dan boshqa yana qaysi dostonchilik yoki qissachilik haqida so'z yuritish mumkin – bunisi bizga qorong'u. "Tasavvufiy talqinlar va badiiy tafakkurning yuksalish davri (XIV-XVI asrlar)" degan birmuncha g'ayritabiiy amalga oshirilgan davrlashtirish mutlaqo o'zini oqlamasligi ayon haqiqat. Tasavvufiy talqinlarning ilk ildizlari O'rta Osiyoda IX asrdan boshlab paydo bo'lgani haqida Beruniyning "Mineralogiya" kitobida ma'lumotlar bor, ayni paytda Ibn Sino va b.lar ijodida, turkiy adabiyotda "Qutadg'u bilig"da - XI asrda alohida oqim sifatida yorqin ko'rinadi. Badiiy tafakkur esa eng qadimgi davrlardan – miflar paydo bo'lgandan beri shakllangani fanga allaqachonlardan – XVIII asrdan beri ma'lum. Umuman, o'zbek adabiyotini davrlashtirishda dalillarga ochiq ko'z va mas'uliyat bilan yondashuv bo'lishi lozim.

Din turli xalqlarning adabiyotida ma'lum izlarini qoldiradi. Shuning natijasida turli oqimlar nomi bilan ataladigan buddaviylik, zardushtiylik, moniylik va shomonlik, konfusiylilik adabiyoti paydo bo'ldi. Mazkur oqimlar ta'sirida paydo bo'lgan adabiyotda obrazlar transformasiyasi tabiiy hol. Masalan, Budda obrazining transformasiyasini, yoki Xo'rmuzd, Erlik obrazining transformasiyasini misol tariqasida keltirish mumkin. Obrazlarning bir oqimdagi adabiyotdan boshqasiga o'sib o'tishi tabiiyki, mazkur obrazlar ishtirok etgan adabiyotning qayta ishlanishiga asos bo'lgan.

Adabiyotni davrlashtirish, birinchi navbatda, har bir davrdagi adabiy jarayonni to'g'ri va to'laqonli anglashga, ikkinchidan, adabiy jarayonning, xususan, o'zbek adabiyotining geografik chegaralarini aniq belgilashga, o'zbek adabiyoti faqat hozirgi O'zbekiston hududi bilan bog'lanib qolmaganini, aksincha, bizning adabiy merosimiz qamrovi va ildizlari keng ekanini dalillashga xizmat qiladi.

Metodologiya. Adabiyotshunoslikning eng muhim muammolaridan va vazifalaridan biri ma'lum bir davrdagi adabiy jarayonning boshqa bir davrdagi adabiy jarayondan alohidalik xususiyatlarini, ma'lum bir davr adabiyotini

davrlashtirish uchun asos bo'ladigan mezonlarni belgilashdan, bir so'z bilan aytganda, har bir davrning ma'lum adabiy qonuniyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Qonuniyat – bu turli tarixiy va adabiy davrlarda badiiy va estetik tafakkur tamoyillari va kategoriyalarining o'ziga xos xususiyatlari, turkiy adabiyotning diniy oqimlar, madaniy muhit, ijtimoiy hayot va b. lar bilan aloqalari, tarixiy va adabiy davrlarning mos kelish muammolarini tahlil qilish ekanini yana bir bor aytib o'tishga to'g'ri keladi. O'zbek adabiyotshunosligida ham bu muammolar dolzarbligini hamon saqlab kelmoqda.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, adabiyotni davrlashtirish uchun ma'lum bir davrdagi o'ziga xos adabiy hodisalarning o'zi yetarli emas, balki metodologiya ham muhimdir. O'zbek adabiyotini davrlashtirish metodologiyasi nafaqat bir tomonlama, balki ko'p tomonlama munosabatlarga tayanadi. "Davrlashtirish, metodologik nuqtai nazardan ahamiyatliliga va muhimligiga qaramay, hanuzgacha to'liq ishlab chiqilmagan. Ko'plab bahsli masalalar, masalan, ikki tomonlama munosabatlar va ko'p tomonlama munosabatlar kabi davrlashtirishga aloqador masalalar kun tartibida turibdi. Hatto adabiyotlararo munosabatlarni davrlashtirish imkoniyatlariga shubha bilan qaralmoqda". D.Dyurishinning yuqoridagi fikri adabiy aloqalarni davrlashtirish haqida. Shu o'rinda o'zbek adabiyotshunoslarida quyidagicha e'tiroz ohangidagi savol tug'ilishi mumkin: nega adabiy aloqalar adabiy jarayonni davrlashtirishga majburlab olib kelinishi kerak? Adabiy aloqalar davri adabiy jarayon davriga mos keladimi? Ha, ma'lum bir davrdagi adabiy aloqalarni davrlashtirish adabiy jarayonni davrlashtirishga mos keladi, adabiy aloqalar va adabiy jarayon o'rtasida yaqinlashuv holati (konvergensiya) kuzatiladi. O'zbek adabiyotida bu jarayonni biz ilgari surayotgan hamma davr adabiyotida kuzatishimiz mumkin. Adabiy aloqalar adabiy jarayon doirasida muhim bo'g'inni tashkil etadi. D.Dyurishin immanent davrlashtirish haqida so'z yuritadi. "Immanent" so'zining lug'aviy ma'nosi "biron buyum va hodisaning tabiatidan kelib chiqadigan ichki mansublik"ni ifoda etadi. Mazkur so'zning lug'aviy ma'nosi

-davrlashtirish ham bir necha asr davomida uzluksiz davom etib kelgan o'zbek adabiyotining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim deganidir. Ammo o'zbek adabiyotini davrlashtirish tadqiqi umumjahon adabiyoti kontekstidan ayri holda olib borilmasligi kerak, degan fikrdamiz.

Ana shunda o'zbek adabiyotining jahon madaniyatidagi mavqei ham oydinlashadi. Buning eng jonli namunasi hozirgi jahon adabiyotshunosligida poetika tarixini davrlashtirish tamoyilidir. Poetika tarixini davrlashtirish ham, xuddi adabiy aloqalar tarixini davrlashtirish kabi, adabiyot tarixini davrlashtirishga yordam beradi, ya'ni metodologik asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ikki jildli «Adabiyot nazariyasi» («Теория литературы») qo'llanmasidagi davrlashtirish ancha yillardan beri davom etib kelgan ikki bosqichli – sinkretizm va individual ijod davriga (A.N.Veselovskiy, Yu.M. Lotmanning davrlashtirishiga) jiddiy aniqliklar kiritdi. Aniqlik shundan iborat bo'ldiki, poetika tarixi ikki bosqichdan emas, balki uch bosqichdan iborat bo'lib, bular sinkretizm davri (ibtidoiy davrdan Antik davrgacha), eydetik poetika davri (miloddan oldingi VII-VI asrdan milodiy XVIII asrgacha) va badiiy modallik poetikasi (XVIII asrdan bugungacha) davridir. Qo'llanmaning ikkinchi jildini mualliflar har bir davrning o'ziga xos mezonlarini dalillashga bag'ishlaganlar. Mezonlar: sinkretizm davri poetikasida – obraz, syujet, adabiy turlar, janrlarning bitta ob'yekt doirasida yaxlit holda namoyon bo'lishi, arxaik ongning, hozirgidan farqli ravishda, ajralmas, yaxlit tabiatga ega bo'lishi; eydetik poetika davrida – individual ijod ibtidosi, ko'chimlarning paydo bo'lishi, obrazlarning so'z orqali ifodasi, janrlar tizimining yuzaga kelishi, badiiy asarda muallif pozisiyasi; badiiy modallik poetikasi davrida– badiiy modallik tamoyillari, poetikada sub'yektivlik qatlami, realizmning bosqichlari, badiiy vositalarning transformasiyalashuvi, obrazli tilga munosabat va h.lardir. Agar o'zbek adabiyotini davrlashtirishga tatbiq etadigan bo'lsak, sinkretizm davri poetikasi – turkiy miflar va kultlar faoliyatda bo'lgan davrni (ayniqsa, sinkretizm miflarda va ibtidoiy davrga oid amaliy hamda tasviriy san'at asarlarida yaxlit holda aniq namoyon

bo'ladi – ularda obrazlilik ham bor, estetik fikrlash ham bor, o'z davriga oid diniy tasavvurlar ham bor, falsafiy qarashlar, udumlar, urf-odatlar ham aks etgan, hikoya yoki ertak janri va b.lar ham bor), eydetik poetika davri – qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan boshlab “Devonu lug‘atit-turk”dagi she’riy parchalar va afsonalarni, badiiy modallik poetikasi davri – Qoraxoniylar sulolasidan boshlab bugungacha bo‘lgan adabiy jarayonni qamrab oladi. Aytganlarimiz – tarixiy poetikaga oid, umuman, “tarixiy poetikaning predmeti...badiiyluk tamoyillari, usullari va shakllarining kelib chiqishi va taraqqiyoti”dan iborat. O‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishga asos bo‘ladigan adabiy kategoriyalar aynan tarixiy poetikada shakllangan.

O‘zbek adabiyotining mavjud materiallari va manbalari, har bir davrdagi adabiyotning shakllanish tamoyillaridagi o‘ziga xosliklar (jumladan, biz badiiy modallik poetikasi davriga mansub deb qarayotgan Qoraxoniylar va G‘aznaviylar davri adabiyotining shakllanish tamoyillari jihatidan alohida-alohida davrga mansubligi) adabiy davrlashtirishdagi har bir xususiyatni hisobga olish zaruratini paydo qiladi. Tarixiy davrlar bu mezonlarga xizmat qilmaydi, balki mezonlar tarixiy davrni shakllantiradi.

Biz bu o‘rinda har uch bosqichning yuqorida bayon qilingan mezonlaridan kelib chiqib, o‘zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini o‘rganishga yondashuv, bir tomondan, jahon adabiyotshunosligidagi mavjud qarashlarni, ikkinchidan, jahon adabiyoti kontekstida o‘zbek adabiyotining xos xususiyatlarini qamrab olishi lozim, deb bilamiz.

Metodologiya masalasi davrlashtirishga munosabatlarni o‘zgartirishni talab qilargan ekan, qaysi metodologiya turkiy, jumladan, o‘zbek adabiyotini davrlashtirish uchun asos bo‘lishi kerak, degan savolni ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Biz o‘zbek adabiyotini davrlashtirishning metodologiyasi sifatida Fitrat, A.N. Veselovskiy, D.Dyurishin, S.N. Broytman, A.N.Samoylovich, V.V.Bartold, M.F.Ko‘purilizoda kabi jahonshumul olimlarning qarashlariga tayanamiz.

Shuningdek, mazkur kitobchamizda adabiy jarayonni qiyosiy, tarixiy-tipologik tahlil qilishga asoslangan metodlardan ham foydalanamiz. Mazkur metodlar o'z pozitsiyasi mustahkam ekanini ko'rsatmoqda. Jumladan qiyosiy metod sharq adabiyotshunosligida o'z tarixiga ega bo'lib, o'zbek adabiyotiga bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan mashhur olimlar V.M.Jirmunskiy, N.I.Konrad, Ye.E.Bertels va boshqalarning nomlari bilan bog'liq. Haqiqatan, bu metod ishonchli va e'tiborga sazovordir. Bu metod o'zbek adabiyotshunosligida qanchalik amal qilganini aniqroq tasavvur qilish uchun, adabiyotshunoslik tarixiga murojaat etamiz. O'tgan asrning 30-yillari adabiyotshunosligi o'zbek adabiyotini davrlashtirishda alohida bosqichni tashkil qiladi.

XX asrning 30-yillari o'zbek adabiyotshunosligida davrlashtirish masalasi. O'tgan asrning birinchi yarmida o'zbek adabiyoti tarixini qadimdan boshlab davrlashtirish masalasida ayrim o'zbek olimlari faoliyatida dastlabki urinishlar bo'ldi. Jumladan, Abdurauf Fitrat, Olim Sharofuddinov, Miyon Buzruk kabi olimlar dastlabki davrlashtirishni amalga oshirdilar. Ularning davrlashtirishidagi asosiy tamoyillar qisman adabiy-badiiy xususiyatlarni, qisman tarixiy jarayonni va ijtimoiy-siyosiy jarayonni o'z ichiga olgan edi.

Abdurauf Fitratning adabiyotni davrlashtirishiga oid qarashlari chig'atoy adabiyotiga munosabatidan paydo bo'ldi. Chig'atoy adabiyoti o'zbek adabiyoti tarixida alohida bosqich sanaladimi yoki yo'qmi degan savol G. Vamberidan boshlab qo'yilgan edi. Undan so'ng V.V.Bartold, A.Samoylovich, F.Ko'prulizoda, A. Fitrat kabi mashhur olimlar chig'atoy tili va adabiyotiga o'zlarining munosabatlarini bildirdilar. Jumladan, Fitrat "Chig'atoy adabiyoti" nomli maqolasida bu adabiyotning rivoj topishi haqida to'xtalar ekan, shunday izoh beradi: "...chig'atoy adabiyoti" degan istiloh (termin) albatta yangidir. Bu istiloh u qadar ilmiy emasdir. Adabiyot u davrning hokim sinfi bo'lgan savdo burjuaziyasining adabiyoti edi. Shuning uchun bunga "savdo sarmoyasi davrining adabiyoti" deyish kerak. Bu adabiyot Chig'atoydan boshlab Temuriylarning

yiqilishlarig'acha (13-16 asrlar) bo'lgan adabiyotdir. Chingiziylardan Temuriylargacha bo'lgan bir asrlik zamonda chig'atoy adabiyotiga oid namunalar yo'q. Yolg'iz Rabg'uziyning «Qisas ul-anbiyo»si bor... Chig'atoy adabiyotining ko'tarilishi O'rta Osiyo savdo sarmoyasining (kapital) ko'tarilish davri bo'lgan Temuriylar davridir. Bu davrda biz chig'atoy adabiyotini uch qismga ajrata olamiz: doston adabiyoti, yassaviylik adabiyoti, saroy adabiyoti".

Fitratning bu tasnifi albatta izoh talab qiladi. Birinchi navbatda, "savdo sarmoyasi davri adabiyoti" termini haqida. "Savdo sarmoyasi davri adabiyoti" terminini Fitrat "Qutadg'u bilig"dan XVI asrgacha davom etgan adabiyotga nisbatan ishlatgan edi. Ammo bu termin XI-XVI asrdagi o'zbek adabiyotini qaysi xususiyatlariga ko'ra birlashtira oladi – xronologiya (asrlar bo'yicha)ga ko'rami yo shaxsiyatlar (sulolalar, buyuk ijodkorlar ijodi asosida: Navoiy davri, Pushkin davri, Gogol davri, Amir Umarxon davri va h.) yoki adabiy oqimlar (klassisizm, sentimentalizm, romantizm, realizm, modernizm, postmodernizm) bo'yicha birlashtira oladimi degan savol tug'diradi. Albatta, yuqoridagi biron xususiyat Fitratning davrlashtirishida izchil ko'zda tutilmaydi. Zotan, biz quyida Fitrat "savdo sarmoyasi davri adabiyoti" termini ostida birlashtirgan o'zbek adabiyotini bir necha davrga bo'lib o'rganish haqida o'z fikrlarimizni o'rta tashlaymiz. Ikkinchidan, Fitrat, chamasi, Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan asarlarni ko'zda tutmagan, shekilli, "Chingiziylardan Temuriylargacha bo'lgan bir asrlik zamonda chig'atoy adabiyotiga oid namunalar yo'q" deya xulosa chiqaradi.

Fitrat o'zbek adabiyotini davrlashtirishga alohida diqqat qaratib, Temuriylar davri chig'atoy adabiyoti va XVI o'zbek adabiyotini ikki qarama-qarshi qutb sifatida baholaydi. Temuriylar davridagi o'zbek adabiyotining yuksak darajasiga shubha yo'q. Fitrat XVI asrdan keyingi o'zbek adabiyotini alohida bosqich sifatida qarab, bu davrdagi adabiyotning ortga ketishiga asosiy sabab sifatida tarixiysiyosiy va iqtisodiy jarayonlarni asos qilib oladi. U bu davr adabiyotini tahlil qilib, tanazzulning sabablarini quyidagicha tushuntirib beradi: «O'rta Osiyo savdo sarmoyasi tushgan, O'rta Osiyoda iqtisodiy hayot yemirila boshlagan edi.

Adabiyotning, umuman, san'atning shul izdan yurub, kun sayin tusha borishi tabiiy edi». Ko'rinib turibdiki, Fitratning qarashicha, iqtisodiy tanazzul adabiyot tanazzulining birinchi omili hisoblanadi. Ikkinchi omil, Fitratning fikricha, siyosiy buhron, ya'ni o'zaro ichki urushlar va hokimiyat uchun kurash iqtisodiy buhron ortidan madaniy hayotning izdan chiqishiga olib keldi. XVI asr oxiriga kelib «mamlakatda adabiyotning, umuman, nafis san'atning taraqqiysiga, o'suvig'a maydon qolmadi. Bir ko'p san'atkorlar, shoirlar, olimlar Hindistonda Bobir Mirzo tomonidan qurilgan mo'g'ul hukumatining poytaxtiga hijrat qila boshladilar. O'rta Osiyoda qolgan shoirlar esa saroydan himoya ko'ra olmagach, omma orasidan o'quvchilar ta'min etishga kirishdilar. Shuning uchun saroyning muhtasham takallufli, bezakli uslubini tashlab, omma uslubiga yaqinlashuvga tirishdilar. Bu davr o'zbek adabiyotini san'atga tuban tushgan davri bo'lib, 19-asrning boshlarig'acha davom qildi».

Fitrat XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotini tuban davr deb atar ekan, Temuriylar davri adabiyoti bilan solishtirib yuqoridagiday xulosaga keladi. Ayniqsa, u ta'rif bergan "omma uslubi" davr adabiyotining alohida xususiyatini yoki mezonini belgilaydi. Fitrat Temuriylar saltanatidagi yuksak badiiy did va tafakkurning XVI asrdan boshlab adabiyot maydonida susayish sabablarini izchil o'rgandi va Temuriylar adabiyotidagi Xuroson uslubi bilan XVI asrdagi "omma uslubi"ni bir-biridan uzoq, hatto bir-biriga zid uslub sifatida talqin qildi. Umuman, Fitrat o'zbek adabiyotining XVI asrdan XIX asrgacha bo'lgan manzarasini va bu manzaraning paydo bo'lish sabablarini ko'rsatib berdi. Uning kuzatishlarida faqat siyosiy jarayonlar asosiy mezon bo'ldi.

Fitratning XVI asrdan boshlangan o'zbek adabiyotini davrlashtirishi keyingi davr o'zbek adabiyoti tarixi darsliklariga ham ta'sir qildi. Miyon Buzruk Solihovning davrlashtirishi ham o'ziga xosdir. Bu olim o'zbek adabiyotshunosligiga katta hissa qo'shdi. U "O'rta Osiyo va o'zbek adabiyoti

tarixiga umumiy qarash" nomli kitobida o'zbek adabiyotini davrlashtirishga oid qarashlarini, adabiyotdagi maxsus yo'nalishlarni o'rta tashladi.

Miyon Buzruk mazkur kitobida XII asr adabiyotidan boshlab jadid adabiyotigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr oralig'idagi adabiyot haqida so'z yuritganda, uch davrga ajratish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi:

1-davr: XII-XIV asrning oxirigacha bo'lgan o'zbek adabiyoti. Bu davr adabiyoti asosan Xorazmda yaratilgan, shuningdek Oltin O'rda poytaxti Saroy shahrida yuzaga kelgan adabiyotdan iborat.

2-davr: XVI asr boshlaridan XVIII asrgacha bo'lgan o'zbek adabiyoti. Bu davr o'zbek adabiyotiga fors adabiyotining, ayniqsa, Buxoro xonligida ta'siri kuchayadi.

3-davr: Oltin beshik davri adabiyoti. Bu davr Qo'qon adabiy muhitiga asos solgan amir Umarxon davri adabiyoti deb ham aytiladi.

Mazkur davrlashtirishdan ko'rinib turibdiki, XV asr adabiyoti alohida biron davrga mansub emas. Miyon Buzruk chig'atoy adabiyotini ana shu asrga mansubligini izohlagan holda, fors adabiyoti ta'sirida kuchsizlangan degan fikrni ilgari suradi. Miyon Buzrukning davrlashtirishidan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, u islomgacha bo'lgan davr turkiy adabiyot haqida aslo so'z yuritmaydi.

Xullas, Miyon Buzruk o'zbek adabiyotini quyidagicha davrlashtiradi:

1. Qoraxoniylar davri adabiyoti.
2. Oltin O'rda xos adabiyoti.
3. Chig'atoy xos adabiyoti.
4. Oltin beshik davri adabiyoti.

Miyon Buzrukning "xos adabiyot"i uning tomonidan alohida e'tibor berilgan "omma adabiyoti" ziddidir. Biz esa chig'atoy mumtoz adabiyotini alohida davr emas, balki XIV asrdan boshlab turkiy adabiyotdagi va turkiy tildagi alohida oqim

deb hisoblaymiz. Zotan, turkiy tildagi va turkiy adabiyotdagi chig'atoychilik taxminan besh yuz yillik davrda o'zini namoyon qiladi.

Miyon Buzrukning bu davrlashtirishi A.Samoylovichning davrlashtirishiga yaqin keladi. A.Samoylovich ham adabiy merosni XI asrdan boshlaydi va uch qismga bo'ladi:

1. Qoraxoniylar davri adabiyoti.
2. Sirdaryo bo'ylari va Xorazmda paydo bo'lgan qipchoq-o'g'uz davri adabiyoti.
3. Chig'atoy adabiyoti (XV-XVI asrlar).

A.Samoylovich turkiy adabiyotning birinchi davriga faqat «Qutadg'u bilig»ni kiritadi, «Hibat ul-haqoyiq»ning Qoraxoniylar davrida yaratilganiga shubha bilan qaraydi. «Devonu lug'atit-turk»dagi she'riy parchalarni, afsonalarni va boshqa janrlarni e'tiborsiz qoldiradi. Xullas, Miyon Buzruk ham, A. Samoylovich ham turkiy adabiyotni torroq tushundilar, buning natijasida ularning davrlashtirishida, bizningcha, adabiy jarayon tarixiga izchil yondashuv ko'zga tashlanmaydi.

A.Samoylovichning davrlashtirishida noaniqlik ikkinchi davrga aloqador.

Garchi qipchoq va o'g'uzlarning turkiy adabiyotga til jihatdan ta'siri aniq sezilib tursa ham, ammo adabiyotdagi o'zgarish Oltin O'rda xonlarining ta'siri bilan yuz berdi. Bu davr, bizningcha, Oltin O'rda adabiyotiga to'g'ri keladi. "Chig'atoy adabiyoti" o'zbek mumtoz adabiyotidagi oqim sifatida, asosan, Navoiy ijodini qamrab oladi. Shu bois Samoylovichning davrlashtirishi ma'lum darajada mantiqli va dalillar ham yetarli.

Miyon Buzruk bu davrlarga oid o'zbek adabiyotini xos adabiyotga mansub deb tahlil qilar ekan, ayni paytda ommaviy adabiyotga to'xtalib o'tadi. Uning qarashicha, Mahmud Ali ibn as-Saroyining "Nahjul-farodis", Abulg'ozining "Shajarai turk" kabi asarlari ommaviy adabiyotni tashkil qiladi. Biz xos va

ommaviy adabiyot alohida davr emas, balki har bir davr adabiyotida shakllangan adabiy yo'nalishlardir, deb qaraymiz. Miyon Buzruk yuqoridagi kitobida o'zbek adabiyotini davrlashtirishda ijtimoiy, siyosiy ruhga ko'proq urg'u qaratgan ko'rinadi. Miyon Buzruk har bir davrdagi tasavvufiy ruh haqida so'z yuritganidan ham adabiyotning ijtimoiy tomoniga ko'proq diqqat qilgani ma'lum bo'ladi.

Ayniqsa, bu holat yana Miyon Buzrukning O'rta Osiyodagi islomgacha bo'lgan turkiy adabiyot dalillariga va turkiy adabiyot taraqqiyotining uzluksiz davom etganiga e'tiborsiz munosabatda bo'lganida ham ko'rinadi. Garchi u Qoraxoniylar va Oltin O'rda adabiyotini alohida davr sifatida qaragan bo'lsa ham, asosan, umumiy gaplar, g'ayriilmiy va asoslanmagan fikrlar bilan cheklanadi. Quyida uning fikrlaridan parcha keltiramiz: «O'rta Osiyo turkiycha adabiyotining islomiy davridagi hamma qismlari va oqimlari hech bir zamon istiqlool ko'rsata olmagan bo'lsalar-da va doimo arabcha, ayniqsa, forsichaning ta'siri ostida va uning yonida kuchsiz tusda borgan bo'lsalar-da, bor bo'lganlar. O'rta Osiyo adabiyoti to'g'risida asl qiymat va ahamiyatini forsichada bermak ila barobar turkiycha qismining ham ikkinchi darajada bo'lsa-da, borligini ko'ramiz, uning ham turli oqim va davrlarini ko'ramiz.

Bu tusda madaniy bir hayot oyinasi bo'lib yuzaga chiqqan O'rta Osiyo yozuv adabiyoti; «filologiya, dialektologiya» jihatdan olimlarning turli tusda aks etgan taqsimlariga (davrlashtirishiga – N.R.) yaragan. Asosan, tartibli bo'lmagan holda juda oz bo'lgan materiallarga qarab qilingan ko'p taqsimlar ilmiy qat'iyat ko'rsata olmagan bo'lsalar-da, ular orasida professor Samoylovichning so'nggi bir taqsimi kabi ancha qat'iyat ko'rsatgan taqsimni ham ko'ramiz».

Miyon Buzruk chig'atoy adabiyotini xos adabiyot sifatida talqin qilgan bo'lsada, chig'atoy adabiyotiga qarashlarida muqimlikni ko'rmaymiz. Uning e'tiborni jalb qiladigan qarashi “chig'atoy adabiyoti” degan nomga bo'lgan munosabatidir. Uningcha, o'zbek adabiyotiga Chig'atoy ismini berib bo'lmaydi. U “chig'atoy adabiyoti” nomiga siyosiy jihatdan yondashadi. Mana uning qarashi:

“Ilmiy sohada bo‘lsin, milliy harakat sohasida bo‘lsin, maqbul qaralgan bu terminga o‘zbek adabiyoti tarixi nuqtai nazaridan qaraganda, ba’zi anglashilmovchiliklar ko‘zga tashlanadi. Chig‘atoy xalqi bilan uzoq vaqt kurashgan, oxiri uning ustidan g‘alaba qilib, uning o‘rniga joylashgan, bu surat bilan alohida davr ochgan o‘zbek xalqining adabiyotini Chig‘atoy nomi bilan yuritish mukammallik kasb etmas edi... Qoraxoniylar davri adabiyotini Oltin O‘rda adabiyotidan, Oltin O‘rda adabiyotini Chig‘atoy adabiyotidan ma’lum bir sharoit taqozosi bilan alohida qarash kerak bo‘lganiday, o‘zbek adabiyotini ham chig‘atoy adabiyotidan shunday sharoit taqozosi bilan alohida qarash kerak bo‘ladi”. Lekin chegara nima – bu haqda Miyon Buzruk biron dalil keltirmaydi.

O‘zbek adabiyotshunosligining yirik vakillaridan biri Vohid Zohidov o‘zbek adabiyoti tarixining ayrim masalalari haqida so‘z yuritib, davrlashtirishdagi muammolar haqida shunday degan edi: “Biz ko‘pincha ayrim davrlar va ba’zi ijod ahllarini o‘rganish bilan cheklanib qolish hollariga yo‘l qo‘yayotirmiz. Chunonchi, adabiyotimiz tarixining qadimiy davri, XVI-XVIII asrlardagi adabiy proses, 1905 va 1917 yillardagi revolyusiyalar oralig‘idagi davr adabiyoti ham fanimizda o‘ziga munosib o‘rin olishi kerak, chuqur va atrofli tadqiq hamda tahlil etilishi lozim”.

Vohid Zohidov bu fikrlari bilan o‘zbek adabiyotining eng qadimgi davrlaridan tortib XIX asrning oxirigacha bo‘lgan davr adabiyotini davrlashtirishdagi yakdillikning yo‘qligini e’tirof etadi. Ayniqsa, XVI asrdan keyingi o‘zbek adabiyotini davrlashtirishga alohida e’tibor qaratgani bejiz emas. Zotan, XVI asrdan keyingi o‘zbek adabiyotiga ko‘proq siyosiy yuk tushdi, shuning uchun bu davr adabiyotiga tanazzul davri deb qaraldi.

Bu davr o‘zbek adabiyotida Temuriylar davridagi janrlar xilma-xilligini ko‘rmaymiz, ammo badiiy asarlar mazmunida keskin o‘zgarishlarni ko‘ramiz.

Shuning uchun XVI asrdan keyingi o‘zbek adabiyotiga munosabatlarda bir-biriga zidlik borday tuyuladi. Yagona davlatning parchalanib, uch xonlikning paydo bo‘lishiga asoslangan tasnif an’anaga aylandi. Adabiyotning badiiy-estetik

xususiyatlariga, adabiy jarayonga asoslangan holda davrlashtirish umuman ko'rinmaydi.

Davrlashtirishni ma'lum tamoyillarga asoslanib amalga oshirishdan maqsad shuki, ko'p asrli o'zbek adabiyotining to'la, yaxlit va sistemalashgan kartinasi yaratilibgina qolmaydi, balki o'sha davrlardagi barcha matnlar o'rganiladi, o'tmishda yaratilgan har qanday badiiy matnning yozma adabiyotga aloqadorligi atroflicha tahlil qilinadi, ular ob'yektiv bahosini oladi, adabiyotshunoslikka olib kiriladi va o'zbek adabiyotining "bo'shliq" davri to'ldiriladi.

Adabiyotni, xususan, o'zbek adabiyotini davrlashtirishda har bir davr adabiyotining "qaytadan tug'ilishi" uchun bir qator o'ziga xos omillarni e'tiborga olish zarur, deb hisoblaymiz. Bir davr adabiyoti uchun asos bo'lgan omillar va vositalar keyingi davr adabiyoti uchun asos bo'la olmasligi tabiiy. Shu bilan birga, barcha davr adabiyoti uchun umumiy omillar ham bor. Bular: matnning badiiy til xususiyatlari, adabiy til, adabiy elementlar, adabiy maktablar, adabiy oqimlar, adabiy janrlar, uslublar, mavzu va b.lardir. Masalan, "Islomgacha bo'lgan turkiy adabiyot" da bu davr adabiyotining alohidaligini, takrorlanmasligini ko'rsata oladigan omillar bor. Yuqorida sanab ko'rsatilgan omillar bilan birga, bu adabiyotni alohida davr sifatida ajratish uchun zardushtiylik, buddaviylik, moniylik kabi diniy oqimlarni ham davrlashtirishning muhim belgisi sifatida qarash kerak bo'ladi.

Keyingi davrlar uchun bu oqimlarning timsollari uchrab tursa-da (masalan, "Qutadg'u bilig"da buddaviylik oqimida muhim o'rin tutgan g'or timsoli), davrlashtirish uchun muhim belgi bo'la olmaydi. An'anaviylik tufayligina bu timsol Qoraxoniylar davri adabiyotiga o'tganini ta'kidlashimiz lozim. Venger turkologi A.Bombachi islomgacha bo'lgan turkiy adabiyot bilan «Qutadg'u bilig» o'rtasidagi uzluksiz aloqani madaniy-tarixiy sharoitdan tashqari, lisoniy xususiyatlar bilan bog'laydi: «Turkiylar uchun islomgacha bo'lgan davrdan islom davriga o'tish to'satdan bo'lmagan edi. An'ananing uzluksizligi Qoraxoniylar davri adabiyotida yaqqol kuzatiladi. Til ilgari qanday bo'lsa, shundayligicha

qoldi». Shuningdek, qadimgi turkiy adabiyotdan ilk klassik davr adabiyotiga o'tish jarayonida obrazlar tizimi, badiiy tasvir vositalari, tafakkur va dunyoqarash ham o'tdi. Ammo janrlar, uslub va mavzulardagi o'zgachalik har ikki davr adabiyotini alohida-alohida qarashga imkon beradi. Bularga qo'shimcha ravishda ijtimoiy hayot va ijtimoiy tafakkurning keyingi davr adabiyotida o'zgachaligi ham alohida davr sifatida qarashga imkon beradi.

Bombachining bu fikri uchta manba – urxun-yenisey bitigtoshlari, «Devonu lug'atit-turk» va «Qutadg'u bilig»ga tegishli. Islomgacha bo'lgan davr adabiyotidagi ayrim kategoriyalarni Oltin O'rda adabiyotida yoki Temuriylar davri chig'atoy adabiyotida ham, qisman bo'lsa-da, uchratamiz. Shu bois har bir davr adabiyotining xususiyatlari belgilanganda, bu omillarni ham e'tiborga olish shart.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Adabiyot tarixini nima uchun davrlashtiramiz degan savolga javob bring.
2. Fitratning *достон адабиёти*, *яссавийлик адабиёти*, *сарой адабиёти* davrlashtirishini sharhlab bering.
3. Miyon Buzrukning davrlashtirishini ayting.
4. A.N.Samoylovichning davrlashtirishini ayting.
5. V.V. Bartoldning «Qutadg'u bilig»ga oid tahlillarini ayting.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. М., 1989.
2. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tariixi, T, «Sano standart», 2017.
3. Ranmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari, T., «MUMTOZ SO'Z», 2016.
4. Фитратю танланган асарлар, 2-жилд, Түб Маънавиятб 2000.

5. Тамарченко Н.Д.Тюпа В. И.Бройтман С.Н. Террия литературы в двух томах. Том 2.М., 2004.

2-MAVZU:

G'AZNAVIYLAR DAVRI ADABIYOTINING SHAKLLANISH MANBALARI

REJA:

1. *Beruniyning tarixiylik tamoyiliga munosabati*
2. *Beruniy "Avesto" haqida*
3. *Qayumars afsonasi Beruniy nigohida*
4. *"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarining ahamiyati*

Tayanch tushunchalar: *G'aznaviylar davri adabiyoti, qoraxoniylar, Somoniylar, Horun ar-Rashid, tarixiylik, haqqoniylik.*

Markaziy Osiyodagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlarning shiddatli oqimi ilk klassik davr turkiy adabiyotini birmuncha o'ziga xos, yangicha bir ko'rinishga olib keldi. Bir tomondan, Qoraxoniylar sulolasida qadimgi turkiy adabiy til va turkiy adabiyot an'anasi, ikkinchi tomondan, G'aznaviylar davlatining mavqei, bu davlatdagi adabiyot va ilmiy til asosan arab tili asosiga qurilgani, uning ma'naviy muhitga ta'siri adabiy jarayonda ham alohida o'ziga xosliklarni paydo qildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Qoraxoniylar sulolasida shakllangan adabiyot alohida davr sifatida e'tirof etilgani holda, G'aznaviylar davrida shakllangan adabiy jarayon va adabiyotshunoslik e'tibordan chetda qoldi. G'aznaviylar sulolasi haqida so'z ketganda, odatda, sulola vakillarining fanga qo'shgan hissalar, Beruniy, Ibn Sino va boshqa olimlarning faoliyati haqida so'z ketadi. Biz esa G'aznaviylar davri adabiyotini alohida davr sifatida qarab, O'rta Osiyo, xususan, Movarounnahrda estetik va badiiy tafakkur rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgani haqida o'z fikrlarimizni o'rtaga tashlamoqchimiz. Agar til (arab tili) muammosi G'aznaviylar

davri adabiyotini o'zbek adabiyotining bir qismi ekaniga g'ov bo'lishiga halaqit bersa, xitoy va yunon manbalaridan olingan turkiy adabiyot namunalari ham turkiy adabiyotning bir qismi emas degan xulosa kelib chiqadi. Yoki yanada kengroq tarqalgan bitta dalil: agar asarlarning qaysi tilda yozilgani ma'lum bir xalq maqsadiga xizmat qilmasa va muammoni keltirib chiqarib, adabiyotning bir xalqqa mansubligini rad qiladigan dalil bo'lsa, faqat yunon tilida (milodiy I-II asrlar) saqlanib qolgan Yangi Ahd Isroil xalqining yozma yodgorligi emas, Yangi Ahdning Isroil xalqiga aslo aloqasi yo'q, degan fikr jahon adabiyotida allaqachon o'z o'rnini topishi kerak edi. Ammo Yangi Ahd faqat oromiy tilida gapirgan Iso Masih ta'limotining asosidir. Yunon tilida saqlangan Yangi Ahd va shu tilda bayon qilingan Iso Masihning ta'limoti masihiylik (xristianlik) olami uchun ikki ming yildan beri to'siq bo'lmadi. Yunon tili Isroil xalqining qadimgi yozma merosini yo'qqa chiqarmadi yoki yunon tilida saqlanib, yetib kelgan Yangi Ahdga yunonlar da'vogarlik qilayotganlari ham yo'q. Yoki forsiyzabon shoir Nizomiy Ganjaviy ozarbayjon adabiyotining ulug' vakili sifatida qadrlidir. Ana shu hammaga ma'lum hodisadan kelib chiqib, Beruniy va Ibn Sinoning arab tilida yozgan asarlari o'zbek adabiyotining emas, arab adabiyotining bir qismi deb xulosa chiqarish oddiy haqiqatni inkor qilish bo'lar edi. "Agar bizning buyuk bobolarimiz Beruniy va Abu Ali ibn Sino, Xoqoniy va Nizomiy, Navoiy va Fuzuliy arab va fors tillaridan mahorat bilan foydalangan bo'lsalar, nima uchun biz bu hodisa oldida xijolat bo'lishimiz kerak?! Aksincha, ota-boblarimiz intellektual jihatdan ham, til jihatdan ham mukammal bo'lganlaridan biz xursand bo'lishimiz lozim. Shu munosabat bilan aytmoqchimanki, Ozarbayjonda va Markaziy Osiyoda yaratilgan forsiyzabon adabiyot bu xalqlarning madaniy yutuqlaridan bir qismi, bu adabiyot milliy adabiyotning taraqqiyotini davrlashtirishga to'liq mos keladi". Xuddi shu ma'noda, Beruniy va ibn Sino ijod qilgan arab tilidagi adabiyot haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin.

Shu bois ham biz, asosan, G'aznaviylar davlatida adabiy jarayonning o'ziga xos tomonlarini, xususan, Abu Rayhon Beruniyning adabiyotshunoslikka, adabiy

janrlarga, adabiyotni davrlashtirish tamoyillariga o'ziga xos yondashuvini tahlil qilish orqali G'aznaviylar davri adabiyotining o'ziga xos qirralari haqidagi fikrlarimizni o'rta tashlaymiz. Davr (X-XII asrlar) bir bo'lsa ham, Qoraxoniylar sulolasidagi adabiy muhit, adabiy jarayon va bu suloladagi adabiy jarayonni davrlashtirish tamoyillari G'aznaviylar davlatidagi adabiy jarayondan tamomila o'zgachadir. Zotan, geografik chegaralarning ham har ikki davr adabiyotini paydo qilishda vazifasi bor. Albatta tarixiy sharoit, geografik chegara G'aznaviylar davri adabiyotining kelib chiqishini ta'minladi. Bu masalaning yechimini to'g'ri hal qilish uchun O'rta Osiyodagi tarixiy va siyosiy sharoitga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Arablar istilosidan keyin O'rta Osiyo, xususan, Movarounnahrning adabiy jarayonida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Xuroson noibi bo'lib turgan Ma'mun otasi Xorun ar-Rashid vafotidan keyin taxt uchun kurashlar jarayonida 813 yili Xuroson va Movarounnahrdagi katta zamindorlar Tohir ibn Husayn va boshqalar yordami bilan Bag'dodda xalifalik taxtini egalladi. Shundan so'ng Tohir ibn Husayn xalifadan keyingi ikkinchi shaxs bo'lib qoldi. U o'zining bu mavqeidan foydalanib, Xuroson va Movarounnahrdagi hokimiyatni qo'lga oldi va o'zini bu yerda mustaqil hokim deb e'lon qildi. Shu yo'sinda Tohiriylar sulolasi (821-873) paydo bo'ldi.

Xuddi shu davrda Movarounnahrda Somon avlodlari hukmronligi ham kuchaydi. Mahalliy hukmdorlar yordamiga suyangan xalifa Ma'mun (813-833) Asad ibn Somonning o'g'illari Nuh ibn Asadni – Farg'onaga, Yahyo ibn Asadni – Shosh va Ushrushonaga, Ilyosni esa Hirotga hokim etib tayinlaydi.

841-yili Nuh ibn Asad, ko'p o'tmay Yahyo ham vafot etib, Samarqand va Shosh Ahmad ibn Asad qo'lga o'tdi. U taxtni Farg'onadan Samarqandga ko'chirib, bu shaharni o'z davlatining poytaxti deb e'lon qildi. Ahmad ibn Asad vafotidan keyin esa taxtni uning katta o'g'li Nasr ibn Ahmad egalladi (864-892).

Somoniylar davrida fors adabiyoti Movarounnahrning adabiy- ma'naviy hayotida muhim o'rin egalladi. Adabiy jarayon ijtimoiy-tarixiy jarayondan ajralmagan holda rivojlana bordi. Ilm-fan rivoj topdi, Buxoro Sharqning yirik madaniy, hunarmandchilik va savdo markaziga aylandi. Bu haqda as-Saolibiyning yuqoridagi asarida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

X asr va XI asrning birinchi yarmida badiiy adabiyot rivoj topdi. Biz bu davr adabiy jarayoni haqida maxsus to'xtalmaymiz, chunki turkiy xalqlar adabiy jarayonida bu davrning alohida izlari ko'rinmaydi. Ammo O'rta Osiyo madaniy hayotida ma'lum rol o'ynadi.

G'aznaviylar davlatining o'z qo'li ostidagi mamlakatlarda olib borgan siyosati ilmiy va madaniy muhitga keskin ta'sir o'tkazdi. G'aznaviylar davlatining ilmiy, madaniy va adabiy muhiti XI asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy merosida namoyon bo'ladi. Aytish mumkinki, G'aznaviylar davlatining butun yutuqlari, ilmdagi, adabiyotdagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri – Beruniyning asarlaridir. Eng muhimi, G'aznaviylar davri adabiyotini alohida davr sifatida o'rganishda Beruniyga tayanish mumkin. Yoki "G'aznaviylar davri adabiyoti" degan nom ostida alohida davrni Beruniyning badiiy adabiyotga, adabiy janrlarga bo'lgan munosabati, uning qarashlari belgilaydi, deb hisoblash mumkin. Biz uchun muhimi shu - uning ilmiy faoliyati, G'aznaviylar sulolasida yaratgan adabiyot va adabiyotshunoslikka oid qarashlari alohida adabiy davr haqida so'z yuritish imkonini berganidir. Shu bois, birinchi navbatda, "G'aznaviylar davri adabiyoti"ni alohida adabiy davr sifatida baholar ekanmiz, Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Osor ulboqiya") asaridagi adabiy janrlar, adabiyotshunoslikka oid ilmiy-nazariy kuzatishlarini, qolaversa, "Hindiston" asarida afsona va rivoyatlarga munosabatini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Abu Rayhon Beruniy asli turkiy qavmlarning qiyot urug'idan kelib chiqqan. U ko'plab tabiiy fanlar qatori, ijtimoiy-gumanitar fanlar, hususan, tarix, etnografiya, falsafa va filologiya sohalarini chuqur egalladi. Uning yuqorida

aytilgan ikki katta asaridan tashqari, "Mineralogiya" kitobidagi ko'plab hikoyatlar, "Geodeziya" asarida keltirgan she'rlari bu davr adabiy jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash bilan birga, Beruniyning iqtidorini ham ko'rsatadi.

Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari G'aznaviylar davri adabiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Mazkur asar tarixiy-etnografik asar bo'lgani holda, qadimgi rivoyatlar, afsonalardan Beruniy alohida maqsadlarda mahorat bilan foydalandi. Umuman, tarixiy asarlar tarkibiga adabiy parchalarni kiritish bilan Beruniy o'zining adabiyotga munosabatini ko'rsatib qolmadi, balki XI asrgacha Movarounnahrda adabiy muhitning uzluksizligini dalilladi, o'z she'rlari bilan esa Movarounnahr adabiyotiga katta hissa qo'shdi. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari Yevropada "Xronologiya" degan nom bilan ham yuritiladi.

Beruniy "Mineralogiya" kitobida Xorun ar-Rashid haqidagi hikoyatlarni keltirsa, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da rivoyat va afsonalarni biron tarixiy sanaga yoki yil hisobiga dalil sifatida keltiradi. "Mineralogiya" kitobidagi hikoyatlar qimmatbaho mineral toshlar munosabati bilan keltiriladi, ayni paytda ana shu qimmatbaho toshlarga bog'liq ravishda Abbosiylar sulolasi hukmdorlaridan Xorun ar-Rashidning xarakteriga xos ayrim jihatlar, uning saxiy, mazlumlar dodiga yetadigan adolatli hukmdor ekani ochib beriladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: Beruniyning ijodidagi hikoyatlar, afsona va rivoyatlar, she'rlar, umuman olganda, barcha janrdagi asarlar qaysi tamoyillarga ko'ra alohida adabiy davrni tashkil qiladi? afsona va rivoyatlarni ma'lum maqsadga bo'ysundirish, ilmiy tafakkur bilan badiiy tafakkurni uyg'unlashtirish Beruniy asarlarining alohida xususiyatlarini tashkil etadi. Bu biron ijodkor asarida uchramaydigan hodisa. Mana shu xususiyatlariga ko'ra ham Beruniy asarlaridagi adabiy janrlar alohida davr sifatida ajratilishga va tadqiq etilishga loyiq. Buning ustiga, adabiy janrlar alohida tamoyillarga tayanadi. Bu tamoyillarning birinchisi tarixiylikdir.

Tarixiylik tamoyili “Mineralogiya”dagi hikoyatlarning asosida yotadi. Hikoyatlarning qahramonlari – ma’lum bir tarixiy shaxslar. Jumladan, aksariyat hikoyalarning qahramonlari Xorun ar-Rashid. Beruniy o’zi yaxshi o’rgangan, bilgan dalillarni keltiradi. Yoki “Mineralogiya” kitobidan keltirilgan boshqa qator hikoyatlarning qahramonlari ham tarixiy shaxslardir.

Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining yozilish sabablarini ko’rsatar ekan, afsona va rivoyatlarni aniqlab olish va ma’lum bir voqea yoki hodisani rad qilish yo tasdiqlashda bu janrlarning vazifasi nihoyatda murakkab bo’lganini yozadi. Ayniqsa, qadimgi xalqlar va ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar chalkashib ketgani, yolg’on afsonalar va asossiz ma’lumotlarga to’lib-toshib ketganini ta’kidlaydi. Ayni paytda Beruniy rivoyat va afsonalarning haqiqiyliklarini ajratib, saralab olish uchun imkoni boricha harakat qiladi. Yolg’on va soxta rivoyatlar qadimgi Sharq xalqlarining yil hisoblari haqidagi aniq ilmiy xulosalarga xalaqit berishi, ayniqsa, yolg’on xulosalarga olib kelishi haqida Beruniy ishonch bilan yozadi. Beruniyning asosiy maqsadi turli xalqlardagi yil hisobiga aniqlik kiritish, ularda ilgari tadqiqotchilar yo’l qo’ygan kamchiliklarni tuzatish edi.

U yil hisobi uchun rivoyat va afsonalar, hikoyatlar nihoyatda muhim dalil ekaniga ishonadi, ularga suyanadi, ishonchsiz, shubhali rivoyatlar va afsonalarni rad qiladi. U rivoyat va afsonalarni tanlashda o’zi tayangan va asosli metod haqida shunday yozadi: “...men tutgan yo’l va belgilagan usul oson emas, balki uzoq va qiyin yo’ldir. Xabar va rivoyatlarga ko’plab kirib qolgan yolg’on so’zlarning hammasi ham ravshan emas. Boshqa dalillar bo’lmaganda ba’zilarining yolg’onligini bilib bo’lmadi. Odamlar hozir ham, o’tgan zamonlarda ham shunday tabiiy hodisalarga duch kelgan, agar o’shanday hodisalar uzoq zamonlarda [yuz bergan deb] hikoya qilinsa, albatta biz bunga ishonmas edik. Xalqlardan biriga [tegishli] xabarlar[ning hammasi]ni aniqlab bilishga inson umri kifoya qilmaydiyu, hamma millatlar [haqidagi] xabarlarni bilishga qanday kifoya etsin? Bu mumkin

emas!”. Beruniy rivoyat va afsonalarga bunday yondashuv bilan o'zining pozitsiyasini aniqlashtiradi: u mazkur asarida nafaqat etnograf tarixchi, balki chuqur bilimli adabiyotshunos olim sifatida namoyon bo'ladi. U dunyo xalqlari adabiy jarayonidan yaxshi xabardor, o'z davridagi va o'zidan oldingi adabiy jarayonning qonuniyatlarini biladi. Rivoyat va afsonalar xalqqa yaqin adabiy janr bo'lgani uchun ham Beruniyning diqqatini ko'proq tortgan. Boshqa janrlardan, masalan, hikoyat, ertakdan nima uchun foydalanmadi? Chunki tarixiylik tamoyili rivoyat va afsonalarda aniqroq, bo'rtib ko'rinadi, tarixiy haqiqatni dalillash yoki rad qilish imkoniyati bu janrlarda kuchli. Aynan shu o'rinda Beruniyning davrlashtirish tamoyiliga asos bo'lgan omillar oydinlashadi.

U tarixiylik va haqqoniylik prinsipiga qo'shimcha ravishda, tanlash metodiga suyanadi. Eng muhim, ishonchli, xalq orasida keng tarqalgan va ular ishonadigan afsona va rivoyatlarni tanlab oladi. U dunyo xalqlarining ko'plab rivoyatlarini, afsonalarini bilishini, o'rganganini, shular asosida umumiy bir xulosaga kelganini ko'rish mumkin. U o'z davriga yaqin bo'lgan rivoyatlarga murojaat etish tarafdori. Nima uchun u shunday fikrda? Chunki rivoyatlar zamondan uzoqlashgan sari asliyatdan, haqiqiylikidan uzoqlashadi. Beruniy bu hodisaning qonuniyat ekanini adabiyotshunos olim sifatida yaxshi biladi. Beruniy afsonalarni saralab olish tamoyilini quyidagicha bayon qiladi: “Ish shu yo'ldan boradigan bo'lgach, u rivoyatlarning davrimizga eng yaqin va eng mashhurini, so'ngra yaqinroq va mashhurrog'ini [birin-ketin] olishimiz lozim. Ularning [ba'zilarini] o'z arboblardan qabul qilib, tuzatish mumkin bo'lganini tuzatamiz, boshqalarini o'z holida qoldiramiz. Shunda biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni qidiruvchi va hikmatni sezuvchining boshqa rivoyatlar ustida ish yurgizishiga yordamchi va bizga muyassar bo'lmagan narsalarga erishishi uchun yo'lovchi bo'ladi. Biz Xudoning xohishi va yordami bilan shunday qildik”. Ko'ryapmizki, Beruniy rivoyat va afsonalarni tanlash metodini ishlab chiqib bizga taqdim qilmoqda. Bu metod esa yana bir bor tarixiylik va haqqoniylik prinsipiga Beruniy

tayanganini, ma'lum bir janrni tanlash, o'rganish, undan foydalanishga alohida e'tibor qaratganini ko'rsatadi.

Beruniyning tarixiylik tamoyiliga munosabati. Tarixiylik tamoyili adabiyotni yoki adabiy janrlarni ayni bir tarixiy davrga xizmat qildirishni ko'zda tutadi. Ammo tarixiy sanalar bilan tarixiylik tamoyili bir narsa emas. Beruniy adabiy janrlardan – afsonalar, rivoyatlardan tarixiy voqealarni yoki biron shaxsiyatning qachon yashagani to'g'risidagi tarixiy dalilni tasdiqlash uchun foydalanadi.

Beruniy o'zi ishlab chiqqan metod va tamoyillar vositasida rivoyatlar haqida so'z yuritganda tarixni voqealarga bo'ysundiradi. Uning uchun rivoyat janri tarixiy voqealarni bayon qilishda va tarixni real voqea sifatida talqin qilishda muhim omil. Jumladan, "Kitob ahllari"dan Odam va uning o'g'illari, umuman, uning avlodi haqidagi jadvalni keltirganda, jadvaldagi har bir sanani bir rivoyat sifatida talqin qiladi. Bu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar alohida davrni tashkil qiladi. Tarix yaratish va yil hisobini chiqarishda, aniqlashda Beruniy uchun rivoyat muhim vosita bo'lgani yana bir marta ayonlashadi.

Beruniy tarix va yil hisobini chiqarishda rivoyatni alohida keltirmaydi. Shunisi ham borki, u Ibrohim, Ishoq, Yoqub, Levi, Qohit va Musoning necha yil umr ko'rganliklari haqida yil hisobini keltirib chiqarishni o'z oldiga maqsab qilib qo'yib, Tavrot voqealari (Yevropa olimlarining fikrlariga tayangan holda, Tavrotdagi voqealarni afsona va rivoyatlarga mansub deb qaraymiz) bilan yahudiylarning og'zaki axborotlarini solishtiradi. Ular o'rtasida ixtiloflar borligini dalillagani holda, tarixiylik tamoyilini bosh o'ringa chiqargan bo'lsa ham, kitobxonda yanada qat'iy ishonch hosil qilish uchun Tavrotdagi voqealardan va yil hisobidan keskin farq qiladigan "Sidir Olam" (ya'ni "Koinot yillari") dagi rivoyatlar asosidagi yil hisoblarini dalil sifatida ko'rsatadi. Beruniyning yozishicha, bu yil hisobi to'g'risidagi qarashlar ziddiyatli bo'lsa-da, "Sidir Olam" kitobiga murojaat etish sabablarini bayon qiladi. Gap bu o'rinda yil hisobi va yil hisobi bilan bog'liq tarixiy voqealar, bu tarixiy voqealarni dalillash uchun keltirilgan rivoyatlarning bir biriga bog'liqligidadir.

Tarixiylik tamoyiliga Beruniy ayniqsa, “Payg‘ambarlikka da’vo qiluvchi kishilar” bobida alohida e’tibor beradi. Biz bu mavzuga to‘xtalishimizga sabab shuki, Beruniy bayon qilgan va tahlil etgan payg‘ambarlikka da’vo qiluvchi kishilar: Zardusht, Moniy, Budda kabilarning ta’limoti asosida Markaziy Osiyoda islomdan oldingi yozma adabiyot shakllandi, adabiy jarayonning taraqqiyotiga yuqoridagi shaxslar ishlab chiqqan ta’limotlar asos bo‘ldi. Beruniy Zardusht shaxsi va ta’limoti asosida “Avesto”ni, Moniy shaxsi va ta’limoti asosida moniylik adabiyotini, Budda shaxsi va ta’limoti asosida buddaviylik adabiyotini yo‘l-yo‘lakay aytib o‘tadi.

Yo‘l-yo‘lakay va qisqa aytib o‘tilgan dalillarning o‘ziyoq Beruniy badiiy adabiyotga, tarixiylik tamoyili bilan birga, diniy tamoyilni ham asos qilib olganini ko‘rsatadi. Bir dalilga murojaat qilaylik.

Bizga ma’lumki, zardushtiylik O‘rta Osiyo, ayniqsa, Xorazm hududida mustahkam ildiz otgan diniy oqim edi. Beruniy esa Zardushtning nasabi va u o‘z dinini qay tarzda joriy qilgani haqida shunday rivoyat bor: “Keyin ozarbayjonlik (hozirda Eron hududiga tegishli hudud – N.R.) Zardusht ibn Safid Tumon yuzaga chiqdi. U Manuchehr podshoh naslidan, mug‘lar xonadonidan, ularning ko‘zga ko‘ringan kishilari va ulug‘laridan edi. Bu [hodisa] Bishtosf podshohligidan o‘ttiz yil o‘tgandan [keyin] ro‘y berdi. [Zardusht] ikki yoni – o‘ng va so‘li qirqilgan ko‘ynak kiygan, beliga xurmo po‘stlog‘idan zunnor bog‘lagan, og‘ziga sholdan suzg‘ich tutgan, yozuvlari o‘chib ketgan bir varaqni – qog‘ozni qo‘liga ushlab, ko‘kragiga qo‘ygan holda yuzaga chiqdi.

Majusiylarning gumonicha, Zardusht osmondan kunduz yarmida Balxdagi bir ayvon tomiga tushgan. Tom yorilib, Bishtosf kunduzgi uyqudan uyg‘onib ketgan. Zardusht uni majusiylikka, Tangriga imon keltirib, uni pok va muqaddas bilishga, shaytonga ibodat qilmaslikka, podshohlarga bo‘ysunishga, o‘z tabiatini isloh etishga... da’vat etgan. ...Zardusht majusiylar “Abisto” deb ataydigan kitob bilan [yuzaga] keldi. Bu kitob boshqa barcha xalqlar tillariga muxolif bir tilda

[yozilgan] va alohida tartibda bo'lib, maxsus til egalari bilib, boshqa til egalari bilmay qolmasligi uchun [u tildagi] harflar soni hamma tillar harflaridan ortiq edi.

Zardusht bu kitobni Bishtosfning oldiga qo'ydi, Bishtosf mamlakatining ulug'lari hozir edilar va mamlakat aholisidan ko'p xalq yig'ilgan edi. Zardusht mis eritishni buyurdi, mis eritildi. Shunda Zardusht: "Tangrim, agar bu men bilan shu podshohga yuborgan kitobing bo'lsa, misning zararini mendan qaytar!" – dedi. Keyin u [eritilgan misni] ustidan quyishga buyurdi. Misni va uning ko'kragi va qorniga quyib yuborgan edilar, ustidan oqa boshladi va maydalanib har bir mo'yiga yumaloq mis shar bo'lib osildi. Bu sharhlar majusiylar hukmronligi davrida ularning xazinalarida saqlanayotganini eshitdim".

Beruniy "Avesto" haqida. Abu Rayhon Beruniy zardushtiylik va "Avesto"ning paydo bo'lishi haqidagi afsonani, diniy tamoyilga asoslanib, tarixiy voqea sifatida qabul qiladi. Shu o'rinda Beruniy tarixiylik tamoyilini alohida ta'kidlayotganday bo'ladi. Haqiqat va tarix bir biriga egiz tushunchalardir. Tarixiy dalil yoki voqeaning haqiqiyligini rivoyat ochadi. Beruniy tarixiy sanalarni hisoblashda bitta manbaga emas, balki imkon qadar ko'proq manbalarga tayanadi va qiyosiy metoddan foydalanadi. Ammo u har doim ham afsona va rivoyatlardan qaysi biri ishonchli, qaysi biri ishonchsiz ekanini sharhlayvermaydi. Shubhasiz, Beruniy afsona va rivoyatlarni avval o'rganib, bizning nazarimizda, ishonchlilarinigina olgan.

Beruniyning tarixni davrlashtirishi va davrlashtirishga bo'lgan omillar – afsonalar va rivoyatlarga urg'u bergani biz uchun ahamiyatlidir. Quyida Beruniy keltirgan Qayumars afsonasi uch suloladan birinchisi Peshdodiylar sulolasining ibtidosi bo'lib, u Peshdodiylar sulolasi bilan afsonani uyg'unlashtiradi, ya'ni afsonaga tarixiylik tamoyilini yuklaydi. Bu o'rinda shu birgina afsona bilan chegaralanamiz.

Beruniy Qayumars afsonasining mazmunini bayon qilganda, uning vazifasi Qayumarsdan boshlab islom dini paydo bo'lgunga qadar bo'lgan yil hisobini aniqlashdan iborat edi.

Beruniy hikoya qilishicha, Tangri Axriman ishi xususida hayron bo'lib, peshonasi terladi, u terni sidirib tashlagan edi, undan Qayumars paydo bo'ldi. Tangri uni Axrimanga qarshi yubordi, u Axramanni yengib minib oldi va uning [ustida] olamni aylanishga tushdi. Nihoyat, Axriman Qayumarsdan eng yomon ko'radigan va eng qo'rqinchli narsasini so'radi. Qayumars unga jahannam darvozasiga yetganda qattiq qo'rqishini aytdi. Axriman [jahannam darvozasiga yetgach], hiyla qilib, o'ynoqlay boshladi, oxir Qayumars uning ustidan yiqilib tushdi. Axriman uning [ustiga] chiqib oldi va Qayumarsdan: "Qaysi tomoningdan yeyishga boshlay?" – deb so'radi. Qayumars o'zining aytganiga Axrimanning muxolif bo'lishini bilib: "Oyoq tomondan yeyishga boshlagin! Olam husnini bir muddat ko'rib turay", - dedi. Axriman uni bosh tomonidan yeyishga boshlab, moyagiga va erlik urug'i idishi [turadigan] joyga yetganda, undan ikki tomchi erlik suvi yerga tom-di-da, yerdan ikki tup rovoch ko'karib chiqdi va rovochlar o'rtasidan Misho va Mishona tug'ildi. Bu ikkisi [eronliklar nazdida] Odam va Havo o'rnida bo'lib, ularni Malhiy va Malhiyona ham deydilar. Xorazm otashparastlari ularni Mard va Mardona deb ataydilar.

Beruniy afsonani bayon qilib bo'lgach, bu afsonani geometriya olimi Abul Hasan Ozarxurdan eshitganini aytadi. Beruniy, bu afsonaga kitobxon ishonch hosil qilsin, afsonaning asosida tarixiylik tamoyili borligini bilsin, degan maqsadda qiyosiy usuldan foydalanadi. U Qayumars afsonasining boshqa variantlarini ham keltiradi. Jumladan, Beruniy bu afsonadan so'ng shoir Abu Ali Muhammad ibn Ahmad al-Balxiy "Shohnoma" asarida insoniyatning ibtidosi haqida yuqoridagi mazmundagi afsonani boshqacharoq tarzda bayon qilganini yozadi.

Muhammad al-Balxiyning hikoya qilishicha, Qayumars jannatda uch ming yil turgan, bu Hamal, Savr, Javzo ming yilliklaridir. So'ngra yerga tushib, Axriman

tufayli yomonliklar yuz berguncha, uch ming yil omon va tinch turgan. Bu - Saraton, Asad va Sunbula ming yilliklaridir. Qayumarsning Girshoh deb atalishiga sabab shuki, «gir» pahlaviycha «tog'» demakdir. Qayumars tog'larda istiqomat qilgan va ko'zi tushgan hayvonlar hayron qolib, o'zidan ketadigan darajada husnli bo'lgan. Axrimanning Hazura ismli o'g'li bor ekan, u Qayumarsga yomon qasd qilganda, Qayumars uni o'ldirgan. Bu vaqtda Axriman Xudoga Qayumarsdan shikoyat qilgan va Xudo o'zi bilan Axriman o'rtasidagi ahdlarni saqlash maqsadida Qayumarsdan qasos olib bermoqchi bo'lgan. Xudo Qayumarsga, avvalo, bu dunyo va qiyomat oqibatlarini ko'rsatgan, nihoyat, u o'limni orzu qilgan, so'ng Xudo uni o'ldirgan. Bu vaqtda uning pushtidan Istaxrdagi Domdod tog'iga ikki tomchi tomgan va ulardan ikkita ravoch ko'karib chiqqan. To'qqizinchi oyning avvalida ikkovida a'zolar ko'ringanda, [oyning] oxirida tugal bo'lib, ikkovi insonga aylangan, ular Misho va Mishonadirlar. Ular yeb-ichishmagan va hech narsadan aziyat tortmay, farovonchilikda ellik yil yashaganlar. Nihoyat, ularga Axriman keksa kishi suratida ko'rinib, daraxtlardan mevalar yeyishni taklif etgan va [o'zi] yeyishni boshlab bergan va yoshligi unga [Axrimanga] qaytib kelgan, shunda ular ham yeyishgan va o'sha zohoti ikkovi balo va yomon hollarga giriftor bo'lganlar. Ularda nafs paydo bo'lib, oxiri bir-biri bilan qo'shilganlar va ulardan bola tug'ilgan, qo'rqib bolani yeb qo'yishgan. So'ngra Xudo ularning dillariga mehribonlik solgan. Shundan keyin ulardan olti [marta] bola tug'ilgan, ularning ismlari Avisto kitobida ko'rsatilgandir. Yettinchisida Siyomak va Farovak tug'ilib, bir-biri bilan qo'shilishgan va ulardan Ushanj tug'ilgan.

Beruniy tarixni davrlashtirganda, uch eradan iborat ekanini aytadi. Beruniy yuqorida keltirgan Qayumars haqidagi mashhur afsona Peshdodiylar tarixining ilk bosqichiga aloqador birinchi afsona hisoblanadi. Bu afsona sulolaning tarixi bo'yicha bayon qilingan ma'lumotlarga mos keladi. Bu o'rinda biz mana shu bitta afsonaga oid ma'lumotlar bilan cheklanamiz. Biz faqat aytmqchimizki, sulolalar

tarixi va afsonalarda berilgan ma'lumotlar davriy jihatdan o'zaro mos keladi, mazkur sulolalarning shohlari afsona qahramonlari hisoblanadi.

Shu o'rinda bir masalaga to'xtab o'tish joiz deb bilamiz. Beruniy yuqoridagi uch sulola haqida so'z yuritganda, bu sulolalar tarixi Eron shohlari tarixidan iborat ekanini ko'p o'rinda aytadi. Biz o'zbek adabiyotining ma'lum davrda tarixiy davrga uyg'un jihatlari haqida so'z yuritar ekanmiz, Eron sulolalari tarixining bu davrga qanchalik aloqasi bor degan savol tug'iladi. Biz bu savolga quyidagicha javob beramiz:

Birinchidan, Beruniy keltirgan tarixiy sulolalar faqat Eron shohlarining emas, balki O'rta Osiyo sulolalarining tarixiy davrini ham o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, Beruniy sulolalar tarixini dalillash uchun keltirgan afsonalar va tarixiy voqealar O'rta Osiyoda yaratilgan afsonalar bilan yaxlitlik kasb etadi. Uchinchidan, Beruniy sulolalar shajarasini "Avesto"ga bog'laydi. Qolaversa, Beruniydan oldin o'tgan muarrixlar ham "Avesto"ni ishonchli tarixiy manba sifatida qaraganlar. Shuningdek, afsona va tarix, afsonaviy qahramon va tarixiy shaxslarni bir shajara deb biladi. Beruniyning tarixga bu munosabati Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome' ut-tavorix", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Navoiyning "Tarixi muluki Ajam", Abulg'ozil Bahodirxonning "Shajarai turk" asarlarida ham davom etdi. Afsonalarni tarixiy voqealar bilan tenglashtirgan bu ulug' allomalar uchun endi afsonalar tarixni dalillash uchun emas, balki tarixning o'zi bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda biz uchun uydirma hisoblangan obrazlarni Beruniy ishonchli tarixiy manbalardan olgani uchun tarixiy obraz deb biladi.

Fikrlar va afsonalar o'z navbatida differensiasiyalashadi. Uningcha, fikrlar va afsonalar bir-biriga zid kelmasligi lozim. Masalan, Odam ato va Momo Havo to'g'risidagi afsona bu jihatdan diqqatga sazovordir.

Bizga ma'lumki, Odam ato va Momo Havo to'g'risidagi afsona Musoning "Ibtido" kitobidan boshlangani ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan va Qur'onda

ham davom etgan. Bundan tashqari, "Avesto"da, shumer yozma yodgorliklarida ham ilk insonning paydo bo'lishi haqidagi afsonalar bor. Insoniyatning paydo bo'lishi haqidagi bu afsonalar Musoning "Ibtido" kitobidagi afsonaning variantlari deb qarash mumkin yoki mumkin emas deb bir fikrga kelishimiz uchun Beruniyning fikrlariga tayanamiz. Beruniy mana shu afsonaga murojaat etib va tahlil etib, adabiyotshunos olim ekanligini yana bir marta namoyon qildi. Beruniy, avvalo, bu afsonaning paydo bo'lish sabablarini dalilladi. Ayni paytda Beruniy bu afsonaning variantlari mavjudligiga izoh berib, bu variantlilikni quyidagicha talqin qildi: "...birov Odam va Havvoda tarix olib, zamonlar ichida bir qancha davrlar bor, [hamma] tug'ilgan narsalar halok bo'lib, [yana boshqalari] paydo bo'ladi, har bir davrning maxsus Odam va Havvosi bor, shu davr erasi ularning ikkalasiga bog'liq bo'ladi, deb gumon qiladi. Yoki birov, har bir davrda har qaysi joy uchun alohida Odam va Havvo to'g'ri kelgan, shuning uchun odamlarning ko'rinishlari, tabiatlari va tillari turlicha bo'ladi, deb gumon qiladi". Beruniy bu afsonaning tarixini tahlil qilishda davom etib, odamlarning jannatga tushishlaridan tarix boshlanganini ta'kidlaydi.

Mazkur afsonani Beruniy tahlil qilar ekan, bu tahlildan biz ikki narsani anglaymiz: birinchidan, Beruniy afsonaning tarixan kelib chiqishini aniqlaydi; ikkinchidan, afsonaning variantlari paydo bo'lishiga aniqlik kiritadi. Bu bilan Beruniy Odam ato va Momo Havo to'g'risidagi afsonalarning sanasini ham aniqlagan bo'lib chiqadi. Fikr ham, Beruniyning talqinicha, tarixiy dalildir.

Umuman olganda, Beruniy har bir afsonadan tarixiylik tamoyilini keltirib chiqaradi. O'z navbatida afsonalar adabiy jarayonning ilk bosqichi ekaniga esa tarixiylik tamoyili dalildir.

Beruniy bu gapi bilan afsonalarning, shuningdek, rivoyatlarning o'z asari tarkibidagi o'rniga baho beradi. Beruniy uchun tarixiylik tamoyili - haqiqatni qidiruvchi bitta vosita, ma'lum bir voqelikni yoki detalni isbotlash uchun keltirilgan yagona dalil. Beruniy rivoyatlarning boshqalar uchun yo'l ko'rsatuvchi

ekanini ta'kidlar ekan, bundan rivoyatlarning tarbiyaviy ahamiyatini ham anglash mumkin. Ayni paytda rivoyatlar ilmiy tafakkur, fikr va xulosalar uchun muhim zamin ekaniga Beruniy ishora qiladi. Ilmiy tafakkurga tayanmasa, tarixiy etnografik asar tarkibidagi har qanday rivoyat Beruniy aytgan vazifasini yo'qotadi. Ammo bunda ham Beruniy tarixiylik tamoyilidan chekinmaydi. Beruniy asarining boshidayoq adabiy jarayonning, xususan, rivoyatlarning ijtimoiy, ma'naviy hayot uchun nihoyatda ishonchli omil ekanini ham dalillab, kitobxonda ishonch hosil qiladi.

Beruniy bir voqeadan ikkinchisiga, bir dalildan birdaniga boshqasiga o'tib turadi, bayonda bir xillikdan qochadi. Hatto "Geodeziya", "Qonuni Ma'sudiy", "Mineralogiya" singari ilmiy asarlarida ham shu yo'lni tanlaydi: o'rni-o'rni bilan qiziqarli voqealardan, hikoyatlardan, o'zining she'rlaridan keltiradi. Shuningdek, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da rivoyat va afsonalar ishlatishda ham shunday yo'l tutadi. Beruniy ilmiy asarlar tamoyilidan chekinayotganini biladi. Ammo bu usul kitobxonni asarga olib kirishda, asar mazmuniga va mohiyatiga jalb qilishda muhim vosita ekanini bilgan holda, shunday "chekinishlar" qiladi. Bu haqda Beruniyning o'zi shunday deydi: "Garchi biz [bu kitobning] ba'zi joylarida turli fanlarga o'tib, bayonimizga aloqasi uzoq [masalalarga] kirishib ketsak ham, bu gapni cho'zish va ko'paytirish maqsadida emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik uchundir. Chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. [O'quvchi] fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi, birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u kishi «har bir yangi narsada lazzat bor» deyilganidek, ularni [ko'rishga] qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi".

Beruniy shundan so'ng Odam, uning o'g'illari va shajarasi haqidagi rivoyatlarni bayon qilib, jadval shaklida keltiradi. Beruniy uchun manba – yahudiylarning Tavroti. U Tavrotning uch nusxasini qiyoslab, ular o'rtasidagi ixtiloflarni aniqlaydi. Bular: 1) mualliflar bayonidagi ixtiloflar; 2) diniy

kitoblardagi ixtiloflar. Beruniy qaysi biriga murojaat etmasin, avvalo, tarixiy haqiqatni aniqlashtirib olgandan so'ng, dalillarni asariga kiritadi.

Birinchi inson haqidagi afsonalar dunyo xalqlarining ko'pida yaratilgan. Odam va Havo, Mard va Mardona, Malhiy va Malhiyona, Misho va Mishona haqidagi afsonalarni Beruniy hikoya qiladi. Birinchi insonni inkor qiluvchilar ham bo'lgan. Beruniy, shomonlarning qarashi shunday bo'lgan edi, deb yozadi.

Beruniy rivoyatlarni asariga kiritganda, haqiqatga yaqinini tanlab oladi. Bu bilan u albatta, saralash tamoyiliga ham rioya qiladi. Shu bois rivoyatlarga tanqidiy nuqtai nazardan yondashadi. O'zi tanlagan tamoyil asosida o'zidan oldin o'tgan olimlarning tarixiy asarlarini qo'rqmasdan tanqid qiladi. Uning saralash tamoyili shundan iborat ediki, manbalarni tahlil qilganda, rostday ko'ringan, lekin isbotsiz rivoyatlarni o'zi tekshirib ko'rmaguncha ularga ishonmaydi. Darvoqe, "isbotsiz rivoyatlar", Beruniyning qarashicha, qanday xususiyatlarga ega? Beruniyning zukko va sinchkov adabiyotshunos sifatidagi xizmatlari ana shu o'rinlarda ayon bo'ladi. Buning ustiga, Beruniy har bir manbaga, dalilga xolis qaraydi. Uning uchun diniy aqidalar to'siq emas, uning uchun aqlning va bilimdonlikning o'zi kifoya emas. U uchun manbaning ishonchliligi muhim. Beruniy esa ishonchli manba sifatida Tavrotni, Injilni e'tirof etadi. Aqlga suyanish ham muhim emasligini, aql faqat mulohazakorlikka olib borishini va buning oqibati manbadan uzoqlashishga sabab bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Beruniyning o'z oldiga qo'ygan vazifasi va amal qilgan tamoyili shuki, u dalillarni saralab olish va qiyoslash yo'lidan ketadi va buni quyidagicha izohlaydi: "...mendan so'ralgan narsaga yetkazuvchi vositalarning eng muhimi – qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar (ta'kid bizniki – N.R.), o'tmish avlodlar to'g'risidagi xabarlarini bilishdir, chunki bularning ko'pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasmu rusum qoidalaridan iboratdir. Aqliy [narsalardan] dalil keltirish, kuzatilgan [narsalarga] qiyos qilish yo'li bilan u xabarlarini bilib bo'lmaydi. Buni faqat "kitob ahllari" va turli din arboblari, shu [e'tiqodlarga] amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga

ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan bilinadi. So‘ngra buni ko‘pchilik kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko‘rishga imkon bermaydigan omillardan o‘zni tozalagandan keyin, ularning isbot uchun keltirgan so‘z va e‘tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o‘tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi yo‘l va bunga dog‘ tushiruvchi shak-shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir. Garchi qattiq urinib zo‘r mashaqqat cheksak ham, o‘shandan boshqa yo‘l bilan maqsadga erisholmaymiz”.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Beruniy tarixiylik tamoyiliga qaysi asarida syyanadi?
2. “Avesto” haqidagi kuzatuvlariga siz nima deysiz?
3. Tarixiy sulolalar haqida Beruniyning qarashlarini tahlil qiling?
4. Birinchi inson haqida Beruniyning keltirgan afsona va rivoyatlari qanchali maqsadga muvofiq?
5. Beruniyning hikoyanavisligi qaysi asarida kozga tashlanadi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. М., 1989.
2. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tariixi, T, “Sano standart”, 2017.
3. Ranmonov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari, T., “MUMTOZ SO‘Z”, 2016.
4. Фитрат. Танланган асарлар, 2-жилд, Түб Маънавият, 2000.

5. Тамарченко Н.Д., Тюпа В. И., Бройтман С.Н. Террия литературы в двух томах. Том 2, М., 2004.
6. Гринцер П.А. Литература древности и Средневековья в системе исторической поэтики// Историческая поэтика: Итоги и перспективы изучения. М., 1986. С72.

3-MAVZU:

CHIG'ATOY TILI VA ADABIYOTI HAMDA DAVRLASHTIRISH MASALALARI. TEMURIYLAR DAVRI CHIG'ATOY ADABIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

REJA:

1. *Chig'atoy ulusi haqida.*
2. *Chig'atoy tili termini haqida.*
3. *Chig'atoy tili va Oltoy tillari o'rtasidagi bog'liqlik.*
4. *Chig'atoy tili, xon tili va koshg'ar tillari o'rtasidagi.*
5. *Chig'atoy adabiyotini chuqur tahlil qilib o'rgangan olimlar.*
6. *Kopurilizodaning chig'atoy adabiyotini davrlashtirishi haqida.*

Tayanch tushunchalar: *Chig'atoy ulusi, Chig'atoy tili, Chig'atoy adabiyoti, turkologiya, qorluq-xorazm adabiy tili, rotatsizm.*

Yevropa turkologiyasida o'zbek tilini va o'zbek adabiyotini davrlashtirish haqida so'z ketganda, chig'atoy tili va chig'atoy adabiyoti asosiy mezon bo'lib keladi. Xorijlik olimlarning bu tamoyili Yevropa turkologiyasida an'ana bo'lib qolgan. Ular chig'atoy tili va chig'atoy adabiyoti atamasini davrlashtirishga tatbiq qilganlarida, bu terminlarni bevosita va bilvosita sharq tarixi manbalaridan olganlarini aytib o'tishimiz kerak. Ular, birinchi navbatda, chig'atoy ulusiga alohida e'tibor qaratganlar.

Chig'atoy ulusi. "Chig'atoy" so'zi Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy ismidan olingan. Chingizxon vafotidan oldin mo'g'ul imperiyasini o'g'illari

orasida taqsimlagach, Chig'atoy Movarounnahr, Yettisuvga va Sharqiy Turkistonga egalik qiladigan bo'ldi.

“Chig'atoy ulusi” termini ulusning rasmiy nomi bo'lib, Duvo xon hukmronligi davrida (1274-1306) tarixga kirdi. Chig'atoy xonlarining harbiy qudratiga asos solgan Movarounnahrning turk va turklashgan ko'chmanchi mo'g'ul qabilalariga ham “Chig'atoy” nomi berilgan edi. Imperiyaning sharqiy qismida yashagan ko'chmanchilar esa “mo'g'ullar” deb ataladigan bo'ldi. “Chig'atoy ulusi” termini ilk bor Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa'dayn va majmai bahrayn” asarida (XV asr) qo'llangan. “Boburnoma”da ulusning nomi sifatida chig'atoy so'zi bir necha o'rinda qo'llangan. Jumladan, Bobur mirzoga dushmanlashgan Mirzoxon haqida so'z ketar ekan, “Mirzoxonga kirgan sipohiy va raiyat va mo'g'ul va chig'atoy mutavahhim va muzabzab edilar” deb yozadi Bobur. Bu o'rinda Mirzoxon lashkari ichida mo'g'ul va chig'atoylardan ham iborat bo'lgani haqida so'z ketmoqda, ya'ni mo'g'ul va chig'atoy tamomila boshqaboshqa xalq ekani anglashilib turadi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si chig'atoycha tarjimasida Amir Temurning lashkari “Chig'atoy cherigi” degan nom bilan atalgan. XIII-XIV asrga oid Vizantiya yozma manbalarida G'arbiy Turkistonning (ya'ni O'rta Osiyoning) aholisi Chakxataides, Chagatayes, Chagataye, Chakxataio nomlari bilan qayd etilgan. Usmonli turklarining tarixiy va adabiy yozma manbalarida “chig'atoy” termini etnik nom sifatida qo'llangan. Muhammad Solihning “Shayboniynoma”sida chig'atoy va o'zbek degan so'zlar qo'llangan bo'lib, bir-biriga zid etnik nomlarni ifoda etgan. Temuriylardan yuz o'girib, Shayboniixon boshchiligidagi Dashti Qipchoq o'zbeklari xizmatiga kirgan shoir Samarqanddan kelgan elchilar bilan Shayboniixon orasidagi suhbatni keltiradi. Shayboniixon elchilarga shunday deydi:

Bilki, men barchaga mushfiqdirmen,

Barcha el birla muvofiqdirmen,

Chig'atoy el meni o'zbek demasun,

Behuda fikr qilib g'am yemasun.

Chig'atoy ulusi – Temuriylar, ya'ni turk qavmi, o'zbek – Dashti Qipchoq o'zbeklari ekani, Shayboniyxon chig'atoy xalqiga aslo dushmanlik kayfiyatida emasligi ushbu parchadan anglashilib turibdi. Endi shu asardan quyidagi ikki baytni olib ko'raylik:

Dedilar: sen Chig'atoy elisen,

Ushbu yerda Chig'atoy xaylisen.

Ne der o'zbek bila yovar bo'ldung,

Xonga bu yanglig' chokar bo'ldung?

Bu baytlar Muhammad Solihga qaratilgan bo'lib, sen chig'atoy xalqiga xiyonat qilding, bu yerdagi chig'atoy to'dasidansan, o'zbeklarga xizmatkor bo'lding, Shayboniyxonga malay bo'lding, deb o'ziga aytilgan ta'nalarni bayon qilmoqda. Umuman, chig'atoy xalqi - Temuriylar va Dashti Qipchoq o'zbeklari o'rtasidagi dushmanlik munosabatlari bu asarda ochiq bayon etilmoqda. Ikki etnik nom – chig'atoy va o'zbek ulusi orasidagi o'zaro siyosiy munosabatlar yuqoridagi parchalarda ochiq ko'rinib turibdi. Aslida har ikkalasi ham bir qavmga – turkiy qavmlarga mansub edi. Alisher Navoiy chig'atoy xalqining turk ulusiga mansubligi haqida “Mezon ul-avzon” asarida ochiq aytgan: Yana turk ulusi, bataxis , chig'atoy xalqi aro shoyi' avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab, majolisda ayturlar. Birisi tuyug'dirkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur...”. Bu o'rinda Navoiy chig'atoy xalqi kalimasi orqali Temuriylarni nazarda tutgan va boshqa turkiy qavmlardan shu kalima orqali Temuriylarni alohida ajratib ko'rsatgan.

Abulg'ozir Bahodirxonning “Shajarayi turk” (XVII asr), Mirzo Mehdixonning “Sanglox” nomli chig'atoycha-forscha lug'ati, Shayx Sulaymon

Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoy va turki Usmoniy” (XIX asrning oxirgi choragi) kabi qator tarixiy va lingvistik asarlarda chig‘atoy termini saqlangan va Temuriylar mansub bo‘lgan turkiy qavmni bildirgan.

Chig‘atoy nomi bilan atalgan qabilalar XIX asrgacha ham G‘arbiy Turkistonning turli o‘lkalarida – qirg‘izlar (qozoqlar), qoraqalpoqlar va o‘zbeklar orasida bor edi. Bu haqida G. Vamberi, N. A. Aristov kabi turkologlarning ishonchli ma’lumotlari saqlangan.

Biz chig‘atoy etnik nomi haqida qisqacha ma’lumot berdik. Darvoqe, chig‘atoy xalqining etnik tarkibi haqida aniq tasavvur hosil qilmasdan turib, chig‘atoy tili va chig‘atoy adabiyoti haqida so‘z yuritib bo‘lmaydi.

Chig‘atoy tili. Jahon turkologiyasining muhim vazifalaridan biri ham turkiy tillar tarixi va ularni davrlashtirish ekani ma’lum. Jahon turkologlari uchun, zamonaviy turkiy tillardan ko‘ra, turkiy tillar tarixini va adabiy tilning taraqqiyotini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etgan edi. Turkologlar qiyosiytarixiy metodga tayangan holda, Oltoy nazariyasiga ko‘proq urg‘u bergan edilar. Tabiiyki, Oltoy nazariyasi turkiy tillarning, shuningdek, turkiy qavmlar etnik jarayonining ilk davriga qiziqishni orttirgan.

Jahon turkologlarining aksariyati turkiy tillarni davrlashtirishda Oltoy nazariyasini aslo inkor qilmaydilar. Keyinchalik turkiy tillar tarixida “o‘rta turk tili” davriga nisbatan Yevropa olimlari “chig‘atoy tili” terminini ishlatadigan bo‘ldilar. Chig‘atoy tili va chig‘atoy adabiyotiga nisbatan Yevropa turkologiyasidagi qarashlar har xil. Barcha turkologlar “chig‘atoy tili”ni eski o‘zbek tiliga, “chig‘atoy adabiyoti”ni XIII asrdan keyingi, ayniqsa, Temuriylar davri o‘zbek adabiyotiga nisbatan ishlatadilar. Yuqorida chig‘atoy degan nom Temuriylar mansub bo‘lgan turkiy qavmni ifodalaganini aytib o‘tdik.

Shuningdek, chig‘atoy tilini davrlashtirish tamoyillari chig‘atoy adabiyotini davrlashtirishga asos bo‘lgan. Jumladan, N.A.Baskakov chig‘atoy tiliga mansub ilk davrlardagi yozma adabiyot xususiyatlarini tavsiflab, quyidagicha qarashlarini ilgari suradi: «Chig‘atoy adabiy tili degan yodgorliklar tiliga kelganda, shuni

aytish kerakki, bu yodgorliklar Qoraxoniylar davridagi adabiy tilni ko'proq saqlab qoldi.

“O'g'uznoma”da, “Muqaddimat ul-adab”da va “Ravnaq ul-islom”da $z - y$ ($z - \ll \text{Muqaddimat ul-adab} \gg$ da, $z > y - \ll \text{O'g'uznoma} \gg$ da va $\ll \text{Ravnaq ul-islom} \gg$)da o'zgarishi diqqatga sazovor». Ayni paytda N.A.Baskakov chig'atoy adabiy tili va Oltin O'rda adabiy tili o'rtasidagi yaqinlikni ko'rsatish uchun bu tillarni, geografik o'rniga ko'ra, quyidagicha tavsif qiladi: “Qorluq-xorazm adabiy tili Qoraxoniylar davridan keyingi adabiy tilning modifikasiyasidan biri sifatida mo'g'ullargacha Xorazmda paydo bo'lgan edi. Keyinroq - mo'g'ullar istilosi davrida bu til bir-biriga juda yaqin ikki tilning rivoji uchun asos bo'lib xizmat qildi: bu ikki til – markazi Xorazm bo'lgan Jo'ji ulusining Oltin O'rda adabiy tili va Chig'atoy ulusining chig'atoy tili deb atalgan tillaridir”. Oltin O'rda va chig'atoy adabiy tillaridagi fonetik qonuniyatlarning o'zgachaligi natijasida har ikki tilning bir-biridan farqli jihatlari e'tiborga olinadigan bo'lsa, V.V.Bartoldning qarashlari bilan N.A.Baskakovning qarashlarida ziddiyat boray tasavvur paydo bo'ladi. Ammo bu davrda Oltin O'rda va chig'atoy tilidagi yozma yodgorliklarda alohida-alohida, bir-biridan farq qiladigan umumiy adabiy til mezonlari yo'q, bu asarlar o'rtasidagi farq qayerda (qaysi dialekt muhitida) ekanini va muallifning qaysi sheva vakili ekanligini ko'rsatadi, yuqoridagi fonetik o'zgachaliklar adabiy til uchun qonuniyat emas, degan qarashlarga asos bo'ladi. Buning bitta misoli – “Muqaddimat ul-adab”ning til xususiyatlaridir. Bu asar mo'g'ullar istilosidan oldin (1128-1144 yillar) yozilgan bo'lsa ham, N.A.Baskakov chig'atoy adabiy tili yodgorliklaridan biri hisoblaydi. “Muqaddimat ul-adab”ning XIII-XIV asrda ko'chirilgan nusxalari asosidagina chig'atoy tili elementlarini topish mumkin bo'ladi.

Chig'atoy tili Qoraxoniylar davridagi adabiy tilning merosxo'ri, davomi hisoblanadi. Jumladan, Ya. Ekmanning “Chig'atoy tili Qoraxoniylar tilining avlodi hisoblanadi” degan fikri bu jihatdan diqqatga sazovordir. Ayni paytda chig'atoy tili faqat Qoraxoniylar sulolasidagi xoqoniya turkchasi bilan belgilanib qolmaydi,

balki “Xorazm (XIV) va Temuriylar davlatining uzluksiz adabiy tili bo‘lgan edi”. Xorazm adabiy tili, bizning kuzatuvlarimiz bo‘yicha, Oltin O‘rda adabiy tiliga to‘g‘ri keladi. Davr jihatidan chig‘atoy tiliga bunday qarash, bizningcha, to‘g‘ri. Chig‘atoy adabiy tili uzluksiz davom etdi, “eski o‘zbek tili” va “chig‘atoy tili” terminlarini biri o‘rnida ikkinchisini ishlatish Yevropa va rus turkologiyasida mavjud.

Turkologiya ilmining boshlanishida, chig‘atoy adabiyotidan ko‘ra, chig‘atoy tili va uni davrlashtirish masalasi ko‘plab rus va Yevropa sharqshunos hamda turkologlarining e‘tiborini tortgan edi. Chig‘atoy tilini davrlashtirish masalasida ular albatta ma‘lum bir ijodkorlarning asarlari tiliga tayandilar. Ammo turkologlar orasida mezonlarda yakdillikning yo‘qligi sababli ham kimdir chig‘atoy tilining shakllanishini XV asr deb ko‘rsatsa, boshqa ayrim turkologlar, chig‘atoy tili Qoraxoniylar davri adabiy tilining davomi deb, bu tilning boshlang‘ich nuqtasi XIII asrdan boshlanganini ta’kidlaydilar. Har ikkala davrni birlashtiradigan omil – chig‘atoy tilining an’anaviy ravishda turkiy tilga mansubligidir.

V.Radlov, F.Ye.Korsh, P.Melioranskiy kabi turkologlar va sharqshunoslarning chig‘atoy tili geografiyasi va davrlashtirilishiga oid kuzatuvlari, tahlillari birmuncha o‘ziga xosdir. Ayniqsa, V.V.Radlovning chig‘atoy tiliga nisbatan qarashlari boshqa turkologlarnikidan tamomila farq qiladi. Uning qarashiga ko‘ra, chig‘atoy adabiy tili geografik jihatdan Sharqiy til guruhiga mansub. Sharqiy til guruhi, uningcha, Sibir turkiy tillarini o‘z ichiga oladi.

Qolaversa, V.V.Radlov chig‘atoy tilini sun‘iy til deb qaraydi va bu tilning sun‘iyligiga sabab fors, arab so‘zlarining ko‘pligini, uyg‘ur tili elementlarining mavjudligini sabab qilib ko‘rsatadi: “Sharqiy turkiy yoki chig‘atoy tili, - deb yozadi V.V.Radlov, - sulton Bobur va uning yangi tadqiqotchisi Vamberi ishonitirganlariday, O‘rta Osiyo tili emas. Bu til, xuddi usmonli adabiy tili singari, sun‘iy adabiy tildir; chig‘atoy tili tarixiy sharoit natijasida paydo bo‘lib, endilikda turli shevalarda so‘zlashadigan sharqiy turklarning adabiy tili bo‘lib xizmat

qilmoqda. Unga (ya'ni chig'atoy tiliga – N.R.) asos sifatida uyg'urlarning adabiy tili xizmat qilgan, uyg'urlarga musulmonlik ta'sir qilgunga qadar va mo'g'ul bosqinigacha ularning adabiy tili shakllanib bo'lgan edi". V.V.Radlov uyg'ur tiliga alohida diqqat qaratib, davom etadi: "Musulmon turkiylarga nomusulmon turkiylar davridan uyg'ur yozuvi va adabiy til saqlanib qoldi. Ko'plab arab va fors so'zlarining o'zlashtirilishi natijasida uyg'ur yozuvi (eski uyg'ur-turk yozuvini nazarda tutmoqda – N.R.) asta-sekin iste'moldan chiqdi, faqat "sof uyg'ur tilida", ammo arab yozuvida bitilgan asarlar, masalan, Rabg'uziyning "Qisas ul- anbiyo"si saqlanib yetib keldi". Oltin O'rda adabiyotining mahsuli bo'lgan "Qisasi Rabg'uziy" (bu asar Toshkentda "Qisasi Rabg'uziy" nomi bilan nashr etilgan, asarning qo'lyozmasida ham shu nom bilan atalgan – N.R.)ni uyg'ur tili yodgorliklariga nisbat berishiga sabab shuki, V.Radlov uyg'ur-turk yozuvidagi yodgorliklarning til xususiyatlariga, ularda arab va fors so'zlarining nihoyatda kam qo'llanganiga alohida urg'u berdi, "Qisasi Rabg'uziy"da qadimgi turkiycha so'zlar ko'p qo'llangani (bu holat Oltin O'rda adabiy tilining xususiyati bilan bog'liq) bois, V.Radlov bu asarni uyg'ur tili yodgorliklari qatoriga kiritgan.

Shu o'rinda V.V.Radlov chig'atoy tilining sun'iyliги va uyg'ur adabiy tilining chig'atoy tiliga asos bo'lgani haqidagi fikrlariga e'tibor beraylik. V. V. Radlovning bu qarashi boshqa ayrim turkologlarning Qoraxoniylar davridagi xoqoniya turkchasi haqidagi qarashlariga uyg'undir. Zotan, Qoraxoniylar davridagi xoqoniya turkchasi uyg'urlar o'sha davrda yashagan (hozir ham yashayotgan) Sharqiy Turkistondagi adabiy tildir. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" ijod etilgan adabiy til haqida shunday deydi:

Bu Bughraxan vaqti ichra ani

Yama xan tilincha bu etmish muni

Ya'ni:

Bu Bug'roxon davrida uni (yozilib),

Shuningdek, xon tilida bunga tartib berilgandir.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida ham “koshg‘ar tili” (Yusuf Xos Hojib aytgan “xon tili”) bu davr adabiy tilining alohida xususiyati ekani ma’lumot beradi:

Tamami erur kashghariy til bila,

Ayitmish adab riqqati til bila.

Agar bilsa kashghar tilin ar kishi,

Bilur ol adibning nekim aymishi...

Kop elni korar men adib sozini,

Bila bilmasindin ular ozini (250-251, 253-baytlar)

Ya’ni:

Asarning tili boshdan-oyoq koshg‘archadir.

Adib nozik til bilan aytgandir.

Agar har odam koshg‘ar tilini bilsa, u kishi adibning barcha aytganlarini anglaydi...

Ko‘p kishilar (ellar) adibning so‘zini bilib-bilmay aytib yurganlarini uchrataman.

O‘z davridayoq Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy bu davr turkiy adabiy tilining xususiyatlarini alohida xususiyatga ega ekanini o‘rinli tavsiflab bergan.

V.V. Radlov aytgan “uyg‘ur adabiy tili” yoki boshqa turkologlar aytgan “xoqoniya turkchasi” ana shu “xon tili” yoki “koshg‘ar tili”dir.

Uyg‘ur adabiy tili an’anaviy ravishda davom etgani haqida V.V.Radlov so‘z yuritar ekan, “Qisasi Rabg‘uziy”da uyg‘ur tiliga oid elementlarni, ayniqsa, leksikadan va grammatik shakllardan topgan ko‘rinadi. Quyida “Qisasi Rabg‘uziy” va eski uyg‘ur yozuvi yodgorliklarida leksik va grammatik formalar paralleligiga oid ayrim misollar keltiramiz:

Leksik parallelizm: islom yorig‘lig‘, mo‘g‘ul sanlig‘, musulmon dinlig‘ (QR. s. 10); vraxar sangram sanlig‘ ad, tavarig‘ alip (Uyg‘.,II, 77\24) – agar men ibodatxonaga va egasiga mansub deb hisoblangan buyumni olgan bo‘lsam...Bu qamug‘ narsalarni, taqi ming muncha narsalarni...(QR 12);

Grammatik shakllar parallelizmi: bu og‘ir ishga o‘gradimiz (QR 11)...andin bashlasamiz foydasi ortuqroq bo‘lg‘ay... (QR s.11); ...tartib uza yaratilg‘anlardin og‘oz qildimiz (QR 11); VII-XIII asr turkiy yozma yodgorliklarida o‘tgan zamon fe‘lining shaxs-son qo‘shimchasi sermahsul affiks sanaladi. Ayniqsa, “Xuastuanift”da (azintimiz–yo‘ldan ozdik, yangiltimiz – xato qildik, tidimiz – aytdik, intimiz–pastga tushdik) bu qo‘shimcha faol bo‘lgani holda, “Oltun yorug‘” (X asr)da, garchi bu asar eski uyg‘ur yozuvi yodgorliklariga mansub bo‘lsa ham, bu grammatik shakl juda kam o‘rinlarda uchraydi: Ku tau atlig‘ arig kalurtimiz

(O.yo.1\7a) – Ku tay degan odamni olib keldik; Bulmatimiz, tip otuntilar (O.yo. 1\7a) – Topmadik,- deb javob berdilar. “Oltun yorug‘”da urxun- yenisey

yodgorliklaridagi leksik birliklar va grammatik formalar, qipchoq, o‘g‘uz, chigil va boshqa qator dialektlarga mansub so‘zlar uchraydi. Ayni paytda “Oltun yorug‘” Radlov ko‘rsatgan uyg‘ur-turk yozuvida bitilgan bo‘lsa ham, til jihatidan tamomila farq qilishini, barcha yozuvdagi qadimgi turkiy tilda keng tarqalgan grammatik shakl ekanini aytib o‘tishimiz kerak. “Oltun yorug‘”ning ayrim til xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, etnik jarayonlarning qonuniyatlari tilga o‘tgan, etnik va ijtimoiy guruhlar til va dialektlari taraqqiyotiga katta ta’sir qilgan. “Oltun yorug‘” leksik qatlami bir necha etnik guruhlarining sheva xususiyatlarini aks ettiradi.

Bu misollarni davom ettirish mumkin. Xususan, “Qisasi Rabg‘uziy”ning til xususiyatlari bilan eski uyg‘ur-turk yozuvidagi yodgorliklar o‘rtasida uyg‘unlik bor.

Qolaversa, Oltin O‘rda adabiy muhitida yaratilgan adabiy yodgorliklar, xususan, Qutbning “Xusrav va Shirin”, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”

asarlarida ham eski uyg'ur-turk yozuvi yodgorliklaridagi leksik birliklar va grammatik shakllar uchraydi. Bu o'zgarishlar Oltin O'rda adabiy yodgorliklar tilini xalq tiliga yaqinlashtirish va qadimgi turkiy til an'anasining davomi natijasidir.

Shu o'rinda aytib o'tishga to'g'ri keladi: V.Radlovning talqinidan shuni anglash mumkinki, u chig'atoy tilini dialektlar asosiga qurilgan adabiy til sifatida qaragan. Shu bilan birga, V.V.Radlov uyg'ur tili terminini bir o'rinda qadimgi turkiy tilga nisbatan, boshqa o'rinda uyg'ur adabiy tilini Qoraxoniylar davridagi turkiy adabiy tilga – xoqoniya turkchasiga nisbatan qo'llaganini ham ta'kidlashimiz kerak.

V.V. Radlov qadimgi turkiy tilga nisbatan uyg'ur tili terminidan foydalanganining sababi shuki, Sharqiy Turkistondan ko'plab topilgan eski uyg'urturk yozuvidagi yodgorliklar tili qadimgi turkiy tilning – VII-VIII asrdagi butun Markaziy Osiyoda amal qilgan qadimgi turkiy tilning davomi edi. Sharqiy Turkistondagi qadimgi turkiy tilni o'zida mujassamlantirgan yozma yodgorlik "Oltin yorug'"dir. "Bu asar, turkiy tillarni davrlashtirish nazariyasiga ko'ra, qadimgi turk davriga mansub. Shuningdek, yozma yodgorliklar tili, xususan, uyg'ur-turk yozuvidagi yozma yodgorliklarning tili nuqtai nazaridan ham "Oltun yorug'" qadimgi turkiy yozma adabiy til shakllangan davrga aloqador. "Oltun yorug'"dan tashqari, uyg'ur-turk yozuvidagi moniylik oqimiga oid qator yozma yodgorliklar, huquqqa oid hujjatlar, buddaviylikka mansub "Maytri smit" va boshqa janrlardagi yozma yodgorliklarning til xususiyatlari ham qadimgi turk davridagi yozma adabiy til xususiyatlarini o'ziga gavdalantiradi. Bu davrdagi adabiy til, xususan, turk-uyg'ur yozuvini yaratgan qavmlar tili Qoraxoniylar davridagi adabiy tilning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatdi". V.V. Radlov bu fikri bilan, bir tomondan, chig'atoy tili Qoraxoniylar davridagi adabiy tilning – xoqoniy turkchasining davom ekanini tasdiqlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, chig'atoy tili va chig'atoy adabiyotining O'rta Osiyo xalqlariga aloqasi yo'qligini qaysi

dalillar asosida isbotlamoqchi bo'lgani ochiq qolgan. Adabiy tilning xalq tiliga nisbatan sun'iyliги qonuniy hodisadir.

V.V. Bartold ham V. V. Radlovning qarashini – chig'atoy tilining sharqiy tilga mansubligini ma'qullaydi, ayni paytda chig'atoy adabiy tilining Temuriylar davridagi adabiy til ekanini ta'kidlaydi: “Temuriylar davridagi chig'atoy davlatida turkiy adabiyotning ajoyib ravishda gullab-yashnashi ta'siri ostida bu Sharqiy Turkiy adabiy til Sharqda ham, Yevropa ilmida ham “chig'atoy” nomini oldi”.

Xuddi V.V.Radlov singari, ayrim turkologlar chig'atoy tilining sun'iy xususiyatga egaligini isbotlash va keng ma'noda xalq tilidan keskin farqlarini ko'rsatish uchun Abulg'ozī Bahodirxonning “Shajarayi turk”dagi quyidagi gapini asos sifatida keltiradilar: “Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsun teb, turkiy til birlan aytdum. Turkiyda ham andaq aytubmankim, besh yashar o'g'lon tushunur. Bir kalima chig'atoy turkisindin va forsidin va arabiydin qo'shmayman, ravshan bo'lsun teb”. Abulg'ozining aynan shu gapi chig'atoy tilining mavqeini va unga turkologlarning munosabatini hal qiladi deb qarash mumkin. Avval aytganimizday, chig'atoy termini turk yoki turkiy qavm termini o'rnida qo'llangan. Abulg'ozī “chig'atoy turkisi” ostida Temuriylar davridagi arabcha va forscha so'zlar hamda iboralarga qorishgan chig'atoy adabiy tilini nazarda tutmoqda. Temuriylar davrida chig'atoy tiliga arabcha va forscha so'z hamda iboralarining qorishib ketgani, bu holat davr adabiy tili qonuniyati va mezonini bo'lgani, buning oqibatida tilda Xuroson uslubi asosiy o'rin egallagani V.Radlovning chig'atoy tilini sun'iy til deb qarashiga sabab bo'lgan.

Qoraxoniylar davridagi adabiy tildan chig'atoy tilining davom etgani, chig'atoy tilining shakllanish taraqqiyoti va bosqichlari, “chig'atoy tili”ning mezonlari haqida kelgusida o'zbek turkologlari jiddiy tadqiqotlar olib boradi, degan umiddamiz.

Yana shuni ta'kidlashni istaymizki, “sharqiy turkcha” termini V.V.Radlov va F.Korshning ilmiy faoliyatida asosiy o'rin egalladi. Ammo V.Radlov va

F.Korshning “sharqiy turkcha” terminiga qarashlarida hududiy va davr jihatdan yakdillik yo‘q. Zotan, V. Radlov “sharqiy turkcha” terminini mavjud Sibir tillariga bog‘lagan bo‘lsa, F. Korsh bu terminni, bir tomondan, O‘rxun yodgorliklari tiliga, uyg‘urcha, chig‘atoy va kuman (XI-XIII asrlarda – mo‘g‘ullar istilosidan oldingi bajnoqlar tili kuman tili deb atalgan) tillaridan tashkil topgan alohida guruhga, bular bilan bir qatorda, qaragash, qo‘ybal, sag‘ay va solor dialektlariga nisbatan qo‘llagan. Ko‘rinadiki, F.Korshning “chig‘atoy” tiliga nisbatan qarashi hududiy va xronologik jihatdan barqaror emas. Bizningcha, F.Korsh chig‘atoy hukmronlik qilgan hududni va bu hududning til xususiyatlarini e‘tiborga olmagan. Zotan, urxun yodgorliklari tili bilan chig‘atoy tili o‘rtasida xronologik jihatdan ham, tilning fonetik tizimi, lug‘at tarkibi jihatidan ham katta farqlar bor. Chamasi, F. Korshning “chig‘atoy tili”ni davrlashtirishida lingvistik jihatdan ham, geografik tomondan ham aniq bir mezon yo‘qday ko‘rinadi. Uning qarashi va davrlashtirishi bo‘yicha, qadimgi turkiy til yodgorliklaridan boshlab Markaziy Osiyoning ko‘p hududlaridagi XV- XVI asr adabiy yodgorliklari ham chig‘atoy tiliga mansub. F. Korsh bayon qilgan Sibirdagi turkiy tillarning leksik va grammatik tizimi bilan “chig‘atoy” termini ostidagi O‘rta Osiyo adabiy tili o‘rtasidagi keskin farqlar har bir turkologga ayon va bu o‘rinda buni sharhlash ortiqcha.

Turkologiyada “sharqiy turkiy adabiy til” haqidagi bahslar hali tugagan emas. “Sharqiy turkiy adabiy til”, bizningcha, chig‘atoy tilini qamrab ololmaydi. Chig‘atoy tilining geografiyasi g‘arbiy turkiy xalqlarni, xususan, O‘rta Osiyoni o‘z ichiga oladi. Biz ana shu jihatdan kelib chiqqan holda, chig‘atoy tilining turkiy tillar orasida tutgan o‘rniga to‘g‘ri baho bergan bo‘lamiz.

A. Krimskiy ham chig‘atoy tili haqida o‘z qarashlarini bayon etib, XIII-XVIII asrlardagi O‘rta Osiyo adabiy tiliga nisbatan chig‘atoy tili terminidan istifoda etadi.

Mashhur turkologlardan biri A.N.Samoylovichning turkiy tillar tarixini davrlashtirishida alohida o‘ziga xoslik bor edi. Uning davrlashtirishiga asosan

Qoraxoniylar, Oltin O'rda, Temuriylar va XX asr o'zbek adabiy tilidagi yodgorliklar asos bo'ldi. A.N.Samoylovich mo'g'ullar istilosigacha ikki adabiy markazni – Koshg'ar va Xorazmni e'tirof etib, bu markazlardagi adabiy farqlarning asosini tildagi farqlarda ko'radi va quyidagicha davrlashtiradi:

1. Qoraxoniylar turkchasi yoki Koshg'ar turkchasi (XI-XII asrlar).
2. Qipchoq-o'g'uz turkchasi (XIII-XIV asrlar).
3. Chig'atoycha (XV- XIX asrlar).
4. O'zbekcha (XX asr).

A.N.Samoylovichning bu davrlashtirishidagi yana bir o'ziga xoslik shundan iboratki, u O'rta Osiyoda islomgacha bo'lgan adabiy yodgorliklarga e'tibor qaratmagan. Zotan, har bir davrdagi adabiy jarayon bilan adabiy til bir-biriga uyg'un keladi, ya'ni adabiy til adabiy yodgorliklarda aks etadi.

A.N.Samoylovichning tasnifidagi “chig'atoycha” davr XIII-XIV asrlardagi adabiy jarayonni va Temuriylar davri chig'atoy adabiyotini va chig'atoy adabiy tilini to'liq qamrab olmagan. Shuningdek, XV va XIX asrlardagi adabiy jarayonni va adabiy tilni bir davrga mansub deb qarash maqsadga muvofiq emasligini, qolaversa, “chig'atoy” alohida adabiy davr emas, balki adabiy jarayonning va adabiy tilning xususiyatlarini belgilaydigan bir omil ekanini yuqorida aytib o'tdik. XVI asrdan boshlab adabiy davr jihatidan o'zbek adabiyotidagi tamomila o'zgachalik bu davr adabiyotini “chig'atoy adabiyoti” deb ajratishga aslo imkon bermaydi. XVII-XVIII asr o'zbek adabiy tilini xalq tiliga yaqinlashtirish, arabcha va forsha so'zlardan imkon qadar kam foydalanish yorqin ko'zga tashlanadi. Bu davr adabiyoti uchun mezon yoki o'lchov shudir. Bu davrlardagi ishqiy-romanik dostonlar, xalq kitoblari tilida soddalik shundan dalolat beradi. Masalan, Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostoni bilan Navoiyning “Xamsa” tarkibiga kirgan biron dostonini qiyoslash kifoya. Chig'atoy adabiyoti. V.V.Bartold ham o'z vaqtida “chig'atoy adabiyoti ilk davrdagi – Koshg'ar

davridagi adabiyotdan (Qoraxoniylar davri adabiyoti haqida so'z ketmoqda – N.R.) qanchalar ta'sirlangani hozirgacha kam o'rganilgan" deb ta'kidlaganda, tamomila haq edi. Koshg'ar davridagi adabiyoti faqat "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit-turk" dan iborat emas, balki islomgacha yaratilgan turli janrdagi yozma yodgorliklar ham Koshg'ar adabiyoti muhitiga aloqadordir. Biz yuqorida turkiy adabiy tilda uzluksizlik borligini aytgan edik. Shunday bo'lgach, tabiiyki, yozma adabiyotda ham uzluksizlik bo'lgan. Bu uzluksizlik yozma adabiyotda va tilda birdaniga keskin o'zgarishlarni keltirib chiqarmadi, o'zgarishlar asta-sekinlik bilan yuz berdi. Bizning qarashimiz bo'yicha, chig'atoy adabiyotini, xuddi chig'atoy adabiy tili singari, uyg'ur-turk yozma yodgorliklariga bog'lash noo'rin. Shuningdek, bu muammoning yechimini faqat eski uyg'ur-turk yozuvi yodgorliklari tili va chig'atoy adabiy tili o'rtasidagi munosabatlarga hamda ular o'rtasidagi chegaralarga asoslangan holda hal qilish mumkin. Chig'atoy adabiyotining ma'lum bir davrdagi ustunligi yoki tanazzuli yo barqarorligi, shubhasiz, o'sha davr badiiy asarlarining til xususiyatlariga ham bog'liqdir. "Chig'atoy adabiyoti" termini, garchi Chig'atoyning nomidan qolgan bo'lsa ham, asl ma'nosidan uzoqlashib ketdi va turkiy adabiyotning alohida oqimini ifodalaydigan terminga aylanib qoldi. Yevropa sharqshunosligi va turkologiyasi "chig'atoy adabiyoti" terminisiz o'zbek adabiyotini tasavvur qila olmaydi. Bu an'ana emas, balki qonuniyatga aylanib qolgan.

Turk olimi Ko'prulizoda chig'atoy (ya'ni o'zbek) adabiyotini davrlashtirar ekan, chig'atoy adabiyotining ma'lum bir davri va bu davrda yetishib chiqqan shaxsiyatlar haqida muhim va yetarli ma'lumotlar berdi. Bu tabiiy. Zotan, bu davrdagi adabiy jarayon, adabiy hodisalar haqida Yevropada, shuningdek, Turkiyada ham jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilgan edi.

O'zbek adabiyotshunosligida "chig'atoy adabiyoti"ga alohida e'tibor bergan dastlabki o'zbek olimlari Abdurauf Fitrat va Miyon Buzrukdir. Yuqorida ko'rib o'tganimizday, Abdurauf Fitrat o'zbek adabiyotini ikki katta bosqichga – Temuriylar davri adabiyotiga va XVI asrdan keyingi adabiyotga bo'lib o'rganishni

taklif qiladi. Har ikkala davrda ham asosiy omil estetik omillar emas, balki iqtisodiy va siyosiy jarayonlar ham davrlashtirishning asosiy omili bo'lib o'rta qildi. Shu bois siyosiy qobiq o'zbek adabiyotining har ikki davri uchun asosiy mezon bo'lib qoldi. Yuqorida biz Miyon Buzrukning o'zbek adabiyotini davrlashtirishga bo'lgan munosabatlarida ko'rib o'tganimizday, 30-yillardagi siyosiy ruh o'zbek adabiyotining davrlashtirilishi itamoyillarini va tarixini belgilab berdi.

Abdurauf Fitratning adabiyotni davrlashtirishga munosabati ham uning chig'atoy adabiyotiga munosabatida namoyon bo'lgani haqida avvalgi bobda aytib o'tgan edik. Qolaversa, Fitrat domla "savdo sarmoyasi davri adabiyoti" termini ostida «Qutadg'u bilig»dan boshlab XVI asrgacha bo'lgan davr adabiyotini nazarda tutgan edi. Ammo bu termin XI-XVI asrdagi o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlarini, davrlashtirishning tamoyillarini, adabiy jarayonning shakllangan qonuniyatlarini birlashtira olmasligi ayon haqiqat. Zotan, biz yuqorida Fitrat "savdo sarmoyasi davri adabiyoti" termini ostida birlashtirgan o'zbek adabiyotini, ya'ni besh yuz yillik adabiyotni bir necha davrga bo'lib o'rganish haqida aytib o'tgan edik. Qolaversa, Fitrat, chamasi, Oltin O'rda adabiy muhitidagi eski o'zbek tilida yaratilgan asarlarni e'tiborga olmagan. Shu bois u "Chingiziylardan Temuriylargacha bo'lgan bir asrlik zamonda chig'atoy adabiyotiga (o'zbek adabiyotiga – N.R.) oid namunalar yo'q" degan xulosaga keladi. Aynan shu davrda Oltin O'rdada o'zbek adabiyoti gullab-yashnadi, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si, Qutbning "Xusrav va Shirin"dostoni, Mahmud Ali ibn asSaroyining "Nahjul-farodis", Xisom Kotibning "Jumjuma sulton" dostoni shu davrda paydo bo'ldi. Qolaversa, Misr Mamluklar davlatida yuzaga kelgan adabiyot, jumladan, Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asari, uning butun ijodi ham Oltin O'rdaning madaniy muhiti natijasida yuzaga kelganini ta'kidlash lozim. Miyon Buzruk chig'atoy adabiyotini xos adabiyot sifatida talqin qilgan bo'lsa-da, chig'atoy adabiyotiga qarashlarida muqimlikni ko'rmaymiz. Uning e'tiborni jalb qiladigan qarashi "chig'atoy adabiyoti" degan nomga bo'lgan munosabatidir.

Uningcha, o'zbek adabiyotiga Chig'atoy ismini berib bo'lmaydi. U "chig'atoy adabiyoti" istilohiga siyosiy jihatdan yondashadi. Mana uning qarashi: "Ilmiy sohada bo'lsin, milliy harakat sohasida bo'lsin, maqbul qaralgan bu terminga o'zbek adabiyoti tarixi nuqtai nazaridan qaraganda, ba'zi anglashilmovchiliklar ko'zga tashlanadi. Chig'atoy xalqi bilan uzoq vaqt kurashgan, oxiri uning ustidan g'alaba qilib, uning o'rniga joylashgan, bu surat (temp) bilan alohida davr ochgan o'zbek xalqining adabiyotini Chig'atoy nomi bilan yuritish mukammallik kasb etmas edi...Qoraxoniylar davri adabiyotini Oltin O'rda adabiyotidan, Oltin O'rda adabiyotini Chig'atoy adabiyotidan ma'lum bir sharoit taqozosi bilan alohida qarash kerak bo'lganiday, o'zbek adabiyotini ham chig'atoy adabiyotidan shunday sharoit taqozosi bilan alohida qarash kerak bo'ladi".

Chig'atoy adabiyotini o'zbek adabiyotidan ajratadigan metodologik tamoyillar nimalardan iborat bo'lishi kerakligi noma'lumligicha qolgan. Yuqorida V.V.Bartold va boshqa ko'plab turkolog hamda sharqshunoslarning fikrlariga tayangan holda, "Chig'atoy adabiyoti" degan nom bo'shliq joydan paydo bo'lib qolmaganini, balki mavjud turkiy adabiy an'anaga tayanganini aytib o'tgan edik. Chig'atoy adabiyoti haqida so'z ketganda, chig'atoy tili haqida so'z yuritish zarurati paydo bo'ladi. Zotan, chig'atoy adabiyoti turkologlar tomonidan chig'atoy tilining elementlari asosida goh alohida davr sifatida, goh oqim sifatida ajratiladi. Shu bois hozirgi turkologiyada chig'atoy tilining alohida, o'ziga xos xususiyatlari chig'atoy adabiyotining ham xususiyatlari hisoblanadi. Chig'atoy adabiyoti, bir tomondan, arabcha va forscha so'zlarni, ikkinchi tomondan, qorluq, qipchoq va o'g'uz vakillari birgalikda va o'zaro muloqotda yashashlari natijasida yuzaga kelgan ko'plab boshqa dialekt shakllarini o'zida mujassamlantirgani bilan diqqatga sazovor.

Chig'atoy adabiyoti badiiy ifodaning yuksak darajasi borligi va terminlarning mukammalligi bilan ajralib turadi, she'riy va nasriy janrlar diniy, falsafiy-didaktik, ilmiy, huquqiy, epistolyar adabiyot uslubini o'z ichiga oladi.

Temuriylar davri chig'atoy adabiyotida ana shu omillar va mezonlar mukammal ko'rinishda mavjud. Agar chig'atoy adabiyotining bu omillarini birlamchi deb hisoblasak, Miyon Buzrukning chig'atoy adabiyotiga qarashi va munosabati, bizningcha, o'zini oqlamaydi. Avval ta'kidlaganimizday, chig'atoy adabiyoti, nomlanishidan qat'iy nazar, Qoraxoniylar davri adabiyotining davomidir.

Biz chig'atoy va Oltin O'rda adabiyotining geografik jihatdan farqlari borligini aytdik. V.V.Bartoldning chig'atoy adabiyotiga qarashi bu jihatdan diqqatga sazovor: uningcha, chig'atoy adabiyoti Oltin O'rda adabiyotining ta'sirini boshdan kechirgan. V.Bartold bu ta'sir haqida so'z yuritganda, adabiy kategoriyalarni emas, balki Oltin O'rda va chig'atoy adabiyotining til xususiyatlarini, Oltin O'rda adabiy muhitidagi janrlarning chig'atoy adabiyotiga ta'sirini nazarda tutgan. Jumladan, Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari chig'atoy adabiyotiga ta'sir ko'rsatgan. V.Bartold bu o'rinda "Muhabbatnoma" ta'sirida Temuriylar davri chig'atoy adabiyotidagi noma alohida janr sifatida barqarorlashganini nazarda tutgan. Zotan, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si xronologik jihatdan turkiy adabiyotdagi birinchi noma janriga mansub asar. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si Temuriylar davri chig'atoy adabiyotiga shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatdiki, o'ttiz yil davomida bir-biridan mukammal, tuzilishi jihatidan bir-biridan farqli uchta noma janriga mansub asar – Xo'jandiyning "Latofatnoma" (1411), Yusuf Amiriyning "Dahnoma" (1429-30), Said Ahmadning "Taashshuqnoma" (1435-36) asarlari yuzaga keldi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si bu nomalarga ta'sir etganini, chig'atoy adabiyotidagi nomachilikning yuzaga kelishida asos bo'lganini bitta misol bilan dalillaymiz:

Muhabbat jomidin ichsang sharobe,

"Muhabbatnoma"ga aysang javobe...

Xo'jandiy so'zlarin Xorazmiy miskin,

Eshitsa yo'lli deb qilg'aydi tahsin.

Bu baytlar – Xo'jandiyning "Latofatnoma"sidan. Umuman, bu o'rinda birgina noma janri misolida chig'atoy adabiyoti va Oltin O'rda adabiyoti o'rtasidagi yaqinliklar va o'zaro ta'sir haqida gapirish o'rinlidir. Oltin O'rda adabiyoti va bu davrdagi madaniy muhit arab, fors tillaridagi badiiy hamda filologik asarlarning eski o'zbek tiliga tarjima qilinishi uchun imkoniyat yaratib berdi. Oltin O'rda va Mamluklar davlati tugagandan keyin, adabiy aloqalar ham o'z-o'zidan barham topdi.

Hatto V.V.Bartoldning chig'atoy adabiyotiga nisbatan qarashi boshqa turkologlarning qarashlariga ham ta'sir qilgan. Jumladan, turk olimi Ko'prulizoda chig'atoy (o'zbek) adabiyotini davrlashtirishda uning har bir bosqichiga xos xususiyatlar haqida batafsil ma'lumotlarni keltiradi. Ko'prulizodaning davrlashtirishida aynan o'zbek adabiy tili va o'zbek adabiyotining taraqqiyoti bosqichlaridagi o'ziga xos xususiyatlar aksini topgan. Davrlashtirishning muhim tamoyillari ana shu o'ziga xosliklarda aks etishini kitobimiz avvalida ham bir qator adabiy kategoriyalar misolida aytgan edik. Ko'prulizoda chig'atoy, ya'ni o'zbek adabiyotini quyidagicha davrlashtiradi:

Ilk Chig'atoy davri (XIII-XIV asrlar).

Mumtoz davrning boshlanishi (XV asrning birinchi yarmi).

Mumtoz Chig'atoy davri (XV asrning ikkinchi yarmi, Navoiy davri).

Mumtoz davrning davomi (XVI asr, Bobur va Shayboniylar davri).

Ortga ketish va tanazzul davri (XVII-XIX asrlar).

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Chig'atoy ulusi deganda nimani tushunasiz?.
2. Chig'atoy tili deganda nimani tushunasiz?.
3. Chig'atoy adabiyoti deganda nimani tushunasiz?.

4. Fitrat Chig'atoy adabiyotini qanday sharhlagan edi?
5. Bartoldning Chig'atoy adabiyotiga qarashi qanday?
6. Kopurilizodaning Chig'atoy adabiyotiga qarashi qanday?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. II жилд (XIV-XV асрнинг биринчи ярми). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи Н. Раҳмон – Тошкент, “Фан” нашриёти, 2007, 9-бет.
2. M.Fuad Köprülü. ‘Çağatay edebiyati’ maddesi. IA.C.3. s.273.
3. Веселовский А.Н. Историчнская поэтика. М., 1989.
4. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tariixi, T, “Sano standart”, 2017.
5. Ranmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari, T., “MUMTOZ SO'Z”, 2016.
6. Фитрат.Танланган асарлар, 2-жилд, Тيوب Маънавият, 2000.
7. Тамарченко Н.Д.,Тюпа В. И.,Бройтман С.Н. Террия литературы в двух томах. Том 2, М., 2004.
8. Гринцер П.А.Литература древности и Средневековья в системе исторической поэтики// Историческая поэтика: Итоги и перспективы изучения. М., 1986. С72.

4-MAVZU:

MONIYLIK VA BUDDAVIYLIK OQIMLARI QADIMGI TURKIY
ADABIYOTNI DAVRLASHTIRISH ASOSI SIFATIDA

REJA:

1. *Oltin O'rda davlatining tashkil topishi va davlatda madaniy hayot*
2. *Oltin O'rdada madaniy hayot*
3. *Oltin O'rdada turkiy til va turkiy adabiyotga zamin yaratilishi*
4. *Mamluklar davlatining qisqacha tarixi. Bu davlatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot*
5. *Savfi Saroyi ijodi*

Tayanch tushunchalar: *Oltin O'rda adabiyoti, Dashti qipchoq, madaniy hayot, Jo'jining o'limi haqidagi rivoyat, mamluklar davlati.*

Oltin O'rda davlatining tashkil topishi va bu davlatda madaniy hayot. Turkiy adabiyot turli davrlarda ko'p buhronlarni boshidan kechirdi. Ma'lum bir zamonda adabiyot tanazzulga yuz tutgan bo'lsa, boshqa bir davrda taraqqiy etdi, yuksaldi. Markaziy Osiyodagi ijtimoiy- siyosiy hayot adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Chingizxon va uning avlodlari hukmronligi davri bunga yaqqol namuna bo'la oladi. Binobarin, chingiziylar zamonida o'zbek adabiyotining taqdirida kutilmaganda keskin o'zgarishlar paydo bo'ldi.

Chingizxon istilosidan keyin uning avlodlari Osiyo va Yevropaning turli hududlarida o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'ji – Sirdaryoning shimoliga cho'zilib ketgan qora xitoylar davlatini mulk qilib olgan edi. Ikkinchi o'g'li Chig'atoy esa O'rta Osiyoda, O'ktoy xon (Ugaday degan nom bilan ham yuritiladi) - Jung'oriyada, Tuluy - Mo'g'ulistonda hukmronlik qildilar. Mazkur davlatlarning tarixdagi o'rni to'g'risida o'sha davr muarrixlarining asarlaridan batafsil ma'lumot olish mumkin.

Oltin O'rda davlati o'z mavqei va tarixda tutgan o'rniga ko'ra, Chingizxonning boshqa o'g'illari hukmronlik o'rnatgan davlatlardan tamomila farq qiladi. Oltin O'rda Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'jining nomi bilan

bog'liq bo'lsa ham, bu davlatning hududi kengayishida va rivojida uning o'g'illari xizmatlari katta bo'ldi. Jo'jining ikkinchi o'g'li Botu Yevropani zabt etib, g'arbga tomon o'z davlati hududini kengaytirdi. Jo'jining uchinchi o'g'li Tovka Temur Itil daryosining yuqori oqimini - Bulg'oristonni mulk qilib oldi. Jo'jining to'rtinchi o'g'li Shaybon keyinchalik qirg'iz deb nom olgan cho'l hududiga hukmronlik qildi. Beshinchi o'g'li Tuvol bajnoqlar (no'g'aylar nomi ostida mashhur bo'lgan xalq) ustidan hukmronlik qildi.

Oltin O'rda bu davlatlar orasida alohida iz qoldirdi. Oltin O'rdaning davlat tuzumidan ham ko'ra, mamlakatdagi madaniy muhit to'g'risida so'z yuritish g'oyat muhimdir. Avvalo, "Oltin O'rda" degan nom va hududi to'g'risida.

"Oltin O'rda" nomi arab va Eron manbalarida deyarli uchramaydi. Rashididdinning "Jome'-ut-tavorix" (milodiy 1310\11) kitobida shunday voqea keltiriladi: "To'rtinchi yili – ot yilida Chingizxon o'zining o'rdasida bo'ldi, kuzda esa o'sha yerdan jangga o'tlanib, tangutlarning muhim shaharlaridan birini qo'lga oldi. Bu shaharni Irigay deb ataydilar". Chamasi, Irrigay Oltin O'rdaga asos bo'lgan bo'lishi mumkin. Zotan, Oltin O'rda tashkil topa boshlaganda, Chingizxon hayot edi.

"Oltin O'rda" degan nom rus tarixiy manbalarida uchraydi, xolos. Sharq manbalarida bu davlat Jo'ji ulusi yoki Ko'k O'rda deb yuritilgan. Rashididdinning uch jildlik yuqoridagi asarida Oltin O'rda to'g'risida umuman ma'lumot yo'q. Chamasi, Rashididdin Chig'atoy ulusida va Eronda hukm surgan mo'g'ul elxonalari tarixinigina yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ayni paytda "Jome'-ut-tavorix"dan yuqorida keltirilgan parchada Oltin O'rda davlatining tashkil topa boshlaganiga ishora bor.

Yana shuni e'tiborga olish kerakki, Oltin O'rda davlatining tashkil topishi haqida O'rta Osiyo, xususan, Movarounnahr va Xurosonda yaratilgan tarixiy asarlarda ham ayrim ma'lumotlar bor. Jumladan, XIX asrda yashab ijod qilgan Ogahiyning "Firdavs- ul iqbol" nomli tarixiy asarida shunday parcha bor: "Chun O'g'uzxon aholisi sab'ani taxti tasarrufig'a kirguzub mavrusiy viloyatig'a keldi,

ulug' to'y va azim jashn tartib berib, bir xirgoh tikturdikim, yag'ochlari oltundin erdi. Javohiri garonmoya bila tarsi' qililg'on. Bu bayt aning vasfidadurkim, bayt Bir uy tikti oltundin ul shahriyor Kim, ul uy falak uyidin qildi or".

Mazkur parcha Oltin O'rda davlatining ilk asosi degan fikrlar bor. Zotan, O'g'uzxon barcha tarixiy asarlarda turkiy urug'larning bobosi sifatida bayon qilinadi. Mirzo Ulug'bek "To'rt ulus tarixi" asarida O'zbekxonning o'g'li Jonibek xon hukmronligi to'g'risida so'z yuritarkan, uning xudojo'y odam, insonlardagi fazilatlarni qadrlaydigan hukmdor ekanini aytadi. Oltin O'rdani Dashti Qipchoq nomi bilan ataydi. Jumladan, u Tabrizni egallab, u yerda saltanat ishlarini joyiga qo'ygach, o'g'li Berdibek Sultonni Tabriz taxtiga o'tqazdi. O'zi esa "Dashti Qipchoq sari ravona bo'lib, Dashti Qipchoqning poytaxti bo'lgan Saroy taxtini o'z qadami bilan sarafroz qildi" Dashti Qipchoq – Oltin O'rda Mirzo Ulug'bek o'z asarida Dashti Qipchoqning (ya'ni Oltin O'rdaning) Jo'jixon va uning to'ng'ich o'g'li Botuxon qurganini o'rni-o'rni bilan ta'kidlab ketadi. Jumladan, Mirzo Ulug'bek Dashti Qipchoq davlatining hududini quyidagicha tavsif qiladi: "Mo'tabar tarix kitoblarida zikr qilinishicha, Xorazm fath qilingandan so'ng Sohibqironi a'zam Chingizxonni muazzamning amriga muvofiq Jo'jixonga Xorazm viloyati va Dashti Qipchoqni to'qiyoliq sarhadidan Soqsin, Jarar, Bulg'or, Alon, Boshqird, O'rus Cherkasgacha va qayergaki totor otlarining tuyog'i yetsa, o'sha yergacha berilgan edi. U mazkur diyorda xonlik taxti uzra qaror topgan edi. Sohibqironi a'zam Chingizxonni muazzamning vafotidan olti oy avval Dashti Qipchoqda olamdan ko'z yumganda uning [Jo'jixonning] avlodlari Dashti Qipchoqda hukmdorlik taxtiga o'tirdilar. Uning naslidan bo'lib, Dashti Qipchoqda hukm surgan sultonlardan o'ttiz uch nafarining qisqacha tarixini bayon etib birinchisi Jo'jixon ibn Chingizxon ekanini uqtiradi va unga alohida bob bag'ishlaydi. Keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, Mirzo Ulug'bek Dashti Qipchoq davlatining paydo bo'lish tarixini sinchiklab o'rgangan. Mirzo Ulug'bek Dashti Qipchoq davlatining tarixiga yanada aniqlik kiritib, Botu ibn

Jo'jini o'sha o'lkada hukm surgan sultonlardan o'ttiz to'qqiz nafarini o'z kitobida bayon etadi va Dashti Qipchoqning birinchi hukmdori sifatida Botuni tilga oladi.

Oltin O'rdaning poydevorini paydo qilgan Jo'ji emas, balki Botu ekanini Mirzo Ulug'bek e'tirof etyapti. Bizningcha, Oltin O'rda davlatining nomi va bu nomning ilmiy asoslarini Mirzo Ulug'bek yaratgan deb ayta olamiz. U o'z kitobida Dashti Qipchoqda hukmdorlik qilgan mo'g'ul xonlari o'ttiz to'qqizta bo'lganini aytadi, boshqa tarix kitoblarida ham bu ma'lumotlar bor ekanini va o'sha xonlarning birinchisi Jo'jixon ibn Chingizxon bo'lganini yozadi. Mirzo Ulug'bek bir o'rinda Dashti Qipchoqda hukm surgan Chingiz avlodlarini bir o'rinda o'ttiz to'qqizta, bir o'rinda o'ttiz uchta deb ko'rsatishidan shuni tushunish kerakki Jo'ji hayotligida Oltin O'rdani (Dashti Qipchoqni) boshqarishga ulgurmadi.

Mirzo Ulug'bek o'ttiz to'qqizta xonning qisqacha tarixini izohlar ekan, yigirma sakkizinchi xon To'g'luq Temurning bunyodkorlik ishlari haqida shunday yozadi: "Olmalig' mavzeida uning amri bilan qubba bino qilingan edi. Vafotidan keyin uni o'sha yerga dafn etdilar. Ul qubba Oltin nomi bilan mashhurdir". Yoki yigirma to'qqizinchi xon Ilyos xoja ibn To'g'lsq Temurxon vafot etgach, u Olmalig'da otasi To'g'liq Temur yoniga dafn etilganini, ul diyor urfiga ko'ra sultonlar ko'milgan joyni Oltin deb atashgani haqida ma'lumot beradi. Garchi Mirzo Ulug'bek Oltin O'rda nomini ishlatmagan bo'lsa ham, Oltin qubba Oltin O'rda nomini anglatishi o'z-o'zidan tushunarli.

Oltin O'rdada madaniy hayot. "Oltin O'rda" degan nom dastlab Chingizxon o'rdasiga nisbatan qo'llangan. Chingizxon vafotidan keyin esa "Oltin O'rda" Jo'ji ulusining nomi deb tushunilgan. Jo'ji otasi Chingizxondan oldinroq vafot etdi.

"Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" kitobida Jo'zining o'limi haqida keltirilgan rivoyat quyidagicha:

Jo'jixonni yomonlik bilan tilga olgan har bir kishi Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzamning nazarida maqbul bo'lmas edi. Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'jixon Dashti Qipchoqda hukmronlik qilardi. Jo'jixonning vafoti

haqidagi xabar O'rdaga yetib kelganda, bu xabarni Chingizxonga yetkazishga hech kimda jur'at bo'lmadi. Oxiri barcha amirlar o'zaro bir qarorga kelib ham nadim, ham ulug' amirlardan bo'lmish Ulug' Jarchi Chingizxon yaxshi holatda turganda bu xabarni yetkazishni so'radilar. Shundan so'ng Ulug' Jarchi Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam ishga mashg'ul vaqtda fursat topib dedi: (turkiycha jir):

Tengiz boshdan bulg'ondi, kim tinduroro, xonim?

Terak tubtun jig'ildi, kim turg'uzoro, xonim?

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam Jarchining javobiga shunday dedi (turkiycha jir):

Tengiz boshdan bulg'onsa, tindurur ulum Jo'jidir,

Terak tubdin jig'ilsa, turg'uzur ulum Jo'jidir

Jarchi so'zlarining ma'nosi shu ediki: "Daryo boshidan loyqalandi, uni kim tozalaydi, ey podshohim? Terak ildizidan quladi, uni kim turg'izadi, ey mening podshohim?". Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam Jarchiga shunday dedi: "Agar daryo boshidan loyqalansa, uni tindiruvchi mening farzandim Jo'chidir.

Agar terak yog'ochi tubidan qulasa, uni turg'uzuvchi mening o'g'lim Jo'chidir!" Ulug' Jarchi so'zlarini qayta-qayta takrorlab, ko'zlaridan yoshlari shashqator oqar ekan, Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam dedi (turkiycha jir):

Ko'zing yoshli chungur turlu liq-liq to'ldi bo'lg'aymu?

Jiring ko'ngul o'rkutur Jo'chi o'ldi bo'lg'aymu?

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzamning javobiga Jarchi dedi (turkiycha jir):

So'ylamakka erkim yo'q, sen so'ylading, o xonim,

O'z yarlig'lig' ozarg'a javobdi o'ylading, o xonim!

Jarchi o'z jirini takrorlar ekan, uning ko'zidan yosh donalari oqar edi. Buni ko'rgan Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam shunday dedi: "Ko'zlaring o'z yoshlarini dumalatmoqda, nahotki ko'ngling to'lib ketgan bo'lsa? So'zlaring yuraklarni o'rtadi. Nahotki Jo'ji o'lgan bo'lsa?)"

O'sha paytda sohibqironning hukmi sodir bo'lib, unda kimki Jo'chixonning o'limini tilga olsa, Sohibqiron siyosatiga duchor bo'lishi aytilgan edi. Shu sababli Jarchi Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzamga javobida shunday dedi: "Shu haqda gapirishga qudratim va ixtiyorim yo'q, o'zing shunday buyurgansan, ey shohim! O'z hukming o'zing uchun bo'lsin, to'g'ri fikr qilding, ey shohim!") Shunda Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam dedi (turkiycha jir):

Qulon olg'on quvlandi, qulunimdan ayrildim,

Ayrilishqon anqudi er ulumdan ayrildim!

Ya'ni "Ov qilish uchun ov maydonida quvlanayotgan qulonga o'xshayman, qulon o'zi qochadi. Ammo bolasi qoladi, men ham xuddi qulon kabi bolamdan judo bo'ldim! Men bir soddadil odamga o'xshayman, Soddadil kishi do'st deb fahmlab, dushman o'rtasida qolib, hamrohlaridan ayriladi, men esa mardona farzandimdan judo bo'ldim!"

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzamdan shu xildagi so'zlar otilib chiqar ekan, barcha amiru no'yonlar oyoqda turib ta'ziya bildirish rasmini ado qildilar va jir aytdilar.

Jo'ji vafotidan keyin uning to'ng'ich o'g'li O'rda taxtga o'tirdi. Bu hududlarni garchi Jo'jining o'g'illari mustaqil boshqarsalar ham, hammalar Botu xonadoniga itoat etar edilar. Botu aka-ukalariga qaraganda kuchli edi. Shu boisdan ham u otasidan qolgan hokimiyatni mustahkamlashga kirishdi. U o'z davlatining poytaxtini Itil daryosi bo'yida barpo qildi. Bu poytaxt shahar Saroy deb nomlandi. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asaridagi Jonibekxon qurdirgan Saroy shahri aynan shu shahardir. Botuning qo'l ostidagi hamma qavmlar Dashti Qipchoq nomi ostida birlashdi. Keyinchalik paydo bo'lgan "Oltin O'rda" nomi Sir

O'rda, ya'ni "oltin qarorgoh" ma'nosidadir. Yuqorida Ogahiyning "Firdavs uliqbol" asaridan biz keltirgan oltindan qilingan chodir Oltin O'rda davlatiga qarashli jamiki aholi asosan turk-mo'g'ul qavmlardan iborat bo'lib, deyarli hamma qabila vakillari istiqomat qilardi. Bunday deb aytishimizga sabab turk-mo'g'ul qavmlari O'g'uzxondan kelib chiqqani haqida Rashiddin "Jome'ut tavorix" asarining birinchi jildida batafsil bayon qiladi. Oltin O'rda barpo bo'lgunga qadar Itil daryosining quyi oqimida va Itil bo'ylarida bir necha qipchoq bekliklari bor edi; shimolda bulg'orlar yashardi; yana Volganing quyirog'ida va Shimoliy Xorazmda o'g'uzlar va qipchoqlar o'troq hayot kechirardi.

Berka xon davrida islomning qabul qilinishi Oltin O'rdaning mavqeini anchagina yuksaltirdi. Bu jarayonda albatta, Misr muhim rol o'ynadi. Endi Urganchdan, Buxorodan, oldingi Bulg'or davlatidan, Sirdaryo quyisidan hunarmandlar, musavvirlar, olimlar, shoirlar kela boshladilar. O'zbekxon davrida katta qurilishlar – machitlar, madrasalar, maqbaralar, saroylar qurildi. Oltin O'rda davlatining Misr bilan madaniy-iqtisodiy aloqalari aynan O'zbekxon davrida yanada kuchaydi. Mirzo Ulug'bek Dashti Qipchoq davlatida islomning o'rnashuvi va hukmdorlarning bu boradagi xizmatlarini o'rni-o'rni bilan aytib o'tadi. Jumladan, taxtga Botu xondan keyin o'tirgan Barakaxon ibn Jo'jixon "musulmon ayoldan tug'ilgan edi. U tug'ilgan paytda o'z onasini aslo emmagan (bu lavha O'g'uzxon chaqaloqligida onasini emmaganligi voqeasini eslatadi), oxiri musulmon ayollardan biri emizib parvarish qilgan. Katta bo'lgandan so'ng o'z birodarining farmoni bilan har tomonga sayr qilib yurib, bir vaqt qubbatul islom Buxoroga kelib qoladi va o'sha davr mashoyixlaridan birining huzuriga boradi. Ul hazratdan talqin olish sharafiga muyassar bo'ladi. Bu buzrukvor shayx hazrati Shayx Sayfiddin Boxarziy bo'lib, ular Shayx Najmiddin Kubroning ulug' xalifaalaridan edilar. U bir necha vaqt ularning qutlug' ostonasini o'pish bilan mashg'ul bo'ldi".

Mirzo Ulug'bek Barakaxonning Dashti Qipchoq taxtini egallash voqeasini bayon qilar ekan, uning lashkaridagi darvishlarning duolari bilan Itil daryosi bo'yida Halokuxon ibn Tulixon ibn Chingizxonning behisob lashkariga duch keldi.

“A'lo hazrat (ya'ni Najmiddin Kubro – N.R.) darvishlarining botinlaridan (ya'ni ilohiy ilmlaridan – N.R.) yetgan madad tufayli Haldokuxon lashkari shikast topdi...Barakaxon ibn Jo'ji muzaffar holda, ko'ngli to'la nur bilan Qodir Olloh amriga muvofiq Dashti Qipchoq taxtiga o'tirdi. Odamlarni esa islom diniga da'vat etdi.

Yetti yil muddat podsholik qildi.”

O'zbekxon hukmronligi davrida Dashti Qipchoq ma'naviy jihatdan birmuncha rivojlandi. O'zbekxonning hukmronligi yillarida “o'zbek” degan termin tarixiy asarlarda ilk bor uchraydi. Jumladan, Mirzo Ulug'bek o'z asarida O'zbekxon haqida quyidagicha tarixni bayon qiladi: “Sulton Muhammad O'zbekxon o'zining elu ulus bilan ilohiy saodat va fazilatga yetishgach, hazrati Sayyid Ota G'ayb ishorati va Oloh inoyati sababli, ularning barchasini Movarunnahr sari olib keldi. Hazrati Sayyid Otaga (unga Ollohning rahmati va rizoligi bo'lsin) hamda Sulton Muhammad O'zbekxon bilan hamrohlikda kelgan kishilardan: “Bu kelgan kim?” deb so'rardilar.. Ularning sardorlari va podshohlari O'zbekxon bo'lgani uchun o'zbek deb atardilar. Shu sababli o'sha zamondan boshlab kelgan kishilar o'zbek deb atala boshlandi. Qolib ketgan kishilar esa “qalmoq” bo'ldilar.”

XIV asrda yashagan fors tarixchisi va geografi Xamdulloh Qazviniiy Ozarbayjonga yurish qilgan O'zbek xonning askarlarini ana shu nom bilan ataydi. Bu voqea 1355-56 yillarda bo'lgan edi. Qazviniiy Dashti Qipchoqni, Oltin O'rdani “mamlakati O'zbek” deb ataydi. “O'zbekiyon” degan nom jamiki Oltin O'rda aholisining umumiy nomiga aylanib qoldi. Shuning uchun ham Abulg'oz Bahodirxon “mamlakati O'zbek” nomini Oltin O'rdaning hamma hududiga nisbatan ishlatgan edi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, "o'zbekiyon" termini bugungi o'zbek xalqining etnik nomi emas. Bu nom Oltin O'rdada O'zbek xon hukmronlik qilgan qavmlarning hammasiga tegishli. Yuqorida biz o'sha qavmlarning nomlarini aytib o'tdik. "O'zbekiyon" termini ostida qipchoqlar ham, o'g'uzlar ham, boshqird, qorachoy-bolqor, makedonlar, tatar va chuvashlar ham tushunilgan. "O'zbekiyon" etnik nom emas, balki qabilalar uyushmasi nomini ifodalagan, aniqrog'i, hududiy birlikning nomidir. O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida taniqli rus olimi akademik A.Yu.Yakubovskiy to'g'ri va ishonchli dalilni aytgan. U 1941-yili "O'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida" nomli kitobchasida "Bironta xalqning vujudga kelishi sharoitini uning nomi tarixidan farq qilish zarur" degan nuqtai nafari o'zbek xalqining etnik ildizlari "o'zbekiyon"dan boshlab emas, balki ancha ilgari – xunlar, ulardan keyin qadimgi turkiylarga borib taqalishini isbotlaydi. Qolaversa, bugungi kunda ayrim olimlarning turkiy va so'g'diy qabilalar bugungi o'zbek xalqiga zamin bo'lgani haqidagi qarashlar odamni ajablantiradi. Axir, bugungi O'zbekistonning bir necha o'lkalaridan turkiy-run yozuvlarining topilgani o'zbek xalqining etnik jarayonida so'g'dlar emas, turkiy qavmlar asos bo'lganini isbotlab turibdi.

Chingizxon saltanati yiqilgandan keyin Kaspiydan tortib Oltoygacha bo'lgan o'lkalarda Chig'atoy ulusi tashkil topdi. Agar Oltin O'rda davlatining etnik tarkibiga nazar tashlasak, bu davlat hududidagi asosiy aholi turkiy qavmlardan tashkil topganiga amin bo'lamiz. Shu sababdan "Oltin O'rda qandaydir bir xalqning normal rivojlanishi asosida tashkil topgan davlat emas, balki birovlarining yerini zo'ravonlik bilan bosib olish orqasida vujudga kelgan sun'iy bir davlat bo'lgan edi" (Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Yuqoridagi asar, 11-b.) degan qarashlarning asossiz ekanligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

Oltin O'rda madaniy muhiti o'ziga xos tarzda rivojlanib bordi. Bu davlat hududidagi madaniy hayotda, xususan, yashash tarzida, diniy e'tiqodda, arxitekturada o'troqlashgan turkiy qavmlarning ta'siri katta bo'ldi. O'zbekxon davrida Oltin O'rda jamiyatining yuqori tabaqasi islom dinini rasmiy qabul qildi.

Yuqori tabaqaning ko'zga ko'ringan vakillarini islom diniga jalb qilish ishlariga Oltin O'rda xonlaridan Berkaxon birinchi bo'lib asos soldi. Berkaxon tomonidan islom dinining qabul qilinishini XIV asrda yashagan mashhur arab tarixchisi ibn Xaldun quyidagicha tasvirlaydi: "U (Berka) islom dinini Shamsiddin Elbaxarziydan qabul qildi. Elbaxarziy esa Najmiddin Kubroning muxlislaridan bo'lgan shogird edi... Buxoroda istiqomat qilib turgan Elbaxarziy islom dinini qabul qilish to'g'risida Berkaga taklifnoma yubordi. U (Berka) islom dinini qabul qildi va: "Mening qo'l ostimdagi boshqa yerlarda ham diniy targ'ibot ishlarini bemalol olib borishingizga to'la huquq beraman", deb Elbaxarziy nomiga yorliq jo'natdi...", Mirzo Ulug'bek "To'rt ulus tarixi" asarida Dashti Qipchoq viloyatining Botu xon davridagi ahvoli, O'ktoyxon Dashti Qipchoq yerlarini kengaytirishda Botuxonga yordam berganini, "Saroy shahrini Botuxon ibn Jo'jixon qurgan"ini bayon qilar ekan, uning insoniy sifatlarini ham aytib o'tadi. "U hech bir din va mazhabga amal qilmas edi. Yazdonparastlikdan o'zga hech bir ishni qabul etmas edi. Ammo musulmonlarni to'liq izzat qilardi. Adolat va izzatda mukammal daraja egasi edi.

Aytishlaricha, saxiylik bobida uning tengi yo'q edi." . Mana shu sifatlar Dashti Qipchoq, ya'ni Oltin O'rda davlatining ravnaq topishida ham muhim omil bo'lgan. Oltin O'rdada turkiy til va turkiy adabiyotga zamin yaratilishi. Oltin O'rdada diniy madaniyat bilan bir qatorda turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e'tibor kuchaydi. Garchi bu davrdagi adabiyot – turkiy adabiyot, til – turkiy til deb yuritilsa xam, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqe tutgan har bir kitobxonga Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan asarlar bugungi kunda ham juda yaqin.

Shu o'rinda turkiy adabiyotni davrlashtirish masalasiga e'tibor qaratish zaruratini aytib o'tmoqchimiz. "Oltin O'rda adabiyoti" terminini o'zbek adabiyotshunosligiga birinchi bo'lib Miyon Buzruk olib kirgan. Oltin O'rda davlati turkiy adabiyot rivojida alohida bosqichga zamin yasadi. Bu davr adabiyoti o'zidan oldingi va keyingi davr adabiyotini aslo takrorlamagan, aksincha, o'z qiyofasiga,

mavqeiga ega bo'lgan adabiyotdir. Oltin O'rda davlatidagi ijtimoiy, siyosiy hayot madaniy hayotning tubdan yangilanishiga, o'ziga xoslik kasb etishiga xizmat qildi. O'rta Osiyodagi madaniy va adabiy hayot Oltin O'rdaga ko'chdi. Bu ko'chish tarix oqimining tabiiy samarasi bo'lgan edi. Shu bois "Oltin O'rda turkiy adabiyoti" degan termindan istifoda etish, Oltin O'rdada va Misr Mamluklar davlatida yaratilgan adabiy jarayonga nisbatan shu terminni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Oltin O'rda adabiy muhitining o'ziga xosligi. Oltin O'rda adabiy muhiti shunisi bilan diqqatga sazovorki, birinchidan, o'zbek adabiyotiga musulmon madaniyatini va islom dinini yoyish uchun turkiy tilda birinchi marta agiografik (payg'ambarlar tarixiga oid) asarlar yaratildi. Nosiruddin Burxoniddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" (710\1310 yil), Mahmud ibn Ali as-Saroyining "Nahjul - farodis" ("Jannatlarga ochiq yo'l", 761/1361 yil), Xisom Kotibning Jumjuma sulton" (1368\69 yillar; boshqa bir qo'lyozmada 1375\76 yillar) asarlari buning yorqin namunasi. "Qisasi Rabg'uziy" singari "Qisas ul-anbiyo"larning o'zbek tilidagi ko'plab nusxalari bugungi kunda Turkiya muzeylarida va boshqa mamllakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda. Bu asarlarning ko'p qismi Oltin O'rda davlati hukm surgan davrda yaratilgan. Mazkur "Qisas ul-anbiyo"larning forschadan qilingan tarjimalari ham bor. Turk olimi Ismat Jamilo'g'li "XIV asrga oid bir "Qisas ul-anbiyo" nusxasi ustida sintaktik tadqiqot" (Anqara, 1994) nomli asarida Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan "Qisas ul-anbiyo" qo'lyozma nusxalari to'g'risida ma'lumotlarni bergan.

Ikkinchidan, Oltin O'rda davlatidagi madaniy-adabiy hayotning takomili natijasida o'zbek adabiyotiga yangi janr — noma janri kirib keldi. Xorazmiyning birinchi marta o'zbek tilida yaratilgan "Muhabbatnoma" (1353) asari buning dalilidir.

Uchinchidan, Oltin O'rdadagi adabiy muhitning e'tiborga molik jihatlaridan yana biri tarjimachilikka alohida e'tibor berilganidir. Turli tillardan turkiy tilga nodir asarlarning tarjima qilingani bevosita va bilvosita Chingizxon hamda uning

farzandlari olib borgan siyosat, yerli aholiga bo'lgan ehtirom samarasidir. Chingiziy hukmdorlar farmonlarini turkiy tilda e'lon qilganlari, eski uyg'ur-turkiy yozuv asosida mo'g'ul yozuvini yaratib, mo'g'ul davlatida yangicha madaniy taraqqiyotga asos solganlari buning yana bir dalilidir.

Chingizxon avlodlarining muruvvatpeshaligi va yerli aholiga xayrixoh munosabatlarini Oltin O'rda xonlari davom ettirdilar. Oltin O'rdada turkiy tilda yaratilgan har bir asarning yuzaga kelishida biron hukmdorning ta'siri bor. Qutbning "Husrav va Shirin"i tarjimasi shahzoda Tinibekka bag'ishlangan. "Muhabbatnoma" aynan turkiy tilda Muhammad Xo'jabekning homiyligi va taklifi bilan, "Qisasi Rabg'uziy" Xorazm bekларidan To'qbug'abekning iltimosi bilan yozilgan va h. Bulardan tashqari, til jihatdan "Qisasi Rabg'uziy"ga yaqin bo'lgan "Tafsir" va "Siroj ul-qulub" asarlari ham Oltin O'rdada yaratildi.

Shu o'rinda bir dalilni ta'kidlab o'tishni o'rinli deb bilamiz. Oltin O'rda xonlarining shaxsiy fazilatlari haqida tarixiy asarlarda ma'lumotlar bor. Jumladan, Rashiddin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome'ut-tavorix", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning "Tarixi Rashidiy" asarlarida berilgan ma'lumotlar buning bir dalilidir. Jumladan, Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning "Tarixi Rashidiy" (1541-1546 yillarda fos tilida yozilgan; 1837-1838 yillarda Xoja Muhammad Sharif tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan) asarida Jo'jining yettinchi avlodi Jonibek xon haqida to'xtalib: "Bisyor hamida xisol neku af'ol erdilar (44-bet) – ya'ni ko'p maqtoqli xislatlari bor, go'zal fe'l-atvorli edilar", deb ta'rif beradi. Mirzo Ulubek "To'rt ulus tarixi" asarida O'zbekxonning o'g'li Jonibek xon hukmronligi to'g'risida so'z yuritarkan, uning xudojo'y odam, insonlardagi fazilatlarni qadrlaydigan hukmdor ekanini aytadi. Oltin O'rdani Dashti Qipchoq nomi bilan ataydi. Yuqorida aytganimizdek, O'zbekxonning hukmronligi yillarida "o'zbekiyon" degan termin tarixiy asarlarda ilk bor uchraydi. "O'zbekiyon" degan nom jamiki Oltin O'rda aholisining umumiy nomiga aylanib qoldi. Shuning uchun ham Abulg'oz

Bahodirxon “mamlakati O'zbek” nomini Oltin O'rdaning hamma hududiga nisbatan ishlatgan edi.

“Nahjul-farodis” Oltin O'rdaning asosiy aholisi hali arab va fors tillarini umuman bilmagan mo'g'ullarni mo'ljallab yozilgani va ularga islom yo'lini ko'rsatishga qaratilgani uchun Oltin O'rda aholisiga tushunarsiz so'zlar izohlab borilgan. Arabiy-forsiy so'zlardan imkon qadar mazkur asarda deyarli foydalanishdan muallif voz kechgan. Ayni paytda ommaga tushunarsiz so'zlarni, iboralarni, hadislarni matn ichida eski o'zbek tilida sharhlash Oltin O'rda adabiyotiga xos bo'lib, “Qisasi Rabg'uziy” va “Nahjul-farodis”da ko'proq uchraydi. Bizning kuzatishimizcha, turkiy tildagi boshqa asarlarda uchramaydi.

“Nahjul-farodis”dan olingan quyidagi misolga e'tibor beraylik. Biz arabcha hadisni keltirmasdan faqat eski o'zbek tiliga muallif qilgan tarjimasini beramiz:

Payg'ambar a.s.qa Mustafa at berildi. Mustafa arab tilincha odrulmish temak bolur (Arabcha hadisning mazmuni: Imom Bag'oviy rahmatullohi “Mashobih” degan kitobida quyidagi hadisni keltirgan. Payg'ambarimiz as. shunday aytgan ekan: Tangri taolo Ismoil payg'ambar o'g'illaridan Quraysh qabilasini tanlab oldi. Yana Quraysh qabilasidan Hoshim degan odamning o'g'illarini tanlab oldi. Yana o'sha Hoshim degan odamning o'g'illari orasidan meni tanlab olib, o'rta chiqardi. Shu sababdan Payg'ambar a.s.ga Mustafo ismi berildi. Mustafo - arab tilida tanlab olgan ma'nosini bildiradi.

Quyidagi diniy istilohlarga asar muallifi matnda bergan o'zbekcha izohlar ham diqqatga sazovordir: Amri ma'ruf ma'nisi edgulukka buyurmaq bo'lur taqi nahyi munkar ma'nisi yamanliqdan yig'maq bo'lur – Amri ma'rufning ma'nosi yaxshilikka undash bo'lur, yana nahyi munkarning ma'nosi yomonlikdan qaytarish bo'lur.

Yoki “Qisasi Rabg'uziy”dan olingan quyidagi hikoyatda ham yuqoridagiday usulni ko'ramiz: Umar raziyallohu anhu aydi: “Qaydin kelding?” teb. Aydi: “Iroq elindin, ya'ni Iroqdin keldim”. So'rdi: “Ne sino'at” bilursan?” Aydi: “Hobikman”.

Arab tilincha bo'zchi bo'lur. Yana so'rdi: «Na ishlarga kelding?» Aydi: «O'granu keldim, ya'ni ilm o'rgangani keldim».

Birinchi misolda muallif Mahmud Ali ibn as-Saroyi oyatning tarjimasini, ikkinchi misolda diniy istilohning o'zbekcha talqinini, uchinchi misolda esa Rabg'uziy so'zning talqini va izohini beryapti. Har uchala misolda ham bir maqsad qo'yilgan - asar matnini kitobxonga lug'atsiz va boshqalarning talqinisiz tushunarli qilib yetkazishdir. «Uyimda bir mushugim bar. Bu go'shtlarning g'uddalarini yig'ib bizning mushukka olib borg'il deyar erdi, g'udda teb etning bezlarina ayturlar (216 b.).

Asar muallifining talqinidan ko'rinadiki, u asarni yozish jarayonida, bir tomondan, keng ommani nazarda tutgan, ikkinchi tomondan, Rabg'uziy ham, Mahmud Ali ibn as-Saroyi ham turkiy tilga bo'lgan muhabbbatini namoyish qilganlar. Muallifning bu maqsadini asarda keltirilgan arabcha oyatlarning o'zbek tilida berilgan tarjimasi ham dalillaydi. "Nahjul- farodis" bilan deyarli bir davrda va bir o'lkada yaratilgan "Qisasi Rabg'uziy"da keltirilgan arabcha oyatlarning o'zbekchasi berilmagan, ammo yuqoridagiday arabcha so'zlarning tarjimasi berilgan, xolos.

Oltin O'rda abadiy davlat bo'lib qola olmadi. Shahzodalar o'rtasidagi mulkparastlik, hukmronlikka intilish Oltin O'rdani ichdan yemira boshladi. Oltin O'rda, Tovka Temur va Shaybon sulolalari o'rtasidagi ixtiloflar XIV asrning 60-yillarida kuchaydi. Aslida tanazzul alomatlari Oltin O'rda ikkiga – Ko'k O'rda va Oq O'rdaga bo'linib ketgan paytda boshlangan edi. Ayniqsa Jonibek davrida (1340-1357) tanazzul tezlashdi.

Oltin O'rda davlatining tanazzuliga yana bir sabab – bu davlatdagi iqtisodiy buhronlar, ishlab chiqaruvchi kuchlar izdan chiqib borayotgani, hunarmandlarning va boshqa tabaqa aholining katta qismi qashshoqlashuvi, faqat mahalliy bozorlar bilan chegaralanib qolingani edi. Shubhasiz, iqtisodiy va siyosiy zaiflashuv Oltin O'rdaning adabiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Oltin O'rda adabiy hayoti iqtisodiy

va siyosiy buhronlarga aralashib, tanazzulga yuz tutmasligi uchun vaziyatni ham, makonni ham o'zgartirishiga to'g'ri keldi. Adabiy hayot tamomila o'zga yurtga – Misrga ko'chdi. Bu adabiyot ravnaqi uchun Misrda barpo etilgan turkiy qavmlar davlati asos bo'ldi.

Mamluklar davlatining qisqacha tarixi. Bu davlatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. Tarixda Mamluklar davlati deb nom olgan bu siyosiy tuzilmaga 1250 yilda Iziddin Oybeg asos solgan edi.

Mamluk “qul” deganidir. Bu davlatning tashkil topishida Misrga sotilgan sobiq qullardan qipchoqlar, cherkaslar, gruzinlar muhim rol o'ynadi. Misr podshohi as-Solih Ayub vafot etgandan keyin, to uning o'g'li Turon shoh taxtga kelgunga qadar, podshoh Ayubning askarlari Misrga salib yurishlari qilgan Lyudovik IXning askarlarini tor-mor qilib, uni asirga oldilar. Ayubning lashkarlari mamluklardan iborat edi. Shu tariqa mamluklar Misrda mavqeini mustahkamlab oldilar. Oradan to'rt hafta o'tgach, Ayubning o'rniga taxtga o'tirgan Turon shoh mamluklar tomonidan o'ldirildi. Mamluklar davlatiga Ayubning bevasi Shojar addur o'tirdi.

Oradan bir necha oy o'tgach, Mamluklar davlati taxtiga Iziddin Oybeg chiqdi. Mamluklar davlati 1250 yildan XVI asrning boshlarigacha – 1516-1517 yillargacha Misr va Suriyada hukmronlik qildi. Mamluklarning birinchi hukmdori Iziddin Oybeg ham asli qipchoq qavmidan edi. Qipchoqlarning mavqei Misrda baland bo'lgani uchun hokimiyatni ular boshqardi. Taxminan 1260-yillargacha Mamluklar davlatida parokandalik bo'lib turdi. 1260 yili Rukniddin Boybars taxtga o'tirib, o'zini Misr sultoni deb e'lon qildi. U kelib chiqishi bo'yicha Xorazmdan. Bu hukmdor taxtga o'tirgach, Misrning Oltin O'rda bilan aloqalari jonlandi, tarixiy asarlar yaratish yo'lga qo'yildi. Turkiy sulolalar va xalqlari haqida tarixiygeografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomuslar yaratildi. Misrda sulton Boybarsning tarjimai holiga bag'ishlangan tarixiy asar yozildi. Bu asarni Boybarsning kotibi Abdu Zohir yozdi. Asarda Oltin O'rda bilan munosabatlar

to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi, Qrimdan Volgaga qadar qisqacha yo'l ko'rsatkich beriladi, Qrim aholisi haqida etnografik, diniy-ma'rifiy ma'lumotlar keltiriladi. Bu paytda Dashti Qipchoqdan kelgan ko'p aholi Misrda yashardi.

Boybars mamluklar davlatini mustahkamladi, har bir shaharda doimiy armiyasini tashkil qildi. Davlat ichida tartib-qoidani mustahkam qildi. Saroydagi o'zaro nizolarga tamomila barham berdi. Mamluklar davlati shu qadar gullabyashnadiki, Boybarsgacha ham, undan keyin ham bu darajada rivojlanmagan edi.

Mamluklar davlatiga dunyoning hamma tomonidan savdogarlar keladigan bo'ldi. Daryolarga ko'priklar, har bir shaharda masjidlar barpo qilindi. Boybars Sharqdagi hamma arab yerlarining, Saljuqlar va O'rta Osiyo, Armaniston o'lkalarining hukmdori bo'lib qoldi. Atrofdagi hamma davlatlar mamluklar bilan hisoblashadigan bo'ldi.

Boybars sulton bo'lganda, qipchoq yerlari Oltin O'rda davlatiga qarar, bu davlatni mo'g'ul xonlaridan Berka (1256-1266) boshqarardi. Boybars unga maktub yuborib, do'stona aloqalar o'rnatishni taklif qildi. 1262 yili har ikkala davlat o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatish maqsadida Boybars o'z elchisini jo'natdi. Shundan so'ng Oltin O'rda va Mamluklar davlati o'rtasida harbiy, savdo, diniy-ma'rifiy, madaniy aloqalar mustahkamlandi.

1277-yili Boybarsni o'zining vaziri, qipchoqlardan bo'lgan Qolovun zaharlab o'ldirdi. U Damashqda dafn etildi. Shunday qilib, Boybars sulton mamluklar davlatini qudratli saltanatga aylantirgan edi, Misr va Suriyani salib yurishlaridan, mo'g'ullar hujumidan himoya qildi.

Mamluklar davlati bilan Oltin O'rda o'rtasida Rukniddin Boybars o'rnatgan aloqa keyinchalik har ikkala davlat taqdirida muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Oltin O'rda madaniy va adabiy muhitining yashab qolishi uchun zamin yaratildi. Boybars ilk bor Oltin O'rda xoni Berkaga maktub yuborgan paytda, Oltin O'rda tanazzulga yuz tutib bo'lgan edi. Adabiy muhit asta-sekin Misrga ko'cha boshladi.

Misr mamluklar davlatidagi adabiyot bilan Oltin O'rdadagi adabiy jarayonni eski o'zbek tili birlashtirdi. Misr-turk davlatidagi adabiyotning til xususiyatlari chig'atoy tili yodgorliklari bilan qiyoslanganda, qipchoq tili elementlari bilan bir qatorda, o'g'uz tili elementlari ham ko'p ekani kuzatiladi. Bu to'g'rida mashhur turkiyshunos Amir Najip alohida tadqiqot yaratgan.

Misr turk davlatidagi adabiyotning yirik namunasi, bu mamlakatda eski o'zbek tilining amal qilganiga dalil sifatida Sayfi Saroyi va uning zamondoshlari adabiy merosini keltirish mumkin. Jumladan, Sayfi Saroyining "Gulistoni bitturkiy" asari ilm ahliga birinchi marta 1915-yili ma'lum bo'lgan. Asar Oltin O'rdadagi tarjima adabiyotlarining Misrdagi an'anaviy davomidir.

Sayfi Saroyi va uning ijodkor zamondoshlari ona Vatandan uzoqda bo'lsalar ham, XIV asrning ikkinchi yarmidagi turkiy adabiyotni yuqori darajaga ko'tarib, jamiki turkiy xalqlar o'lkalaridagi aholiga tushunarli tilda ijod qildilar. XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asrda Misr madaniy muhitini mamluklar tamomila o'zgartirib yubordilar. XV asrda yashagan arab muarrixlari qipchoq adabiy tilida va arab tilida ijod qilgan ko'plab olimlar, yozuvchilar va shoirlarning nomlarini keltiradilar. Ular Misrdagi madrasalarda turli fanlardan dars berdilar. Oltin O'rdadagi o'zaro jang-u jadallar oqibatida XIV asrning ikkinchi yarmidan ko'plab madaniyat arboblari Misrga ko'chib borib, yangi-yangi turkiy madaniy markazlarni yaratdilar. Bu davrda qipchoq-o'g'uz tilida turli mazmundagi va janrdagi adabiyot shakllandi. Arab va fors tillaridan bu tilga tarjima qilingan bir qator asarlar turkiy adabiyotni miqdor va sifat jihatdan boyitdi. Umuman turkiy madaniy muhit, turkiycha an'ana va ruh adabiyotning rivojiga imkoniyat yaratib berdi. "Shohnoma"ning tarjimasi ham ana shu madaniy muhitning mahsulidir. Mashhur venger turkiyshunosi Von Lekok shunday yozgan edi: "Misrning madaniyati va san'atining rivoji uzluksiz ravishda hokimiyat arablardan turkiy hukmdorlar qo'lga o'tgan davr bilan bog'liq". Misrda nafaqat adabiyot turkiy tilda edi, balki turkiy qavmlarning azaliy udum va qadriyatlari ham saqlanib qolgan edi.

Oltin O'rdada shakllangan turkiy adabiy va ilmiy muhitning Misrda mustahkam qaror topib borganini o'sha davrda yaratilgan ilmiy asarlar ham ko'rsatadi. Turkcha-arabcha lug'atlar (muallifi noma'lum "Tarjumoni turkiy va ajamiy va mo'g'uliy va forsiy" lug'ati, Abu Xayyonning "Kitob al-idrok li-Lison al-Atrok" nomli leksika va grammatikaga oid asari, muallifi noma'lum "At-Tuhfat az-Zakiya fil-lug'atit-turkiya" nomli leksika va grammatikaga oid asar, Jamoliddin Turkiyning "Bulg'ot" nomli qipchoq tili lug'ati va h.) buning bir dalilidir.

Umuman, Oltin O'rda va Misr mamluklar davlatining geografik hududi, til xususiyatlari, adabiy janrlar, ayniqsa, adabiy maktablar jihatidan alohida o'ziga xoslik kasb etdi. Yuqorida dialektlar asosida chig'atoy tili yuzaga kelgan deb aytganimiz singari, Oltin O'rdada va Misr mamluklar davlatida ham qipchoqo'g'uz dialektlari asosida shakllangan adabiy til amalda bo'lgan edi. Qutbning "Xusrav va Shirin", Mahmud Alining "Nahjul-farodis" asarlari tilida shu xususiyatlar bor. Qolaversa, yangi janrlarning (masalan, noma) paydo bo'lgani, yozma adabiyotga naql, latifa, rivoyat kabi xalq og'zaki ijodi janrlarining kirib kelgani ("Qisasi Rabg'uziy"da), adabiy oqimlarda tamomila yangi mazmun va yangi ruh (payg'ambarlar hayoti va tarixiga oid asarlar), badiiy tilda xalq tiliga xos soddalik, tantanavor uslubdan chekinish holatlari yorqin ko'zga tashlanadi. Tatar adabiyotshunosligida Oltin O'rda adabiyoti alohida davr sifatida talqin qilinadi. Tatar olimlari bu davr adabiyotiga, xuddi biz o'zbek adabiyotiga nisbat beradigan Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Mahmud Ali ibn as-Saroyining "Nahjul-farodis", Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy", shuningdek, Xisom Kotibning "Jumjuma sulton" kabi asarlarini kiritadilar. Tatar olimlari geografik tamoyilga ko'ra - Oltin O'rda davlati Volga bo'ylarini ham o'z ichiga olgani va poytaxt Saroy shahri ham shu o'lkada bo'lgani uchun ana shu davrlashtirishni ma'qul deb biladilar. Agar davrlashtirishda biz qo'llayotgan tamoyillarga e'tibor qaratilsa, shubhasiz, XIV asrda Volga daryosi bo'ylarida yashagan turkiy qavmlarning qipchoq-o'g'uz tili elementlari yuqoridagi

asarlarda borligi ko'zga tashlanadi. Bizning o'zbek adabiyotidan hali mustahkam o'rin olmagan "Jumjuma sulton" dostonidan bir parchani olib ko'raylik:

Ohi urdim: qani taxtim, davlatim,
 Qani xud mol, to'n, otim va mulkatim?
 Qani muncha meng, qulim va qirnaqim,
 Qani sonsiz javhar, oltin, yarmaqim?

Bu doston Oltin O'rda davlati ancha zaiflashib qolgan davrda – 1368-69-yillarda yozilgan.

Bu o'rinda mazkur parchaning eski o'zbek tilida yozilgani har bir so'z va grammatik shakllardan ko'rinib turibdi. Ayni paytda, o'g'uz dialektiga mansub yarmaq, qipchoq va o'g'uz dialektlarida baravar qo'llanadigan qirnaq kabi so'zlar bu asarning qipchoq-o'g'uz dialektiga mansubligiga ishora qiladi. Shuningdek, Oltin O'rda adabiy muhitida yozilgan Qutbning "Xusrav va Shirin"i, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si fonetik va morfologik tizimida o'ziga xosliklar bor. Jumladan, Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni fonetik jihatdan eski o'zbek tilining d tiliga, xos: beduk (baland), idi (xo'jayin), kedurdi (kiydirdi), edgu (yaxshi), adaqin (oyog'ini), qodup (qo'yib), qadg'u (qayg'u), edarlap (egarlab).

Buning natijasida shunday fikr yuritish mumkinki, XIV asrda Oltin O'rdada va Misrda qorishiq adabiy til amalda bo'lgan: Oltin O'rdadagi adabiy til turkiy tillarning d til guruhiga (masalan, "Xusrav va Shirin"), ikkinchisi Oltin O'rda va Misr mamluklar davridagi y til guruhiga mansub. Ana shu ayrim farqlardan kelib chiqib, birinchi guruhga mansub tilni Oltin O'rda-xorazm tili, ikkinchisini OltinO'rda-Misr tili deb atash maqsadga muvofiq. Yuqoridagiday o'ziga xoslik jihatidan "Xusrav va Shirin" qadimgi turkiy tilning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Mana shu farqli xususiyatlar ham Oltin O'rda adabiyotining alohida davrga mansubligini belgilaydigan omillardan biridir. Yoki 3 shaxs buyruq mayli, sifatdosh, shaxs-son affikslarining ko'pvariantliligi, jamlik son hosil qiluvchi qo'shimchalar, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasining chiqish kelishigi

qo‘shimchasi o‘rnida qo‘llanishi va boshqa bir qator lingvistik xususiyatlar eski o‘zbek tiliga xos grammatik shakllardir.

Oltin O‘rda adabiy tili turkologiyada alohida tadqiqot mavzusi bo‘lmagan esada, bu davrda yaratilgan badiiy asarlar asosida adabiy til xususida ayrim mulohazalar bildirilgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Oltin O‘rda davlatiga kim asos solgan?
2. Mirzo Ulug‘bek qaysi asarida Oltin O‘rda to‘g‘risida so‘z yuritadi va qanday nom bilan ataydi?
3. Nima uchun Oltin Ordada diniy-ma‘rifiy asarlarga e‘tibor qaratilgan?
4. “Muhabbatnoma” qaysi hukmdor davrida yaratilgan?
5. “Nahj ul-farodis”ning qisqa mundarijasini ayting.
6. “Xusrav va Shirin” troghrisida qisqacha so‘zlab bering.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzo Ulughbek. “To‘rt ulus tarixi”, T.,1994.
2. Наджип Э.Н. Культура и тюркоязычная литература Мамлюкского Египта XIV века. — Туркестан, 2004.
3. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tariixi, T, “Sano standart”, 2017.
4. Ranmonov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari, T., ‘MUMTOZ SO‘Z’, 2016.
6. Тамарченко Н.Д.,Тюпа В. И.,Бройтман С.Н. Теория литературы в двух томах. Том 2, М., 2004.

7. Гринцер П.А. Литература древности и Средневековья в системе исторической поэтики// Историческая поэтика: Итоги и перспективы изучения. М., 1986. С72.
8. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти. 2011.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI



1-AMALIY MASHG'ULOT:

CHIG'ATOY TILI VA ADABIYOTI HAMDA DAVRLASHTIRISH MASALALARI. TEMURIYLAR DAVRI CHIG'ATOY ADABIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Talabalarda adabiyotni davrlashtirishga bolgan munosabatlarini shakllantirish va eski tasavvurlarini o'zgartirish metodologiyani muhim nazariy tushuncha sifatida qarashga o'rgatish.

Markaziy Osiyodagi ijtimoiy va madaniy hayotda diniy oqimlarning roli muhim. Islom davrida ham vaziyat shunday bo'ldi. G'aznaviylar davlatining roli, G'aznaviy hukmdorlarining ilm-fan rivojidagi xizmatlari, Beruniyning ilmiy faoliyatida adabiyotshunoslik bevosita islomga tayanadi. Beruniy- ijodkor. Beruniy asarlarida turli adabiy janrlar. Beruniyning tarixni davrlashtirish tamoyillari. Samoylovich, Kopurilizoda, M.Buzruk kabilarning davrlashtirishga qoshgan hissasi.

Tarixiylik tamoyili adabiyotni yoki adabiy janrlarni ayni bir tarixiy davrga xizmat qildirishi. Tarixiy sanalar bilan tarixiylik tamoyili. Beruniy "Payg'ambarlikka da'vo qiluvchi kishilar" bobida Tarixiylik tamoyiliga munosabati. Beruniyning tarixni davrlashtirishi va davrlashtirishga asos bo'lgan omillar – afsonalar va rivoyatlarga munosabati ham ushbu mashg'ulot doirasida bo'lib boriladi.

Tinglovchilar Beruniyning "Qadimgi xalqlardan q olgan yodgorliklar" asari boyicha tayyorgarlik ko'radilar.

2-AMALIY MASHG'ULOT:

MONIYLIK VA BUDDAVIYLIK OQIMLARI QADIMGI TURKIY ADABIYOTNI DAVRLASHTIRISH ASOSI SIFATIDA

Moniylik va buddaviylik oqimlari qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida.

Moniy shaxsi va uning Sosoniylar sulolasi davrida o'ynagan roli. Beruniy Moniy haqida. Moniy ta'limoti va yozma adabiyot. Moniylik oqimidagi adabiyotning asosiy xususiyatlari. Buddaviylik oqimi qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish asosi sifatida.

Buddaviylik oqimi haqida qisqacha ma'lumot. Buddaviylik oqimi va qadimgi turkiyga qilingan tarjima adabiyotlari. "Oltun yorug'" va undagi afsona va rivoyatlar. Buddaviylik va "ixtiyoriy faqirlik". Buddaning va'dalari bilan ixtiyoriy faqirlik o'rtasidagi uyg'unlik. Turkiy afsona va miflardagi mifologik qahramonlarning "Oltun yorug'"da aks etishi. Erlik, Zervan va Xo'rmuzd obrazlari. Shomonlik oqimi qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish omili sifatida. Shomonlik haqida qisqacha ma'lumot. Urxun-yenisey yodgorliklarida shomonlikka oid g'oyalar, aqidalar va obrazlar. Bu yodgorliklardagi g'oya va obrazlar yozma adabiyotni omili sifatida.

Tinglovchilar "O'zbek mumtoz adabiyot namunalari" va "O'zbek adabiyoti tarixi", "Eng qadimgi davrlardan XV asrgacha" asarlari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.

3-AMALIY MASHG'ULOT

O'ZBEK ADABIYOTINI XRONOLOGIK BOSQICHLARGA BO'LIB O'RGANISH MASALASI

Chig'atoy tili va adabiyoti hamda davrlashtirish masalalari. Temuriylar davri chig'atoy adabiyotining asosiy xususiyatlari. Chig'atoy tili va adabiyoti terminlarining paydo bo'lish sabablari.

Chig'atoy nomi bilan atalgan qabilalar. chig'atoy tilini davrlashtirish tamoyillari chig'atoy adabiyotini davrlashtirishga asos bo'lgani. Chig'atoy tilini davrlashtirish tamoyillari chig'atoy adabiyotini davrlashtirishga asos bo'lgani. V.Radlov, F.Ye.Korsh, P.Melioranskiy kabi turkologlar va sharqshunoslarning chig'atoy tili geografiyasi va davrlashtirilishiga oid kuzatuvlari, tahlillari. Ayrim

turkologlar chig‘atoy tilining sun‘iy xususiyatga egaligini isbotlash va keng ma’noda xalq tilidan keskin farqlarini ko‘rsatish uchun Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”dagi quyidagi gapini asos sifatida keltirganlari. A.N.Samoylovichning tasnifidagi “chig‘atoycha” davr XIII-XIV asrlardagi adabiy jarayonni va Temuriylar davri chig‘atoy adabiyotini va chig‘atoy adabiy tilini to‘liq qamrab olmagan sabablari. Chig‘atoy” termini O‘rta Osiyo adabiy tili va adabiyotiga nisbatan qo‘llanadigan termindir. chig‘atoy” termini O‘rta Osiyo adabiy tili va adabiyotiga nisbatan qo‘llanadigan termindir. V.V.Bartold ham o‘z vaqtida “chig‘atoy adabiyoti ilk davrdagi – Koshg‘ar davridagi adabiyotdan (Qoraxoniylar davri adabiyoti) qanchalar ta’sirlangani hozirgacha kam o‘rganilgan” deb ta’kidlaganda, tamomila haq edi. Koshg‘ar davridagi adabiyoti faqat “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit-turk”dan iborat emas, balki islomgacha yaratilgan turli janrdagi yozma yodgorliklar ham Koshg‘ar adabiyoti muhitiga aloqadordir.


4-AMALIY MASHG‘ULOT

OLTOY NAZARIYASI VA TURKIY TILLARNING, SHUNINGDEK, TURKIY QAVMLAR ETNIK JARAYONINING ILK DAVRI

Oltin O‘rda adabiyoti alohida davr sifatida. Mamluklar davlatida o‘zbek adabiyoti.

“Oltin O‘rda” degan nom va hududi to‘g‘risida. Oltin O‘rda madaniy muhiti. Oltin O‘rda davlatida turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e’tibor. Oltin O‘rda o‘zbek adabiyoti rivojida alohida bosqichni paydo qilgani. Oltin O‘rda madaniy muhitida adabiy maktablar va oqimlar, adabiy janrlar, uslublar, mavzuning o‘ziga xosligi. xalq og‘zaki ijodi janrlari asosida yozma adabiyotda yangi janr namunalari paydo bo‘lgani: “Qisasi Rabg‘uziy”dagi qissa, hikoyat, naql, rivoyat, latifa kabi bir qator janrlar. “Nahj ul-farodis”ning uslubi og‘zaki nutq uslubiga yaqinligi.

V. KEYSLAR BANKI



KEYSLAR BANKI**Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. «Keys-stadi» -**

inglizcha soʻz boʻlib, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «stadi» oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul boʻyicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:

1-keys. Qaysi soʻzlar umuman “ajdod” va “avlod” maʼnolarini anglatmaydi?


2-keys. Soʻzning uzual va okkazional maʼnolari oʻrtasida yuzaga keladigan zidlanish qanday enantiosemiyani namoyon etadi?

3-keys. Soʻz semantik strukturasidagi maʼnolarning borliqdagi narsa-hodisa, belgi va harakat-holatni qarama-qarshi tomondan atashi yoki qarama-qarshi tomondan baholashiga koʻra qanday enantiosemiya farqlanadi?

4-keys. Badiiy asar tahlilini amalga oshirilayotgan tahlilning maqsadiga koʻra necha turi bor?

5-keys. Konstruktivistik pedagogikaning: “Dunyodagi birorta pedagog birorta oʻquvchini oʻqita olmaydi”, - degan xulosalari asoslimi?

VI.GLOSSARIY



GLOSSARIY

Termin	O'zbekcha izohi	Inglizcha izohi
MUAMMO (PROBLEM)	(arabcha "tugun" ma'nosidagi so'z) — bilish yoki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelib, hal qilinishi muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan masala yoki masalalar yig'indisi. Mavjud bilimlar bilan izohlash mumkin bo'lmagan yangi hayotiy dalil va hodisalar majmui. Muammo kundalik hayotdagi ilmiy savol va masalalardan farq qiladi. Ilmiy masala mavjud bilimlar doirasida yechilishi mumkin. Muammoni hal qilish uchun esa yangi dalillar, ma'lumotlarni to'plash, ularni yangicha izohlash, mavjud bilimlar doirasidan chiqib, ilmiy bilishning yuqoriroq darajasiga ko'tarish zarur.	(Arabic word meaning "knot") — an issue or a set of issues that arise in the process of knowledge or social development and are of great practical or theoretical importance. A new vital evidence and set of phenomena that cannot be explained by existing knowledge. The problem is different from scientific questions and problems in everyday life. A scientific problem can be solved within the framework of existing knowledge. In order to solve the problem, it is necessary to collect new evidence and data, to interpret them in a new way, to go beyond existing knowledge and raise it to a higher level of scientific knowledge.
GIPOTEZA (HYPOTHESIS)	grekcha, "hypothesis" so'zidan	derived from the Greek word

	olingan bo'lib, «asos», «tahlil» degan ma'noni anglatadi. Gipoteza narsa, hodisa va aloqalarning sabablari, oqibatlar haqida ilgari surilgan, ilmiy dalil va ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa-da, haqiqatligi hali isbotlanmagan aqliy xulosadir. Gipoteza ilmiy bilish jarayonida yangi topilgan dalillar, ma'lumotlar mavjud nazariya bilan izohlab bo'lmay qolgan vaziyatda ilgari suriladi. Gipoteza ko'lamiga ko'ra umumiy va xususiy, shuningdek, qo'llanish miqyosi va hayotiy asosiga qarab, ishchi va ilmiy gipotezalarga bo'linadi.	"hupotesis" which means "basis", "analysis". A hypothesis is a mental conclusion that is put forward about the causes and consequences of things, events and relationships, based on scientific evidence and data, but whose truth has not yet been proven. A hypothesis is put forward in a situation where newly discovered facts and data cannot be explained by the existing theory in the process of scientific knowledge. According to the scope of the hypothesis, it is divided into general and specific, as well as working and scientific hypotheses, depending on the scale of application and vital basis.
Asosiy qism (The main part)	mavzu yoritib berilishi lozim bo'lgan, rejadagi asosiy bandlar ifoda etilishi lozim bo'lgan qismlar. U insho umumiy miqdorining 80 foizidan kam bo'lmasligi	parts where the topic should be explained, the main points of the plan should be expressed. It is desirable that it should not be less than 80% of the total amount of the essay.

	maqsadga muvofiqdir.	
Nazariya (Theory)	biror hodisani ilmiy asoslarda tushuntirib beruvchi tasavvurlar, g'oyalar va tamoyillar tizimi. Torroq ma'noda olinganda, nazariya voqelikning muayyan sohasining muhim xususiyatlari, qonuniyatlari, sababiy aloqalari, mavjudlik va rivojlanish xarakterini belgilovchi asoslar to'g'risida yaxlit, to'la-to'kis qarashni ifodalovchi ilmiy bilimlar tizimidir.	a system of ideas, ideas and principles that explain a phenomenon on scientific grounds. In a narrower sense, the theory is a system of scientific knowledge that expresses a holistic, comprehensive view of the important features, laws, causal relationships, existence and development character of a certain field of reality.
Axborot (Information)	xabar, ma'lumot, informatsiya.	message, information, information.
Bilim (Knowledge)	obyektiv borliq yoki hayotning muayyan sohasiga oid ma'lumotlar majmui.	a set of information about an objective being or a specific area of life.
Ilm (Science)	kishining o'qish, o'rganish va hayotiy tajriba asosida orttirgan bilimi, ma'lumoti.	knowledge and information acquired by a person on the basis of study, learning and life experience.
Ilmiy maqola (Scientific article)	tanlab olingan muammoni yechishga bag'ishlangan ilmiy asar.	a scientific work dedicated to solving a selected problem.
Monografiya (Monograph)	bitta muammoni tekshirishga bag'ishlangan ilmiy asar.	a scientific work devoted to the investigation of one problem.

Tezis (Thesis)	Ilmiy asar, maqola, doklad va shu kabilardagi asosiy g'oyalarning qisqacha va lo'nda ifodasi.	Mainly in scientific works, articles, documents and the like short and concise expression of ideas
Annotatsiya (Annotation)	(lotin). Kitob, maqola va shu kabilarning g'oyat qisqa mazmuni	(Latin). A very short summary of books, articles, etc
Fundamental tadqiqotlar (Fundamental research)	tabiat va jamiyatdagi yangi hodisa va qonuniyatlarni nazariy jihatdan ochib berishga qaratilgan jiddiy ilmiy izlanishlardir.	are serious scientific research aimed at theoretically revealing new phenomena and laws in nature and society.
Innovatsiya (Innovation)	ilmiy-tadqiqot yoki ixtiro natijasida yaratilgan, o'zidan oldingi shu xil tuzilmalardan ustun turadigan obyekt tushuniladi. Innovatsiya hayotiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida yuzaga kelgan yangilikdir.	means an object created as a result of scientific research or invention, which is superior to similar structures before it. Innovation is a new thing created in order to satisfy vital needs.
Ixtiro (Invention)	hayot va ilmning muammolari yuzasidan taklif etilgan yangi g'oya va yechimlar majmuidan iborat bo'lib, masalani hal qilish imkonini beradi.	It consists of a set of new ideas and solutions proposed in relation to the problems of life and science, which allows solving the problem.
Ijod	insonning sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratishga yo'naltirilgan ruhiy va amaliy faoliyati.	spiritual and practical activity of a person aimed at creating qualitatively new

		material and spiritual values.
O'quv tahlili Learning Analysis	badiiy asar matnining hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik jozibasini kashf etish orqali talabao'quvchilarda barkamol shaxsga xos ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyatdir.	by discovering the vital and artistic logic and aesthetic appeal of the text of a work of art in students is a scientific-pedagogical activity aimed at forming spiritual qualities characteristic of a mature person.
Adabiy konferensiya	bir yozuvchining bir yoxud bir turkum asarlari bo'yicha alohida tayyorgarlik bilan o'tkaziladigan adabiy tadbir	a literary event held with special preparation for one or a series of works by one writer
Epigraf Epigraph	ijodiy ishning yo'nalishini belgilab berishga xizmat qiladigan so'z, ibora, jumla, maqol yoki parcha. U biror mashhur shaxsning asaridan keltirilishi ham, talabao'quvchining o'zi tomonidan aytilishi ham mumkin.	a word, phrase, sentence, proverb, or fragment that serves to define the direction of creative work. It can be quoted from the work of a famous person, or it can be said by the student himself.
Sinfdan tashqari o'qish Extracurricular activities	talaba-o'quvchilarning o'zlari yoqtirgan badiiy asarlarni o'z vaqtlari hisobiga o'qishini anglatadi.	Study outside the classroom Extracurricular activities encourage students to read their favorite works of art at their own time. means that students read their favorite works of art at the expense of their time.

Mustaqil o'qish Independent study	dasturda ko'zda tutilgan, darslikdan o'rin olgan adabiy materialning dars vaqtida, sinfxonada talaba-o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'qilishi va tahlil qilinishini anglatadi.	means that the literary material in the syllabus is read and analyzed by the students themselves during the lesson, in the classroom.
Interfaol usul Interactive method	(inter - aro, o'zaro, birgalikda, act – harakat, faoliyat, tadbir) bunda axborotlar oqimini vujudga keltirish ham, yo'naltirish ham va o'zlashtirish ham barcha qatnashchilarning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bu usulda talaba-o'quvchi talaba-o'quvchi bilan, bir talaba-o'quvchilar guruhi boshqa guruh bilan, bularning har biri alohida yoki birgalikda professoro'qituvchi bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.	Interactive method Interactive method (inter - aro, mutual, together, act - action, activity, event) in which both creating, directing and mastering the flow of information occurs as a result of the joint activity of all participants. In this method, student-pupil interacts with student-pupil, one group of students-pupils interacts with another group, each of them separately or together with professor-teacher. (inter-, reciprocal, joint, act - action, activity, event) where the flow of information is created, directed and assimilated as a result of the joint activity of all participants. In this method, the student interacts with the student, one group of students interacts with

		the other group, each individually or together with the professor-teacher.
Syujet	Fransuzcha sujet so'z bo'lib, "narsa, mazmun, mavzu" degan ma'noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.	Sujet is a French word that means "thing, content, subject". The system of communication and relations between the characters that makes up the content of the work.
Fabula	lotincha fabula so'z bo'lib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos bo'lgan hayotiy material nazarda tutiladi. "Fabula — asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog'liqlikdagi yaxlit silsilasi" ham deyiladi. O'z ma'no va mohiyatiga ko'ra bu ikki termin bir-biriga sinonimik xarakterga ega bo'lib, hozirgi adabiyotshunoslikda syujet termini faol qo'llaniladi. Fabula termini esa astasekin iste'moldan tushib qolmoqda".	The word fabula is a Latin word, which means to tell a story. The fable of a work of art refers to the life material that is the basis for the work. It is also called "a fable - a coherent series of logically connected events of a work." According to their meaning and essence, these two terms are synonymous with each other, and the term plot is actively used in modern literature. The term "fabula" is gradually falling out of use.

Ekspozisiya	lotincha expositio so'z bo'lib, "tushuntirish" degan ma'noni anglatadi. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, qahramonlar unib-o'sgan muhit shartsharoiti kabilar tasviri ekspozisiya deb yuritiladi. Ekspozisiya asarning istalgan o'rnida bo'lishi mumkin.	The Latin word expositio means "to explain." The place where the events took place, the social landscape of the time, the characters. The image of the conditions of the environment in which it grew is called exposition. Exposition of the work can be in any position.
Ta'lim metodi Teaching methods	muayyan ta'lim mazmunining talabao'quvchilar tomonidan professor-o'qituvchi rahbarligida o'zlashtirilishini tashkil etishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni anglatadi.	specific education of the content by the students to the professor organize its mastery under the guidance of a teacher means a joint activity aimed at
Voqea rivoji	Syujetdagi voqealarning ma'lum tugundan so'nggi rivojlanish jarayoni. Tugun to'satdan yuzaga kelganday bo'lishi mumkin. Biroq voqea rivoji uzoq davom etadigan jarayon.	The process of development of events in the plot from a certain node to the last. A knot may appear suddenly. However, the development of the event is a long process.
Perepetiya	Syujet voqealari rivoji davomida paydo bo'lgan yangi tugunlar yoki chigalliklar.	New knots or entanglements that appear during the development of plot events.

Voqealar kulminasiyasi	asar syujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko'tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko'rsatadigan epizod. Yechim - syujet voqealari va qahramonlar taqdirining hal bo'lishini gavdalantiruvchi epizod	An episode that rises to the top of the events in the plot of the work and shows the character and appearance of the main characters. The solution is an episode that embodies the events of the plot and the resolution of the fate of the characters.
Muqaddima	muallif o'quvchiga o'z maqsad-muddaosini ma'lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi.	the author informs the reader of his purpose and scope and gives explanations and comments about his work.
Xotima	qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo'lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qismi	the part that informs about the fate of the characters after the events of the plot of the work are over
Portret	fransuzcha portrait so'z bo'lib, "tasvir" degan ma'noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo'ladigan omillar orasida eng muhimidir. Chunki yozuvchi voqealarda ishtirok etayotgan, o'ylayotgan, qanaqadir maqsadlari bo'lgan qahramon qiyofa, ko'rinishini	the French word portrait means "image". A portrait in a work of art is one of the most important factors that form the basis for the creation of a hero's image. Because the writer certainly embodies the appearance and appearance of the hero who is participating in the events, who is

	albatta gavdalantiradi. Qahramon portreti uning suratini ko'rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o'zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo'ladi.	thinking, who has certain goals. The portrait of the hero is not only for showing his image, but also a necessary tool for realizing and understanding the situation and changes in his spiritual world.
Detal	Detal qahramon portretini emas, uning fe'latvorini ko'rsatishda ham ijodkor e'tiborni qaratgan personajlar ko'rinishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to'g'risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon xarakter-sajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo'ladi.	Not only the detailed portrait of the hero, but also his character, the comments on the appearance of the characters, which the creator paid attention to, allow us to get a certain idea not only about their external aspects, but also about their internal conditions. This is of particular importance. Just as the details highlight the character of the hero, it is also the basis for the accurate embodiment of the scenery.
Sayyor syujet	bir xil mavzu, bir xil qahramonlar taqdiri naql qilingan asarlar. Sayyor syujet barcha milliy adabiyotlar tarixida mavjud hodisa	works with the same theme, the fate of the same characters. Traveling plot is a phenomenon present in the history of all national literatures
Badiiy asar tili	adabiy til me'yorlariga	a language based on

	tayanadigan, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan tasviriylilik, emosionallik, obrazlilik, aforizm kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.	the norms of the literary language, based on the universal language, including expressions understandable to everyone, polished by creators. The language of artistic works differs from the language of scientific works by features such as imagery, emotionality, imagery, and aphorism.
Dialog	yunoncha dialogos so'z bo'lib, "ikki kishi o'rtasidagi so'zlashuv" degan ma'noni anglatadi.	the Greek word dialogos means "conversation between two people".
Jargon	fransuzcha jargon so'z bo'lib, "buzilgan til" degan ma'noni bildiradi. Binobarin, jargon sun'iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo'llanadi. Jargon so'zlar ham barcha kishilarning nutqida ishlatiladigan so'z, iboralardan tarkib topgan bo'ladi.	is a French slang word meaning "broken tongue". Therefore, jargon is an artificial, artificial language. It is used only within a certain group of people. Slang words are made up of words and expressions used in the speech of all people.
Metonimiya	ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan	a unique movement based on the affinity between two concepts. Metonymy

	o'xshashsiz ko'chim. Metonimiya yunoncha metonomadzo so'z bo'lib, “qayta nomlash”dir	is the Greek word metonomadzo, meaning "to re- name."
--	---	--

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

12. Rahmonov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. T., MUMTOZ SO‘Z, 2016
13. Stebleva I.V. Jizn i literatura doislamskix tyurkov.M, "Vostochnaya literatura", 2007.

14. N. Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi, T., "Sano-standart" nashriyoti, O'quv qo'llanmasi. 2017.
15. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalqso'zi 2017-yil, 8-fevral).
17. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalqso'zi 2017-yil, 8-fevral).
19. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilanbirga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017.
20. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalk suzi 2017-yil. 21-aprel).
22. Yu.Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. - Moskva: Vysshaya shkola, 1989. - s.
23. Broytman S.N. Istoricheskaya poetika. Moskva, 2001; Teoriya literatury: v dvux tomax. T.2: Istoricheskaya poetika. Pod red. N.D. Tamarchenko.- Moskva: ACADEMIA, 2004. - 368 S.
24. Stebleva I.V. Jizn i literatura doislamskix tyurkov. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2007.
25. Istoricheskaya poetika. Literaturnoye epoxi i tipy xudojestvennogo soznaniya. – Moskva, 1994.
26. Semantika obraza v literaturax Vostoka. – Moskva: Vostochnaya literatura, 1994.
27. Teoriya janrov literatur Vostoka. – Moskva: Vostochnaya literatura, 1985.
28. Xolmo'minov J., Hazratqulov J. Forsiy adabiyotning jahon adabiyotidagi o'rni. – Toshkent: yangi nashr, 2012.
29. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. – Toshkent: Adolat, 2004.
30. Mumtoz tarixiy poetika. O'UM, O'zMU 2011. O'zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi

31. Oltun yorug‘. 1-kitob. Toshkent, “Fan”nashriyoti, 2009.
32. Oltin yorug‘. 2-kitob. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2013
33. Rahmonov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2016.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.

VIII.TAQRIZLAR



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ulaning malakasini oshirish
tarmoq markazi "O'zbek tili va filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi"
yo'nalishi kursi o'quv reja, dastur va o'quv uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasi milliy ta'lim sohasida o'ziga xos islohotlarni amalga oshirish bugun dolzarb sanaladi. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligini dunyo adabiyotshunosligidagi yangi va zamonaviy ma'lumotlar bilan boyitish uchun oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarni qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o'quv dasturlariga dunyodagi eng ilg'or talqin usullarini egallash lozim bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi talab etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur "O'zbek tili va filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishidagi o'quv reja, dasturining mazmun-mundariyasi bilan tanishganda yuqoridagi e'tirofimiz haqligiga yana bir bora amin bo'ldik. Kursning maqsad va vazifalari tadrijiy tamoyil asosida, aniq rejada o'z aksini topgan. Tinglovchi-pedagoglarning kurs yakunida egallashi lozim ko'nikma, malaka hamda kompetatsiyalari orasida jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalardan xabardor bo'lish, adabiyot va folklor munosabatlarining nazariy-metodologik muammolarini bilish kabilarning o'rin olgani ushbu kursning ilmiy-nazariy va amaliy salohiyati ancha shakllangani va ma'lum tajribaga egaligini ko'rsatmoqda.

"Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi" deb nomlangan birinchi mutaxassislik modulida modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi haqidagi muhim tushuncha va tamoyillar, metodlarning adabiyotshunoslik ilmida tutgan o'rni, badiiy asarning formal qirralarini o'rganadigan metodlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

"Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv" deb nomlangan ikkinchi modulda sharq mumtoz adabiyotida she'r tuzilishi, mumtoz she'r nav'lari, oliy ta'limda aruz tizimini o'qitish muammolari, aruzning

nazariy asoslari haqida umumiy ma'lumot, mumtoz qofiyani o'qitish masalalari, mumtoz qofiya asoslari, uning tarkibiy qismlari, aruzda vasl, imola, taslim tushunchalari, rukn va uning turlari, bahrlar tasnifi kabi qator mavzular doirasida fanning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Mutaxassislik modullaridan "O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari" modulida esa o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik masalalari, diniy oqimlar va islomgacha bo'lgan qalimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish tamoyillari, qoraxoniylar davri adabiyotining shakllanish omillari, g'aznaviylar davri adabiyotining shakllanish manbalari haqida o'quv uslubiy majmuasida to'liq ma'lumotlar berilgan.

Tinglovchilar o'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rin olgan. O'quv dasturini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarning asarlari, shuningdek, sohaga oid internet saytlaridan foydalanilgani ham mazkur dastur va o'quv uslubiy majmuasining mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Taqrizchilar:




F.f.d., prof. M. Abdullayeva



F.f.d., prof. S. Meliyev



F.f.d., prof. J. Eshonqul



Curriculum Review on Uzbek Literary Studies at Retraining Center and Professional development of Faculty Members under the Uzbek Language and Literature University

First of all, it should be noted that the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi has been making great achievements and results in the scientific and pedagogical direction, despite the fact that not much time has passed since its establishment. Therefore, the opening of the Retraining Center and Professional development of Faculty Members is also one of the famous institutions in Uzbekistan.

This curriculum sounds very interesting when I have had a look at it's content. The goals and objectives of the course are reflected in a clear plan based on the certain principle. The curriculum consists of three modules such as "Classification of contemporary approach in Literary Studies", "Innovative approach to teaching the structure of classical poetry in higher education", "The problems of classification of the history of Uzbek literature".

The goals and objectives of the course are reflected in a clear plan based on the certain principle. The competences that faculty members should acquire are included at the end of the course. All three models consist in very important topics, such as the role of literary analyses in understanding literary text, the structure of poetry in Eastern classical literature, types of classical poetry, problems of teaching aruz in higher education, the theoretical and methodological issues of classification of history of Uzbek literature which plays very important role in understanding main direction of the Literature.

I think the curriculum of Uzbek Literary Studies was successfully formed by professional teachers and it will be very useful for faculty members who are teaching in this filed.

Professor A. Oldfield
Castol Carolina University
the head of the Department of World
Literature, USA